

T.I. Bobakulov, U.A. Abdullayev

**XALQARO
VALYUTA-KREDIT
MUNOSABATLARI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

T.Bobakulov, U.Abdullayev

**XALQARO VALYUTA-KREDIT
MUNOSABATLARI**

Darslik

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan 5230700 – Bank ishi yo'naliishi bo'yicha
darslik sifatida tavsiya etilgan*

**"Sano-standart" nashriyoti
Toshkent- 2014**

00, 2(1120)

5720

UO'K: 339.732.4 (075)

KBK: 65.268

B-79

Taqrizchilar:

A.A. Omonov – iqtisod fanlari doktori, professor

F.U. Dodihev – iqtisod fanlari nomzodi

Darslikda xalqaro valyuta-kredit munosabatlarning dolzarb nazariy va amaliy masalalari yoritilgan. Shuningdek, jahon valyuta tizimi va xalqaro hisob-kitoblar amaliyatida yuz berayotgan o'zgarishlar darslikda o'z aksini topgan.

Darslikni yozishda taniqli iqtisodchi olimlar, ekspertlarning ilmiytadqiqot ishlari, empirik izlanishlari natijalaridan keng foydalanilgan.

Darslik iqtisod yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bakalavr va magistrantlarga mo'jallangan.

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari / darslik.
T. Bobakulov, U. Abdullayev. – Toshkent: «Sano-standart», 2014. – 232 b.

UO'K: 339.732.4 (075)

KBK: 65.268

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini zamonaviy modernizatsiyalash bosqichida mamlakatning xalqaro valyuta-kredit munosabatlari tashkil qilish va tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi. Xususan, tashqi savdo aylanmasining ijobiliy saldosi ta'minlandi, xalqaro moliya institutlari bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yildi. Eng muhimi – davlat tashqi qarzining me'yoriy darajadan oshib ketishiga yo'l qo'yilmadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rzasida tashqi qarz masalasiga to'xtalib, jumladan, shunday dedilar: "O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir¹.

Biroq, dunyo miqyosida xalqaro valyuta-kredit munosabatlari sohasida jiddiy, olamshumul o'zgarishlar yuz bermoqdaki, mazkur holat halqaro valyuta-kredit munosabatlariga bag'ishlangan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish, darsliklar va o'quv qo'llanmalar yozish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Masalan, 1930-yildan buyon amal qilib kelayotgan Hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha xalqaro umumlashtirilgan qoidalarning (UCP 500) o'miga yangi UCP 600 qoidasi yuzaga keldi. Bundan tashqari, yevroning muomalaga kiritilishi xalqaro valyuta munosabatlari tarkibida yangi tarkibiy o'zgarishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi derivativlarning xalqaro miqyosdagi harakatini tartibga solish mexanizmini yaratish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Mazkur darslikda xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va uni takomillashtirishning dolzarb muammolari, jumladan, valyuta kurslari

¹Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atini bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini vizchil devon ettrish yili bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. - B. 5.

va ularning barqarorligini ta'minlash, valyuta tizimlari va ularning elementlari, xalqaro hisob-kitoblar va kreditlar hamda ular bilan bog'liq bo'lgan dolzarb masalalar o'z aksini topadi.

"Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" fani bo'yicha yoziladigan ushbu darslikning asosiy vazifasi talabalarining xalqaro valyuta va kredit munosabatlarining nazariy va amaliy jihatlari xususidagi bilim va ko'nikmalarini boyitish, ularda mavzularga oid bo'lgan mavjud muammolar va ularning yechimlari borasida aniq tasavvurlar hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun darslik oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- valyuta kurslarini aniqlash metodikalarini o'rgatish va unga ta'sir etuvchi omillarning ta'sir mexanizmini asoslab berish;
- jahon valyuta tizimining evolyutsiyasi va elementlarini o'rganish;
- milliy valyuta tizimining elementlariga baho berish;
- to'lov balansini tuzish metodologiyasi, defisiti va profisitini aniqlash tartibini o'rganish;
- xalqaro hisob-kitoblar balansining tarkibiy tuzilishiga baho berish;
- valyuta bozorlarini amal qilish mexanizmi xususida chuqur bilim berish;
- valyuta operatsiyalarining asosiy turlari va ularni amalga oshirish tartibini o'rganish;
- valyuta siyosati va uning shakllariga baho berish;
- xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish mexanizmini o'rganish;
- xalqaro kredit va u bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarining mohiyatini ochib berish;
- valyuta inqirozlarining yuzaga kelish sabablari, oqibatlari va unga qarshi kurash siyosati xususida bat afsil ma'lumotlar berish;
- xalqaro moliya institutlarining faoliyat yo'nalishlariga baho berish.

Mazkur darslik "Bank ishi" va "Kasb ta'lim" (Bank ishi) mutaxassisligi bo'yicha davlat ta'lim standarti talablariga javob beradi va "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" fanining namunaviy o'quv dasturidagi mavzularni to'liq qamrab olgan.

I BOB. VALYUTA KURSI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

1.1. Milliy valyuta tushunchasining mazmuni.

Valyuta so'zi italyancha **valuta** so'zidan olingan bo'lib, qiymat degan ma'noni anglatadi.

Har qanday mamlakatning milliy pul birligi uning milliy valyutasi hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda valyutalarning quyidagi turlari mavjud:

* **Erkin ishlataladigan valyuta** (freely usable currency) – to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limida valyutaviy cheklashlar bo'lмаган mamlakatlarning milliy valyutalari.

* **Qattiq valyuta** (hard currency) – iqtisodiy va siyosiy jihatdan barqaror hisoblangan mamlakatlarning almashuv kursi barqaror bo'lган valyutalari.

* **Yumshoq valyuta** (soft currency) – xalqaro miqyosda to'lov vositasi vazifasini bajara olmaydigan, ya'ni tashqi konvertirlikka ega bo'lмаган valyutalar.

* **Xalqaro rezerv valyutalar** (reserve currency) – dunyoning barcha mamlakatlarida xalqaro to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan yetakchi valyutalar.

Yetakchi valyutalarga “xalqaro rezerv valyuta” degan maqomni Xalqaro valyuta fondi (XVF) ekspertlari beradi.

XVF mezonlari bo'yicha, xalqaro rezerv valyuta deganda davlatlarning xalqaro zaxiralari saqlanadigan va xalqaro kreditlar beriladigan valyutalar tushuniladi.

XVF tomonidan hozirgi kunda AQSH dollari (USD), yevro (EUR), Buyuk Britaniya funt sterlingi (GBP), Yaponiya (JPY) ieni va Shveytsariya frankiga (CHF) xalqaro rezerv valyuta maqomi berilgan¹.

AQSH dollari va Buyuk Britaniya funt sterlingiga xalqaro rezerv valyuta maqomi 1944-yilda, Bretton-vuds jahon valyuta tizimi shakllanayotganda berilgan edi. 1976-1978-yillarda

¹ <http://www.imf.org>.

Yamaykada bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada to‘rtinchi jahon valyuta tizimi tashkil topdi va unda yana ikkita valyutaga – Yaponiya ieni va GFR markasiga xalqaro rezerv valyuta maqomi berildi. 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab yevroning muomalaga kiritilishi doychemarkani muomaladan chiqib ketishiga sabab bo‘ldi va uning maqomi yevroga berildi.

Xalqaro rezerv valyutalar nominal almashuv kursining barqaror emasligi, ularni sezilarli diapazonlarda tebranayotganligi jahon valyuta tizimining dolzARB muammolaridan biri bo‘lib turibdi. Ayniqsa, AQSH dollari va yevroning nominal almashuv kurslarini tez-tez tebranib turishi kuzatilmoxda. AQSH davlat qarzining nisbatan katta ekanligi, savdo balansida katta miqdordagi defisitning mavjudligi, davlat byudjeti defisitining katta ekanligi Federal zaxira tizimi (FZT) tomonidan amalga oshirilayotgan qayta moliyalash siyosatining moslashuvchanlik darajasining yuqori ekanligi dollarning nominal almashuv kursini sezilarli darajada katta diapazonlarda tebranishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, jahon valyuta tizimining barqarorligiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi. Holbuki, AQSH dollari hamon dunyoning asosiy rezerv valyutasi bo‘lib turibdi. 2014-yilning 1-yanvar holatiga, SDRning “valyuta savatida” AQSH dollarining salmog‘i 41,9 foizni tashkil etadi¹.


2008-yilda FZT tomonidan hisob stavkasining yillik darajasini 0,25 foizga qadar tushirilishi AQSH iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, pullar taklifining ham oshishiga olib keldi.

AQSH dollari nominal almashuv kursining tebranishiga sabab bo‘layotgan asosiy omillardan biri bo‘lib, mamlakat savdo balansining katta miqdordagi defisitga ega ekanligi hisoblanadi. 2012-yilning 1-yanvar holatiga, AQSH savdo balansining defisiti 52,6 mlrd. dollarga etdi². Bu 2008-yilning oktabr oyidan

¹ <http://www.imf.org>.

² <http://lenta.ru/news/2012>.

boshlab 2012-yilgacha bo‘lgan davrdagi eng katta miqdordagi defisit hisoblanadi.



1.1-rasm. AQSH dollarining 1 yevroga nisbatan nominal almashuv kursi¹, har bir moliyaviy yilning yanvar oyi boshiga.

1.1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2010-yilning yanvar oyi boshidan 2012-yilning yanvar oyining boshiga qadar AQSH dollarining nominal almashuv kursi yevroga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Bu esa, AQSH FZTning iqtisodiyotni retsessiya holatidan chiqarishga yo‘naltirilgan ekspansionistik pul-kredit siyosatini olib borayotganligi bilan izohlanadi. Ammo bu vaqtinchalik holat. Ishonchimiz komilki, AQSHda inflyatsiya jarayonlarining kuchayishi bilan FZT hisob stavkasini oshirishga majbur bo‘ladi. Bu esa, AQSH dollarining nominal almashuv kursining ko‘tarilishiga olib keladi.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda AQSHning Xitoy bilan amalga oshiriladigan savdo munosabatlaridagi defisit miqdorining o’sish tendensiyasi kuzatilmogda.

AQSH Davlat byudjeti defisiti va tashqi qarzining xalqaro amaliyotda qabul qilingan me’yoriy darajadan yuqori ekanligi dollarning nominal almashuv kursi barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy omillar hisoblanadi. 2011-yilning yakuniga

¹ www.x-rates.com.

ko'ra, AQSHda davlatning tashqi qarzi YaIM miqdoridan oshdi, Davlat byudjeti defisiti summasi esa, 1,3 trln. AQSH dollarini tashkil qildi. Bu esa, AQSH YaIMning 8,5 foizini tashkil qiladi¹.

2013-yilda AQSHda YaIM 16799 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgani holda, davlatning tashqi qarzi 17522 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yoriy andozaga ko'ra, Davlat byudjetining YaIMga nisbatan salmog'i 3,0 foizdan oshib ketmasligi lozim. Davlatning tashqi qarzi esa, YaIMga nisbatan 30,0 foizdan oshib ketmasligi kerak. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlatning jami qarziga, ya'ni ichki va tashqi qarziga nisbatan me'yoriy chegara o'rnatilgan bo'lib, u YaIMga nisbatan 60 foizni tashkil etadi².

Xalqaro rezerv valyutalar kurslarining nobarqarorligi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, milliy valyutamizso'mning nominal almashuv kursi asosiy rezerv valyuta bo'lgan AQSH dollariga nisbatan aniqlanadi³. Demak, AQSH dollari kursining barqaror emasligi bevosita so'mning nominal almashuv kursining barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, xalqaro rezerv valyutalarning almashuv kurslarini nobarqaror emasligini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'mning nominal almashuv kursi barqarorligini ta'minlash maqsadida uning valyuta kursini AQSH dollari, yevro va Yaponiya ienidan tashkil topadigan "valyuta savati"ga nisbatan aniqlashni joriy qilish taklifi muhim ahamiyat kasb

¹ Board of Governors of the Federal Reserve System. Annual Report. 2011. – Washington, 2012. - P. 16-17.

² Экономика Европейского Союза. Под ред. Р.К. Щекина. – М.: КноПис, 2012. – 560 с.

³ So'mning nominal almashuv kursi Respublika valyuta birjasida AQSH dollariga nisbatan talab va taklif asosida aniqlanadi. Respublikamizda milliy valyutani xorijiy valyutalarga konvertatsiya qilish buyurtmali savdo tizimiga asoslanganligi sababli, so'mning AQSH dollariga nisbatan nominal almashuv kursi so'mda va AQSH dollarida berilgan buyurtmalar miqdorini o'zaro taqqoslash orqali aniqlanadi.

etadi. Buning natijasida so‘mnning nominal almashuv kursining tebranish diapazoni sezilarli darajada qisqaradi.

Xalqaro amaliyotda milliy valyutalarining almashuv kursini “valyuta savati”ga bog‘lash ularning almashuv kursi tebranishini sezilarli darajada kamaytirish imkonini bergan. Masalan, Rossiyada rublning kursini “bivalyuta savati”ga nisbatan aniqlashning joriy qilinishi uning barqarorligini va yevroning konversion operatsiyalar hajmidagi ulushini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. 2011-yil yakuni bo‘yicha yevroning konversion operatsiyalardagi ulushi 30,3 foizga etdi. Bu esa, yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi¹.

So‘nggi yillarda Mustaqil Davlat Hamdo‘stligiga (MDH) a’zo bo‘lgan mamlakatlarda ham milliy valyutalarining AQSH dollari va yevroga nisbatan nominal almashuv kursining beqarorligi kuzatilmogda (1.1-jadval).

1.1-jadval

MDHga a’zo mamlakatlar milliy valyutalarining AQSH dollari va yevroga nisbatan almashuv kurslari²

Davlatlar	2010-yil		2011-yil	
	1 AQSH dollariga nisbatan	1 yevroga nisbatan	1 AQSH dollariga nisbatan	1 yevroga nisbatan
Ozarbayjon	0,7979	1,0560	0,7685	1,0178
Armaniston	363,44	481,16	385,77	498,72
Belorussiya	3000	3972,60	8350	10800
Qozog‘iston	147,40	195,23	148,40	191,72
Qirg‘iziston	47,0992	61,7949	46,4847	60,0652
Moldaviya	12,1539	16,1045	11,7154	15,0737
Rossiya	30,4769	40,3331	32,1961	41,6714
Tojikiston	4,4031	5,9105	4,7585	6,1565
Ukraina	7,9617	10,5731	7,9898	10,2981

¹ Годовой отчет Центрального банка Российской Федерации. – Москва, 2012. – С. 43.

² Годовой отчет Центрального банка Российской Федерации. – Москва, 2012. – С. 281.

1.1.-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rindaniki, 2010-2011-yillarda MDHga a'zo mamlakatlarning aksariyat qismida milliy valyutaning AQSH dollari va yevroga nisbatan nominal almashuv kursining sezilarli darajada tebranishi kuzatildi. Ayniqsa, Belorussiya va Armanistonda milliy valyuta kursining tebranishi yuqori darajada bo'ldi.

MDHga a'zo mamlakatlar milliy valyutalarining nominal almashuv kurslarining 2010-2011-yillarda sezilarli darajada tebranishi quyidagi omillarning ta'siri bilan izohlanadi:

- mazkur mamlakatlarda tahlil qilingan davr mobaynida AQSH dollari va yevroga nisbatan yuqori darajadagi talabning saqlanib qolganligi;

- AQSH dollari va yevroning nominal almashuv kurslarining tebranishini kuzatilganligi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, Rossiya va Ukrainada 2010–2011-yillarda milliy valyutaning AQSH dollari va yevroga nisbatan nominal almashuv kursining barqarorlik darajasini yuqori bo'lganligi kuzatildi. Bu esa, mazkur mamlakatlarda tahlil qilingan davr mobaynida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanganligi bilan izohlanadi. Masalan, Rossiyada 2011-yil yakuni bo'yicha, YalMning real o'sish sur'ati 4,3 foizni tashkil etgani holda, inflyatsiya 2010-yilga nisbatan sezilarli darajada pasayib, uning yillik darjasи 6,1 foizni tashkil etdi. Davlat byudjeti esa, YalMga nisbatan 0,4% profisit bilan bajarildi¹.

Neftrning jahon bahosini 2010-2011-yillarda yuqori darajada saqlanib qolganligi Rossiya Davlat byudjetini profisit bilan bajarish imkonini berdi. 2011-yil yanvar oyida Rossiya eksport qiladigan "Urals" markali 1 barrel neftrning jahon bahosi 93,8 AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, dekabr oyiga kelib, uning bahosi 107,3 AQSH dollarini tashkil etdi².

¹ Годовой отчет Центрального банка Российской Федерации. – Москва, 2012. – С. 20.

² Российская экономика в 2011 году. – Москва: Институт Гайдара. 2012. - С. 266.

1.2. “Valyuta kursi” nazariyalari

Valyuta kursi (exchange rate, foreign exchange rate) – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosidir.

Valyuta kursiga oid ilk nazariyalardan biri valyutalarning xarid qobiliyati nazariyasi hisoblanadi va ushbu nazariya angliyalik iqtisodchilar D. Yum va D. Rikardolarning nazariy qarashlariga asoslanadi. D.Rikardonning fikriga ko‘ra, savdo balansining defisiti funt sterling qiymatining pasayishiga olib keldi, valyutalarning xarid qobiliyati ularning muomaladagi miqdorining nisbati bilan belgilanadi¹.

Valyutalarning xarid qobiliyati nazariyasining asosiy qoidasi shundan iboratki, valyuta kursi ikki mamlakat valyutasining nisbiy qiymati bilan belgilanadi, o‘z navbatida, valyutalarning o‘zaro nisbiy qiymati esa, baholar darajasiga bog‘liqdir.

Shunisi xarakterlikni, mazkur nazariyaga ko‘ra, tovarlar va xizmatlarning bahosi muomaladagi pulning miqdori bilan belgilanadi.

Valyutalarning xarid qobiliyati nazariyasining asoschilari to‘lov balansining muvozanatlashgan holatini ta’minlash imkonini beradigan mo‘‘tadil kursni aniqlash g‘oyasini ilgari suradilar. Shu sababli, ular, to‘lov balansini avtomatik tarzda o‘z-o‘zidan tartibga solinishiga ishonadilar.

Valyutalarning xarid qobiliyati nazariyasi ilmiy jihatdan birinchi marta shved iqtisodchisi G. Kassel tomonidan 1918-yilda asoslab berildi. Uning fikriga ko‘ra, mo‘tadil savdo sharoitida shunday valyuta kursi shakllanadiki, bu kurs tegishli valyutalarning xarid qobiliyatini o‘zida aks ettiradi².

¹ Рикардо Д. Сочинение. Том 2. Пер. с англ. – М.: Политическая литература, 1955. – С. 55.

² Селигмен Б. Основные течения современной экономической мысли / Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1968. – С. 385.

G. Kasselning fikridan aniq ko'rinib turibdiki, valyuta kursining shakllanishi bevosita valyutalarning xarid qobiliyati bilan bog'liq va bunda asosiy e'tibor miqdoriylikka qaratiladi.

Valyutalarning xarid qibiliyati nazariyasida valyuta kursining shakllanishiga ta'sir qiluvchi obyektiv omillar va ularga Markaziy bank tomonidan ta'sir etish holatlari e'tiborga olinmagan. Holbuki, hozirgi davrda valyuta kursining shakllanish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar ichida siyosiy omillar, spekulyativ kapitallarning harakati kabi obyektiv omillar muhim rol o'ynaydi.

Tartibga solinadigan valyutalar nazariyasining asoschisi J.M. Keyns hisoblanadi¹. Ushbu nazariyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lib 1929–1933-yillarda yuz bergen jahon iqtisodiy inqirozi hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy inqirozi natijasida erkin raqobat va davlatning iqtisodiyotga aralashuviga chek qo'yish g'oyalarini ilgari surgan neoklassik maktablarning valyuta kursi xususidagi nazariy qarashlari o'zlarining nobarqarorligini ko'rsatdi. XX asrning 50–60-yillarida keynschilik rivojlangan davlatlarda asosiy iqtisodiy nazariyaga aylandi.

Suzib yuruvchi valyuta kurslari nazariyasi valyuta kursi xususidagi nazariyalar orasida o'ziga xos o'rinn egallaydigan nazariyadir. Ushbu nazariyaning asoschilari, neoklassik yo'nalishga mansub bo'lgan iqtisodchilar hisoblanadi. Ular jumlasiga M.Fridmen, F.Maxlup, A.Lindbek, G.Jonson, L.Erxard, G.Girsh, E.Dyurrlarni kiritish mumkin².

Suzib yuruvchi valyuta kurslari nazariyasi namoyondalari suzib yuruvchi kurslar rejimini qattiq turib himoya qiladilar.

¹ Keynes J.M. The General theory of Employment. Interest and Money - Economica, 1936. – 230 p.

² Machlup F. International payments, debts, and gold. – London: George Allen & Unwin, 1966. – P. 7-50; Friedman M. How Well are Fluctuating Exchange Rates Working. – American Enterprise Institute, 1973. – №8. - P. 5; Johnson G. Formulation of Exchange Rate Policies in Adjustment Programs, IMF Occasional Paper - № 36. – Washington: IMF, 1985. – P. 17 – 19.

Ularning fikriga ko‘ra, suzib yuruvchi kurslarning muhim afzallikkari quyidagilardan iborat:

- to‘lov balansini avtomatik tarzda muvozanatlashirish imkonini beradi;
- milliy iqtisodiy siyosat usullari tashqi tazyiqsiz tanlanadi;
- valyutaviy spekulyativ amaliyotlarni jilovlash imkonini beradi;
- xalqaro savdoni rag‘batlantiradi;
- valyuta kursini valyuta bozorida erkin shakllantirish imkonini beradi.

M. Fridmenning fikriga ko‘ra, valyuta kursi talab va taklif asosida erkin shakllanishi va davlat uni tartibga solmasligi lozim¹.

Ayni vaqtda, suzib yuruvchi valyuta kurslarining yuqorida qayd etilgan ijobiy jihatlari har doim ham amaliy ahamiyat kasb etmasligi, milliy valyutaning erkin suzish rejimida ham valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning saqlanib qolishi ayrim iqtisodchilar tomonidan e’tirof etildi. Masalan, J. Vaynerning fikriga ko‘ra, erkin bozor baholari dunyosida ham xorijiy valyutalar bozorini davlatning bevosita yoki bilvosita aralashuviziz tasavvur qilish mumkin emas².

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida milliy valyuta almashuv kursining keskin tebranishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida uning kursiga ta’sir etish, shu jumladan, valyuta intervensiyasini o‘tkazishning maqsadga muvofiqligi o‘z isbotini topdi. Spekulyativ kapitallarning xalqaro miqyosdagi oqimining kattaligi Markaziy banklarni shunga majbur qilmoqda.

Valyuta kursi xususidagi nazariyalardan yana biri belgilangan paritetlar va kurslar nazariyasi hisoblanadi. Mazkur

¹ Friedman M. How Well are Fluctuating Exchange Rates Working.-American Enterprise Institute, 1973. -№8. - P.5.

² Viner J. Problems of Monetary Control. – Princeton, 1964. –P. 245.

nazariyaga ko'ra, valyuta kursining o'zgarishi to'lov balansini tartibga solishning samarasiz usuli hisoblanadi. Chunki, xalqaro bozorlarda baholarning valyuta kurslarining o'zgarishiga bog'liq ravishda tebranishiga tashqi savdo yetarli darajada reaksiya bermaydi. Importga bo'lgan talabning oshishi xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi. Bunda eksport va import muvozanatlashgan sharoitdagi almashuv kursi qisqa muddatli davriy oraliqqa mos keladi. Bu davrda ortiqcha talab miqdoridagi xorijiy valyuta bozorda mavjud bo'lmaydi. Shu sababli, valyutaning bahosi oshadi va vaqtinchalik davriy oraliq xorijiy valyutalar taklifi va milliy valyutaning almashuv kursi o'rtasidagi ta'sir jarayonida yuzaga kelmaydi.

Valyuta kursi xususidagi zamonaviy nazariyalardan biri sifatida F.Maxlupning "Valyuta kursi nazariysi" deb nomlangan ilmiy ishini keltirish mumkin¹.

F. Maxlup valyuta kursiga xorijiy valyutalar taklifining ta'sirini faqatgina tashqi savdo operatsiyalari misolida ko'rib chiqqan. Uning tahlilida valyuta kursiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar hisobga olinmagan.

Taniqli iqtisodchi olim F. Maxlupning fikriga ko'ra, eksport va importning hajmi o'rtasidagi muvozanat ta'minlangan sharoitda xorijiy valyutalar taklifining o'zgarishi milliy valyutaning almashuv kursiga ma'lum davriy oraliqdan so'ng ta'sir qiladi. Agar bunday sharoitda importga bo'lgan talab keskin oshsa, u holda, xorijiy valyutalar taklifi bilan milliy valyutaning almashuv kursi o'rtasidagi bog'liqlik borasida vaqtinchalik davriy oraliq yuzaga kelmaydi.

Valyuta kursi nazariyalarining amaliy ahamiyatini baholash ularning yashovchanligi nuqtai-nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, F.Maxlupning mazkur nazariy qarashini qay darajada amaliy ahamiyatga ega ekanligini baholash uchun O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti misolida, eksport va

¹ Махлуп Ф. Теория валютного курса. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статей. Пер. с англ. – М.: Дело, 2001. – С. 22-82.

import o'rtasidagi muvozanat sharoitida, valyutalar taklifining milliy valyuta kursiga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Respublikamizda 2002–2006-yillar mobaynida tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi yillik o'rtacha 1,1 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgani holda, so'mning AQSH dollariga nisbatan o'rtacha yillik qadrsizlanish sur'ati 6,5 foizni tashkil etdi¹. Agar F. Maxlupning nazariyasi har qanday iqtisodiy sharoitda real voqelikni aks ettirganida eksport-import o'rtasidagi muvozanat ta'minlangan sharoitda milliy valyuta almashuv kursining keskin pasayishi kuzatilmagan bo'lar edi. Holbuki, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida to'lov balansi tushum va to'lovlar summasining sezilarli qismi eksport operatsiyalaridan olingan tushumlar va import operatsiyalari bo'yicha to'lovlar summasiga to'g'ri keladi. Bunday sharoitda, eksport hajmining import hajmidan oshishi milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlovchi muhim omil bo'lib hisoblanishi lozim.

F.Maxlupning valyutalar almashuv kursi nazariyalarining evolyutsiyasiga qo'shgan muhim hissasi shundaki, u xorijiy valyutalarga bo'lgan talab va taklifning elastikligini hamda xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning o'sishiga valyutalar taklifi elastikligining ta'sir mexanizmini asoslab berishga muvaffaq bo'ldi. Uning fikricha, mamlakat eksporti bilan bog'liq bo'lgan xorijiy valyutalar taklifining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omil boshqa mamlakatlarda importga nisbatan cheklovlarining joriy etilishi hisoblanadi. F.Maxlupning fikriga ko'ra, bizning eksportga nisbatan xorijiy davlatlarning hukumatlari tomonidan importning barcha moddalari bo'yicha kvotalarning joriy qilinishi xorijiy valyutalar bahosining o'sishi natijasida mamlakat eksporti hajmining o'sishiga, xorijiy valyutaga bo'lgan talabning oshishiga olib kelmaydi. Bizning eksportga

¹ Mualliflarning "O'zbekiston iqtisodiyoti" axborot-tahliliy sharhi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik byulletenlari ma'lumotlariga asoslangan hisob-kitobi.

bo'lgan xorijiy talabning elastikligi yoki boshqacha qilib aytganda xorijiy valyutalar taklifining elastikligi, u ma'lum darajaga etgandan so'ng, nolga teng bo'ladi. Ushbu darajadan past holatda valyutalar taklifi mutlaqo noelastik bo'ladi. Lekin xorijiy davlatlarning import bo'yicha kvotasi qo'llanilmaydigan import pozitsiyalari mavjudki, bizning esportyorlar mana shu ochiq kenglikda erkin harakatlanishlari, ya'ni xorijiy valyutalar bahosining o'sayotganligi yoki pasayayotganligiga qarab, tovarlar va xizmatlar bahosini oshirishlari yoki pasaytirishlari mumkin¹.

F.Maxlupning fikriga ko'ra, import bo'yicha xorijiy davlatlar tomonidan o'rnatilgan boj solig'i stavkalari va almashuv kursining mavjud holati sharoitida ma'lum miqdordagi tovarlarni sotish mumkin bo'lgan bo'lsa, u holda, eksport qilinayotgan tovarlar miqdorini oshirish uchun xorijiy valyutalarning milliy valyutaga nisbatan bahosi oshishi lozim. Buning natijasida mazkur tovarlar xorijilik xaridorlar uchun arzonlashadi. Agar norezidentlar tomonidan sotib olinayotgan tovarlarning bahosida maxsus import poshlinalarining salmog'i sezilarli darajada yuqori bo'lsa va bu tovarlar milliy valyutada to'lansa, u holda, xorijiy valyuta bahosining o'sishi import tovarlari bahosining foiz nisbatida juda past darajada pasayishiga olib keladi. Bunday sharoitda bizning eksportga nisbatan xorijiy talab almashuv kursining o'zgarishiga nisbatan past darajada ta'sirchan bo'lib qoladi. Tovarlarni tashish va xorijda taqsimlash xarajatlarining eksportga ta'siri tariflarning eksportga ta'siri bilan bir xil bo'ladi. Ya'ni, ushbu xarajatlar qanchalik katta bo'lsa, talabning almashuv kursining o'zgarishiga ta'sirchanligi shunchalik past bo'ladi.

F.Maxlup xorijiy davlatlarda ishlab chiqariladigan va ularning bozorlarida bizning eksport bilan raqobatlasha oladigan tovarlarning elastikligi qanchalik yuqori bo'lsa, xorijiy

¹ Махлуп Ф. Теория валютного курса. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статей. Пер. с англ. – М.: Дело, 2001. – С. 29.

valyutalar taklifining elastikligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi, degan xulosaga keldi va uni quyidagicha izohlaydi: “mamlakatdan eksport qilinayotgan ayrim tovarlar xorijiy davlatlarda ham ishlab chiqarilishi mumkin. Xorijiy xaridor uchun eksportimiz bahosining pasayishi xorijiy valyutaning dollardagi bahosining o‘zgarishi bilan birlgilikda yuz beradi. Shuning uchun mamlakat eksport hajmining o‘sishi qisman bizning eksport bilan raqobatlashadigan xorijda ishlab chiqarilayotgan tovarlar hajmining qisqarishiga bog‘liq. Agar xorijda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning taklifi juda elastik bo‘lsa, ya’ni ularni ishlab chiqarish hajmining qisqarishi bizning eksportyorlar taklifining kamayishidan kuchli bo‘lsa, u holda, bizning eksportyorlar xorijiy valyutadagi baholarni keskin pasaytirishlari lozim”¹.

F.Maxlupning fikriga ko‘ra, mamlakat eksportining ayrim moddalariga nisbatan xorijiy talabning elastikligi 1 dan past bo‘lsa, u holda, xorijiy valyutalar taklifi egri chizig‘i ijobiy bukilishga ega bo‘ladi, ya’ni chapdan o‘ngga tomon yuqoriga qarab harakatlanadi. Bunday sharoitda talab qilinadigan tovarlarning hajmi, ya’ni unga bo‘lgan talab, tovarlar bahosining pasayishi sharoitida, o‘sishi lozim. Ammo foizli nisbatda tovarlar hajmining o‘sish sur’ati baholarning pasayish suratidan past bo‘ladi. To‘lanadigan xorijiy valyutaning miqdori kamayadi, xorijiy valyutalar taklifining elastikligi salbiyga aylanadi va uning taklifi egri chizig‘i chapdan o‘ngga tomon pastga qarab harakatlanadi. Bizning eksport moddalari bo‘yicha xorijiy bozorlardagi talabning elastikligi hatto 1 dan past bo‘lgan sharoitda ham jami eksportga bo‘lgan xorijiy talabning elastikligi, xorijlik ishlab chiqaruvchilar – raqobatchilar taklifining yetarli darajada elastikligi hisobiga, 1 dan yuqori bo‘lishi mumkin.

Importni qoplash uchun zarur bo‘lgan miqdordagi xorijiy valyutalarga bo‘lgan talab va taklif elastikligini boshqarish, F.Maxlupning fikriga ko‘ra, quyidagi to‘rt fundamental prinsipga asoslanishi lozim:

- import qilinadigan tovarlarga bo‘lgan ichki talabning elastikligi qanchalik yuqori bo‘lsa, xorijiy valyutaga bo‘lgan talabning elastikligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi;
- ichki bozorda import qilinadigan tovarlar bilan raqobatlashadigan mamlakat tovarlari taklifining elastikligi qanchalik yuqori bo‘lsa, xorijiy valyutaga bo‘lgan talabning elastikligi shunchalik yuqori bo‘ladi;
- xorijlik ishlab chiqaruvchilarning bizning import moddalari bo‘yicha taklifining elastikligi qanchalik yuqori bo‘lsa, xorijiy valyutaga bo‘lgan talabning elastikligi shunchalik yuqori bo‘ladi;
- xorijda ularning o‘z tovarlariga bo‘lgan talabning elastikligi qanchalik yuqori bo‘lsa, xorijiy valyutaga bo‘lgan talabning elastikligi shunchalik yuqori bo‘ladi¹.

F. Maxlupning xorijiy valyutalarga bo‘lgan talab va taklif elastikligini boshqarish prinsiplari uning empirik tadqiqotlarining natijalariga asoslanadi va muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Masalan, F.Maxlup xorijiy valyuta bahosining o‘sishi va taklifning noelastikligi sharoitida, ya’ni xorijlik tovar ishlab chiqaruvchilar taklifining mamlakatning import moddalari bo‘yicha noelastikligi sharoitida, import hajmining keskin qisqarishi mumkinligini asoslab berdi. Mazkur qisqarish, uning fikriga ko‘ra, mamlakat importining yuqorida e’tirof etilgan moddalari bo‘yicha xorijda tovarlar iste’molining o‘sishi va ularning valyutasida tovarlar bahosining pasayishi hisobiga yuz beradi.

F. Maxlupning valyuta kursi nazariyasida valyutalarning almashuv kursi sifatida faqatgina nominal almashuv kursi

¹ Махлуп Ф. Теория валютного курса. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статей. Пер. с англ. – М.: Дело, 2001. – С. 34-36.

olingan. Fikrimizcha, valyutalarning real almashuv kursining o‘zgarishi mamlakat eksporti va importi hajmining o‘zgarishiga bevosita va kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, xorijiy valyutalarga talab va ular taklifining elastikligiga valyutalarning real almashuv kursining ta’sirini tadqiq qilish va tegishli ilmiy xulosalarni shakllantirish nafaqat rivojlangan sanoat mamlakatlari uchun, balki valyuta kursi siyosatini shakllantirishda yetarli nazariy-uslubiy asosga ega bo‘lmagan o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

F. Maxlup tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutalarni sotib olinishi va sotilishining muomaladagi pul massasiga ta’sirini tahlil qilar ekan, shunday xulosaga keldi: “majburiy zaxiralarni Markaziy bankning ixtiyoriga berib qo‘yish yetarli darajada moslashuvchan instrument hisoblanadi va tijorat banklariga, deflyatsiya samarasini yuzaga keltirmagan holda, xorijiy valyutalarni sotib olish va sotish imkonini beradi”¹.

R. Mandellning fikricha, “inflyatsion gep va to‘lov balansining defisiti foiz stavkalari va baholarning o‘sishiga olib keladi. Ayni vaqtda, defisit valyuta zaxiralari miqdorining kamayishiga olib keladi”². Valyuta zaxiralarining kamayishi esa, Markaziy bankning kurs siyosatiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi.

To‘lov balansining defisiti valyuta zaxiralarini miqdorining kamayishiga va tashqi muvozanat chizig‘ini chap tomonidan yuqoriga qarab siljishiga olib keladi. Demak, milliy valyuta kursining barqarorligi Markaziy bank tomonidan ko‘riladigan chora-tadbirlarning ta’sir kuchiga bog‘liq.

R. Mandellning ushbu nazariy qoidasi o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun amaliy ahamiyatga ega emas. Ushbu

¹ Махлуп Ф. Теория валютного курса. Этот изменчивый обменный курс. Пер. с англ. – М.: Дело, 2001. – С. 68.

² Манделл Р.А. Выбор экономической политики для достижения внутреннего и внешнего равновесия. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статей. Пер. с англ. – М.: Дело, 2001. – С. 155.

mamlakatlarda foiz stavkalari bilan milliy valyutaning almashuv kursi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud emas. Buning sababi shundaki, birinchidan, milliy valyutadagi depozitlar va kreditlarning bozor stavkalari faqat milliy ssuda kapitallari bozorida shakllanadi; ikkinchidan, Markaziy bank milliy ssuda kapitallari bozori orqali depozitlar va kreditlarning foiz stavkalariga samarali ta’sir ko‘rsata olishi mumkin. Shu sababli, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida kreditlarning foiz stavkalari bilan milliy valyutaning nominal almashuv kursi o‘rtasida uzviy aloqadorlik kuzatilmaydi.

Valyuta kursi xususidagi asosiy nazariyalardan yana biri “yetakchi valyutalar” nazariyasidir. Ushbu nazariyaning asoschilari, AQSHlik iqtisodchilar – J. Vilyams, A. Xansen, angliyalik iqtisodchilar – R. Xoutri, F. Grexemlardir¹.

Mazkur nazariyaga ko‘ra, valyutalar uch guruhga bo‘linadi:

1. Yetakchi valyutalar (AQSH dollarasi va Buyuk Britaniya funt sterlingi).
2. Qattiq valyutalar (tivojlangan 10 ta davlatning valyutalari).
3. Yumshoq valyutalar (konvertirlanmaydigan valyutalar).

Mazkur qoida XX asrning 80-yillariga qadar amal qildi. Haqiqatdan ham, 1944-yilda tashkil topgan uchinchi jahon valyuta tizimida AQSH dollarasi va Buyuk Britaniya funt sterlingiga xalqaro zaxira valyutalari maqomi berilgan bo‘lsada, haqiqatda AQSH dollarasi xalqaro zaxira valyutasiga aylanib qoldi. Ya’ni, amaldagi jahon valyuta tizimining ishtirokchisi bo‘lgan boshqa barcha mamlakatlar milliy valyutalarining kursi AQSH dollariga nisbatan belgilanadigan bo‘ldi. Bundan tashqari, AQSH dollarining 1934 yildan 1974 yilga qadar qat’iy belgilangan narx bo‘yicha (1 untsiya=35 dollar) cheklowlarsiz oltinga almashtirib berilishi va xalqaro miqyosda qat’iy belgilangan kurs rejimining joriy etilishi AQSH dollariga

¹ Эйдельвант А. Буржуазные теории денег, кредита и финансов в период общего кризиса капитализма. – М.: Госфиниздат, 1958. – 263 с.

bo‘lgan yuksak ishonchni ta’minladi. Ammo 1976-yilda, oltinni demonetizatsiya qilish jarayoni rasman tugallangandan so‘ng, AQSH dollari kursining tebranishlari kuchaydi, bu esa, dollardan qochish tendensiyasini yuzaga keltirdi. Buning ustiga, yevroning muomalaga kiritilishi Yevropa valyuta tizimiga a’zo bo‘lgan mamlakatlar valyuta siyosatining AQSH hukumati va Federal zaxira tizimining (FZT) valyuta siyosatidan mustaqilligini ta’minladi. Shunisi xarakterlik, dunyoning ko‘plab mamlakatlari (Xitoy, Rossiya va boshq.) milliy valyutalarining kursini AQSH dollariga emas, balki yevroga, Yaponiya ieniga, valyuta savatiga nisbatan aniqlamoqdalar.

J.M.Keyns nazariyasining boshlang‘ich tizimi, kichik ochiq iqtisodiyot asoslarini o‘zida mujassam etgan, kengaytirilgan IS-LM modeli hisoblanadi. Bu holatda muvozanat tovar va pul bozorida hamda valyuta bozorida ham hisobga olinadi. Ushbu modelning birlamchi variantlari asoschilari Mandell¹ (1963) va Fleming² (1962) hisoblanishadi. Mandell-Fleming (F-M) modeli asosida, valyuta kursini aniqlashning eng keng tarqalgan yondoshuvlaridan biri, odatiy to‘lov balansi modeli hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, sof tebranishlarda valyuta kursi chet el valyutasiga bo‘lgan talab va taklif oqimini muvozanatlashtiradi, ya’ni to‘lov balansi saldosi nolga teng bo‘ladi. Sof suzib yuruvchi valyuta kurslari holatida joriy operatsiyalar balansining har qanday ijobjiy saldosi (chet el valyutasi taklifi oqimi) kapital balansi defisitini aniq qoplashi kerak. Shunday qilib, valyuta kursini J.Keyns nazariyasiga ko‘ra modellashtirish joriy va kapital balanslari o‘zgarishlari darajasiga qarab aniqlanadi. Valyuta kursini keynscha ushubda aniqlash to‘lov balansiga ta’sir etuvchi boshlang‘ich va o‘zgaruvchi asoslar miqdorining ortishi natijasiga asoslanadi.

¹ Mundell R.A. The monetary dynamics of international adjustment under fixed and flexible exchange rates // Quarterly Journal of Economics 74 (2). May, 1960. - P. 227-257.

² Fleming M. Domestic financial policies under fixed and underfloating exchange rates. – IMF Staff Paper, 9 (3). November, 1962. - P. 369-379.

J.Keynsning ochiq iqtisodiyot modeli doirasida valyuta kursini aniqlash to'lov balansini muvozanatlashtirishga asoslangan valyuta bozoridagi muvozanatni ta'minlash taklifi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, M-F modelida savdo balansi joriy hisob balansiga teng, deb hisoblanadi va shuning uchun ham bu ikki balansdan xohlagan birining ishlatalishi to'g'ri bo'ladi. Savdo balansi, valyuta kursi va milliy emissiyaning funksiyasi hisoblanadi. Savdo balansi valyuta kursiga (milliy valyutaning bir birligining chet el valyutasining bir birligiga nisbati) nisbatan ijobiy funksiya hisoblanadi, bunda Marshal-Lerner shartining saqlanishi nazarda tutiladi, ya'ni valyuta kursi oshganda (milliy valyuta kursi pasaysa) savdo balansi yaxshilanadi. Savdo balansi milliy emissiyaga nisbatan manfiy funksiya hisoblanadi. Milliy emissiya ortganda import ham oshadi. Natijada savdo balansi yomonlashadi. Bunda xorijiy valyutalar emissiyasi darajasi o'zgarmas, deb olinadi.

Kapital harakati balansi foiz stavkasiga nisbatan ijobiy funksiya hisoblanadi, ya'ni aktivlar uchun foydaning o'zgarmas me'yorlari saqlab qoligan sharoitda, milliy qimmatli qog'ozlar daromadlilagini ortishi kapital oqimining kuchayishiga olib keladi. Foiz stavkalari oshganda kapital oqimining darajasi uning egiluvchanligiga ko'ra aniqlanadi.

Valyuta kursi milliy daromadga nisbatan ijobiy, foiz stavkasiga nisbatan salbiy funksiya hisoblanadi, ya'ni kursning ko'tarilishi milliy daromadning o'sishi va foiz stavkasining pasayishi natijasida ro'y beradi. Milliy emissiyaga nisbatan kursning elastiklik darajasi qancha yuqori bo'lsa, Marshal-Lerner shartlarining saqlanish darajasi qanchalik kam bo'lsa, milliy emissiya oshirilganda valyuta kursining oshish darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Foiz stavkasi pasayishiga nisbatan valyuta kursining tushishi qanchalik yuqori bo'lsa, kapitallar oqimi darajasi shunchalik yuqori va joriy operatsiyalar muvozanati yaxshilanishiga valyuta real kursi o'sishining ta'siri

shunchalik kam bo'ladi. Bu esa valyuta kursining pasayishiga olib keladi.

Shunday xulosaga kelish mumkinki, milliy emissiyaning ko'payishi milliy valyutaning kadrsizlanishiga olib keladi, natijada mamlakatda milliy valyutaning qadrsizlanishiga chek qo'yish maqsadida kreditlarning foiz stavkalarini oshirishga to'g'ri keladi.

J.Keyns valyuta kursi nazariyasining izohi juda oddiy hamda real voqelikdan uzoqdir va o'z oldiga valyuta kursi nazariyasi mohiyatini tushuntirishni osonlashtirishni maqsad qilib qo'yadi. Uning istiqbolda rivojlanishi kamchiliklarni aniqlashga bog'liqdir, ya'ni to'lov balansiga izoh beruvchi u yoki bu o'zgarishlarni hisobga olgan holda, kurs siyosatining yetarlicha samarali amalga oshirilmayotganligidan dalolat beradi.

J.Keyns nazariyasi cheklovlaridan biri bu milliy daromadning to'lov balansiga ta'sir etishidir. Boshlang'ich modelda milliy daromad faqatgina savdo balansiga ta'sir etadi. Haqiqatda esa milliy daromadning o'sishi kapital harakati balansiga ham ta'sir etadi. Bunday sharoitda kapital harakati funksiyasini kengaytirish lozim.

To'lov balansi muvozanati egri chizig'i musbat egilishga ega bo'lganda muvozanatga erishish uchun foiz stavkalarining o'sishini, milliy daromadning oshishini ta'minlash lozim.

Demak, kapital harakati oqiminining o'sishi faqatgina milliy foiz stavkalari o'sganda emas, balki milliy daromad o'sganda ham vujudga keladi. Ushbu holatni izohlashda quyidagi yondoshuvlardan foydalaniladi:

- portfelli balans nazariyasi nuqtai-nazariga ko'ra izohlash;
- nisbatan oddiy lashtirilgan yondoshuv: iqtisodiy faoliytni kengaytirishga olib keluvchi milliy daromadning ko'payishi kapital oqimiga ijobiyligi ta'sir etadi.

Ikkinci holatda biz milliy daromadni to'lov balansiga bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki xil ta'sirini ko'rishimiz

mumkin: bir tomonidan savdo balansiga an'anaviy salbiy ta'sir (M-F modelidagi kabi), boshqa tomonidan – emissiyani oshirish ehtimoliga ko'ra kapital oqimiga ta'sir etish. Agar oxirgi natija ustunlik qilsa, masalan, milliy emissiyaga nisbatan importning elastikligi yuqori bo'lsa va foiz stavkalari tushib ketganda to'lov balansi muvozanatini tiklash uchun milliy emissiyani ko'paytirish talab qilinsa u holda to'lov balansi muvozanati egri chizig'i M-F modelidan farqli o'laroq manfiy egilishga ega bo'ladi.

Agar daromadning kapital oqimiga ta'siri natijasi ustunlik qiladi, deb faraz qilinsa, unda milliy daromadning oshishida M-F modelidagi kabi valyuta qadrsizlanishi emas, balki uni ushlab turish holati kuzatiladi. Shunday qilib, valyuta bozorida muvozanat bo'lishi uchun milliy daromadning o'sishi foiz stavkalarining tushishi hisobiga qoplanishi kerak. Bu esa milliy valyuta kursining pasayishini faollashtiradi va to'lov balansi muvozanatini tiklaydi.

Xulosa qilish mumkinki, M-F modelining bu o'zgarishida J.M.Keyns nazariyasining asosiy xulosalaridan biri, ya'ni pulga bo'lgan talab milliy daromadning ijobiy funksiyasi ekanligi tasdiqlanadi.

M-F modelining navbatdagi kamchiliklaridan biri - bu qisqa muddatli davrda ish haqi va narxlarning o'zgarmasligi farazidir. O'rta muddatli tahlil olib borish uchun ish haqi va narxlarni tenglashtirish asoslarini joriy etish lozim bo'ladi. Yangi modelda yuqorida ko'rsatilgan uch bozordan tashqari mehnat bozori ham ishtirok etadi. Valyuta bozori muvozanati tenglamasi, avvalo, real valyuta kursi va milliy emissiya darajasi bilan aniqlangan joriy operatsiyalar funksiyasidan farq qiladi. Pulga bo'lgan talab tenglamasi pulga bo'lgan real talab tushunchasini kiritilishi bilan o'zgaradi, ya'ni pulga bo'lgan yalpi talab narxlar darajasiga mutanosibdir.

Ish haqi to'lovlar 1 ga teng darajada indeksatsiya qilinganda emissiya darajasi faqatgina real valyuta kursiga qarab

aniqlanadi. Shunga muvofiq, agar real valyuta kursi oshsa, ya’ni real devalvatsiya yuz bersa, unda emissiya pasayishi kerak. Emissiya real valyuta kursiga nisbatan manfiy funksiyadir.

Umumiy xulosa shundan iboratki, nominal valyuta kursi o’zgarishi sharoitida real valyuta kursining o’zgarishi milliy narxlarning o’zgarish tezligi darajasiga bog’liq bo’ladi, ya’ni nominal devalvatsiya har doim ham real devalvatsiyaga olib kelmaydi. Masalan, milliy valyuta kursining o’sish darajasi ichki narxlar o’sish darajasidan yuqori bo’lsa, unda real valyuta kursi pasayadi, ya’ni milliy valyutada ifodalangan import tovarlar narxi milliy tovarlar narxlariga nisbatan oshadi. Ichki narxlarni istiqbolda tenglashtirish (iste’mol va indeksatsiya darajasi 1 ga teng) import tovarlarning yalpi iste’mol mahsulotlari hajmidagi hissasiga bog’liq ravishda import va milliy tovar narxlari o’rtasidagi o’zgarishlar davrida sodir bo’ladi. Agar valyuta kursining o’sish sur’ati ichki narxlarning o’sish sur’atidan past bo’lsa, unda import tovarlarining narxlari milliy tovarlarning narxlariga nisbatan kamayadi, shunga muvofiq, nominal devalvatsiya bo’lishiga qaramasdan real devalvatsiya sodir bo’lmaydi. Va nihoyat, agar nominal valyuta kursining o’sish sur’ati ichki narxlarning o’sish sur’atiga teng bo’lsa, unda real valyuta kursi o’zgarmaydi.

J.M. Keynsning tartibga solinadigan valyutalar nazariyasining valyuta kursi rejimlaridan foydalanish xususidagi qoidalari to’lov balansini muvozanatlashtirish muammosi mavjud bo’lgan o’tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo’lgan qoidalari hisoblanadi.

1.3. Valyutalarning erkin konvertirlanishi

Shunisi xarakterlikni, iqtisodiy adabiyotlarda hozirga qadar «valyutaning erkin konvertirlanishi» tushunchasining mohiyati xususida yagona, tugal ta’rif mavjud emas.

Biz dastlab valyutalarning konvertirlanishi masalasining Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) ning Nizomida va boshqa

me'yoriy-uslubiy hujjatlarida o'z ifodasini topgan talqinlarini tahlil qilamiz va baholaymiz. Buning sababi shundaki, XVF davlatlararo valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro moliya-kredit tashkiloti hisoblanadi. XVF Kelishuv Moddalarining VIII-moddasi bo'yicha majburiyatlarni qabul qilgan davlatlarning milliy valyutalari to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha erkin konvertirlanadigan (ishlatiladigan) valyutalar deb ataladi va bu mamlakat Fondning ruxsatisiz joriy valyuta bitimlari bo'yicha to'lovlarga cheklovlar joriy qilishga haqli emas¹.

XVF ekspertlarining talqini bo'yicha, valyuta tashqi konvertirlikka ega bo'lishi uchun quyidagi ikki xususiyatga ega bo'lishi shart:

- norezidentlarga tegishli bo'lgan mazkur valyutadagi mablag'lar istalgan xorijiy valyutaga erkin almashinadi;
- rezidentlarning hukumatning ruxsati bilan norezidentlar foydasiga amalga oshiriladigan barcha to'lovlar rezidentlar valyuta bozorlaridan sotib olish imkoniga ega bo'lgan istalgan tashqi konvertirlikka ega bo'lgan valyutada amalga oshirilishi mumkin².

XVF ekspertlari valyutalarni, konvertirlanish ko'lami va darajasiga ko'ra, ikkiga ajratadi: joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha erkin konvertirlanadigan valyutalar va tashqi konvertirlikka ega bo'lgan valyutalar. Lekin XVF ekspertlarining valyutalarning tashqi konvertirlanishi xususidagi talqinlarida o'zaro nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda. Ushbu nomuvofiqlikning mohiyati shundaki, XVF ayrim valyutalarga nisbatan «zaxira valyutalar» tushunchasini qo'llaydi va ushbu valyutalarni xalqaro miqyosda to'lov vositasi vazifasini bajaradigan, boshqa mamlakatlar uchun valyuta pariteti va valyuta kursini aniqlashda baza vazifasini o'taydigan valyutalar

¹ Articles of Agreement of the International Monetary Fund, Articles VIII, Section.

² Twenty Years of International Cooperation. The International Monetary Fund, 1945-1965. Vol. II.- P. 226-227.

sifatida e'tirof etadi. XVF rasman zaxira valyutalar sifatida AQSH dollari, Yaponiya ieni, Buyuk Britaniya funt sterlingi va yevroni tan oladi. XVF tomonidan "zaxira valyutalar" tushunchasi dastlab 1944-yilda, Bretton-Vuds jahon valyuta tizimini yuzaga keltirish jarayonida, qo'llanilgan. O'shanda faqat ikkita valyutaga – AQSH dollari va Buyuk Britaniya funt sterlingiga zaxira valyuta maqomi berilgan edi. Ayni vaqtida, zaxira valyutalari bilan boshqa tashqi konvertirlikka ega bo'lgan valyutalarning tashqi konvertirlanish darajasi o'rtaida qanday farqning mavjudligi XVFning me'yoriy-uslubiy hujjatlarida o'z ifodasini topmagan.

Taniqli iqtisodchi olimlardan biri – R. Makkinnonning fikriga ko'ra, valyuta konvertirlanadigan bo'lishi uchun ushbu mamlakatning fuqarolari mahalliy valyutani xorijiy valyutalarga unifikatsiyalashgan bozorda, barcha joriy valyuta operatsiyalari uchun yagona bo'lgan kurs bo'yicha erkin sotish imkoniyatiga bo'lishlari, norezidentlar esa, joriy valyuta operatsiyalaridan mahalliy valyutada olgan mablag'larini o'sha kurs bo'yicha erkin sotish yoki shu valyutada amaldagi baholar bo'yicha mahalliy tovarlarni erkin sotib olish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim¹. R. Makkinnon ushbu ta'rifda milliy valyutaning ichki konvertirlanish shartlarini ifodalaydi. Bizning fikrimizcha, mazkur ta'rif milliy valyutaning to'liq ichki konvertirlanishi mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Chunki unda milliy valyutani xorijiy valyutalarga erkin konvertirlashning zarurligi bilan bir qatorda, norezidentlarning milliy valyutada olgan mablag'larini xorijiy valyutalarga erkin almashinishini ta'minlash imkoniyati e'tirof etilmoqda.

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan I. Platonova, S. Borisov va A. Navoylarning ilmiy izlanishlarida valyutaning konvertirlik darajasini aniqlash masalalari o'z ifodasini topgan. Jumladan, I. Platonovaning fikriga ko'ra, valyutaning tashqi konvertirligi

¹ MacKinnon, R. (1986) Comments on Willett', Journal of International Money and Finance 5, Supplement: S.113 – 5.

deganda, shu mamlakat pulini joriy operatsiyalar bo'yicha hisoblashishlar uchun erkin almashinish huquqini faqat norezidentlarga berilishi, rezidentlarning esa, bunday huquqqa ega bo'lmasligi tushuniladi¹. Bizning fikrimizcha, I. Platonovaning mazkur ilmiy xulosasi milliy valyutaning qisman tashqi konvertirlikka ega ekanligini ifodalaydi va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

A. Navoy milliy valyutaning konvertirlanishi masalasini ilmiy tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilgan va bir qator muhim ilmiy xulosalarni shakllantirgan. Chunonchi, A. Navoy milliy valyutaning to'liq konvertirlanishiga quyidagicha ta'rif beradi: "Milliy valyutaning to'liq konvertirlanishi deganda uning asosiy xalqaro hisob birliklariga har qanday shaklda, har qanday maqsadlar uchun likvidli xalqaro bozorda minimal chiqimlar bilan erkin almashtirishni amalga oshirish imkoniyati tushuniladi"².

Navoyning nima uchun milliy valyutaning to'liq konvertirlanishini uning faqatgina xalqaro hisob birliklariga almashinish imkoniyati sifatida e'tirof etishi munozaralidir. Chunki xalqaro hisob birliklarining xalqaro to'lovlar jarayonidagi roli juda past bo'lib, XVFning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi davrda jahon valyuta bozorlaridagi konversion operatsiyalarning 90 foizdan ortiq qismi oltita valyutada amalga oshirilmoqda (AQSH dollari, yevro, Yaponiya ieni, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Shveytsariya franki, Kanada dollari)³. Bundan tashqari, Navoyning mazkur ta'rifida milliy valyutaning ichki va tashqi konvertirlanishi o'rtasidagi chegarani farqlashning iloji yo'q. Bundan tashqari, 2006 yilning 1-yanvar

¹ Платонова И. Валютное регулирование в современной мировой экономике. – М.: МФА, 1999. - С. 58.

² Навой А. Введение полной конвертируемости национальной валюты: проблемы теории и практики // Вопросы экономики. – Москва, 2006. - №3. - С. 63.

³ IMF «International Financial Statistics, 2006» bulletenini ma'lumotlari asosida muallif tomoniidan hisoblanadi.

holatiga ko'ra, dunyo bo'yicha xalqaro zaxiralarning 66,5 foizi AQSH dollaridagi zaxiralarga, 24,4 foizi yevroda shakllantirilgan zaxiralarga, 3,7 foizi Angliya funt sterlingidagi zaxiralarga, 3,6 foizi Yaponiya ienidagi zaxiralarga, 1,6 foizi boshqa valyutalardagi zaxiralarning hissasiga to'g'ri keldi¹.

Ta'kidlash joizki, milliy valyuta ichki konvertirlanishini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri – uning pariteti va kursi o'rtaida yuzaga keladigan farqni bartaraf etishning zarurligi yuqorida nomlari zikr etilgan olimlar tomonidan e'tirof etilmagan. Fikrimizcha, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida valyuta paritetlari va kurslari o'rtaida farqning yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lganligi sababli, uni bartaraf etishda devalvatsiyadan faol tarzda foydalanmoq zarur. Chunki devalvatsiya ushbu farqni juda qisqa vaqt ichida bartaraf etish imkonini beradi. Agar mazkur farq qisqa vaqt ichida bartaraf etilmasa, u holda, mamlakatda valyuta fetishizmi yuzaga keladi.

Ta'kidlash joizki, milliy valyutani konvertirlash ichki va tashqi konvertirlashga bo'linadi. O'z navbatida, ichki konvertirlashning o'zi qisman ichki konvertirlash va to'liq ichki konvertirlashga bo'linadi. Milliy valyutaning tashqi konvertirlanishi ham qisman tashqi konvertirlanish va to'liq ichki konvertirlashga bo'linadi.

Milliy valyutani konvertirlanish darajalari quyidagi mezonlarga asoslanishi lozim:

I. Milliy valyutaning qisman ichki konvertirlanishini belgilovchi mezonlar:

1.1. Mamlakat hukumati XVF Kelishuv moddalarining VIII-moddasi bo'yicha yetti bo'limdan iborat majburiyatlarni to'liq qabul qila olmaydi. Buning natijasida mamlakatda joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha valyutaviy cheklashlarning ayrim turlari saqlanib qoladi.

¹ Annual Report of the Executive Board for the Financial Year Ended 30.04. 2006. Appendixes. - P. 130.

1.2. Mamlakatda to‘lov balansining joriy operatsiyalari bo‘yicha cheklovlar norezidentlarga nisbatan saqlanib qoladi.

1.3. Markaziy bank milliy valyutaning qadrsizlanish sur’atini pasaytirish maqsadida konvertatsiya uchun berilgan ayrim buyurtmalarning ijrosini kechiktiradi.

II. Milliy valyutaning to‘liq ichki konvertirlanishini belgilovchi mezonlar:

2.1. Mamlakat hukumati XVF Kelishuv moddalarining VIII-moddasi bo‘yicha yetti bo‘limdan iborat majburiyatlarni to‘liq qabul qiladi.

2.2. Mamlakatda konversion operatsiyalarini amalga oshirishning uzluksizligi ta’minlanadi. Ya’ni, konversion operatsiyalar haftaning besh ish kuni mobaynida har kuni amalga oshiriladi.

2.3. Mamlakatning rezidentlari joriy valyuta operatsiyalari bo‘yicha milliy valyutadagi mablag‘larini milliy valyuta bozori orqali sotib olish mumkin bo‘lgan xorijiy valyutalarga talab va taklif asosida erkin shakllangan kurs bo‘yicha erkin sotish imkoniyatiga ega bo‘lishadi, norezidentlar esa, joriy valyuta operatsiyalari bo‘yicha shu mamlakatning milliy valyutasida olingan mablag‘larni milliy valyutaning erkin shakllangan kursi bo‘yicha erkin sotish huquqiga va imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

III. Milliy valyutaning qisman tashqi konvertirlanishini belgilovchi mezonlar:

3.1. Milliy valyutadan joriy operatsiyalar bo‘yicha hisoblashishlar yuzasidan xalqaro to‘lov vositasi sifatida foydalanish huquqi faqat norezidentlarga beriladi, rezidentlar esa, bunday huquqqa ega bo‘lmaydi.

3.2. Mamlakatda tadbirkorlik kapitali (to‘g‘ri va portfelli investitsiyalar) va ssuda kapitalining (xalqaro kreditlar) xalqaro miqyosdagi harakatlari bo‘yicha cheklovlar saqlanib qoladi.

3.3. Milliy valyuta mintaqaviy valyuta bozorlarida kotirovka qilinadi.

IV. Milliy valyutaning to‘liq tashqi konvertirlanishini belgilovchi mezonlar:

4.1. Milliy valyuta zaxira valyutasi maqomiga ega bo‘ladi. Ya’ni, milliy valyutadan quyidagi maqsadlarda foydalanish imkoni yuzaga keladi:

- milliy valyuta xalqaro to‘lov vositasi sifatida xalqaro valyuta bozorlarida kotirovka qilinadi;
- milliy valyutadan boshqa mamlakatlarda valyuta intervensiyasini amalga oshirish vositasi sifatida foydalaniladi;
- milliy valyuta boshqa mamlakatlarning valyuta pariteti va valyuta kursini aniqlashda bazaviy valyuta vazifasini bajaradi.

Fikrimizcha, hozirgi davrda ana shunday xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan to‘rtta valyuta mavjud. Ular: AQSH dollari, yevro, Yaponiya ieni va Buyuk Britaniya funt sterlingi.

4.2. Mamlakatda to‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limi, kapitallar va kreditlarning harakati bo‘limlari bo‘yicha barcha valyutaviy cheklashlar olib tashlanadi.

4.3. Milliy valyutadan joriy operatsiyalar, kapitallar va kreditlarning xalqaro miqyosdagi harakatlari bo‘yicha hisoblashishlar yuzasidan xalqaro to‘lov vositasi sifatida foydalanish huquqi rezidentlarga ham, norezidentlarga ham beriladi.

Prof. L.N. Krasavina tahriri ostida chop etilgan «Международные валютно-кредитные и финансовые отношения» darsligida¹, V.M. Krashennikovning, «Валютное регулирование в системе государственного управления экономикой» nomli monografiyasida² va yana bir qator olimlarning chop etilgan ilmiy ishlarida milliy valyutaning uch almashinish shartining mavjudligi e’tirof etilgan.

¹ Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Под. ред. Красавиной Л.Н. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и Статистика, 2002. – С. 35-36.

² Крашеников В.М. Валютное регулирование в системе государственного управления экономикой. – М.: Экономика, 2003. – С. 27-41.

Milliy valyutaning erkin almashinish sharti. Milliy valyuta erkin almashinish shartiga ega bo‘lishi uchun, birinchi navbatda, u xorijiy valyutalarga cheklanmagan miqdorda ayrboshlanish xususiyatiga ega bo‘lishi lozim. Demak, mamlakat to‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limida ham, kapitallar va kreditlarning harakati balansi bo‘limida ham valyutaviy cheklashlar bo‘lmasligi lozim. Aks holda, milliy valyutani to‘liq almashinish xususiyatiga ega deb bo‘lmaydi.

Milliy valyuta erkin almashinish shartiga ega bo‘lishi uchun uning nominal almashuv kursi milliy valyuta bozoridagi talab va taklif asosida erkin shakllanishi lozim. Uning shakllanish jarayoniga mamlakat Markaziy banki va hukumati aralashmasligi zarur (milliy valyuta kursining favqulodda yuz beradigan keskin tebranishlariga barham berish maqsadida Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan valyuta intervensiysi bundan mustasno). Mamlakat Markaziy banki milliy valyuta kursi tebranishini ma’lum diapazonlarda saqlab turish majburiyatiga ega bo‘lmasligi zarur.

Ayrim o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida konversion operatsiyalarni amalga oshirish buyurtmali valyuta savdosi tizimiga asoslangan. Masalan, O‘zbekiston ana shu toifadagi daylatlardan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, buyurtmali valyuta savdosi tizimida konversion operatsiyalar xorijiy valyutani sotib olish va sotish maqsadida beriladigan buyurtmalar asosida va odatda, haftaning ma’lum kunida amalga oshiriladi. Demak, rivojlangan moliya bozorlariga ega bo‘lgan davlatlardagi kabi hafta mobaynida amalga oshiriladigan doimiy valyuta savdosi mavjud bo‘lmasligi mumkin. Xo’sh, bunday davlatlarning milliy valyutasi erkin almashinish shartiga ega bo‘lishi mumkinmi? Fikrimizcha, bunda milliy valyuta xorijiy valyutalarga erkin almashinmoqda, lekin doimiy valyuta savdosi mavjud emas.

Buyurtmali valyuta savdosi tizimi asosida konversion operatsiyalarni amalga oshirayotgan mamlakatlar milliy

valyutalarining erkin almashinish sharti mezonlarini aniqlashda masalaning quyidagi ikki jihatiga e'tiborni qaratish lozim:

– ushbu valyutaning emitenti bo'lgan mamlakat XVFning joriy valyuta operatsiyalari hamda kapitallar va kreditlarning harakati bo'yicha valyutaviy cheklashlarni olib tashlash to'g'risidagi majburiyatlarni to'liq qabul qilishi lozim, deb hisoblaymiz;

– ushbu valyutaning emitenti bo'lgan mamlakat XVF kelishuv moddalari bo'yicha joriy valyuta operatsiyalari hamda kapitallar va kreditlarning harakati yuzasidan valyutaviy cheklashlarni to'liq olib tashlagan bo'lishi sharoitida buyurtmali valyuta savdosi tizimini saqlab qolgan bo'lishi mumkin.

Milliy valyutaning qisman almashinish sharti. Valyutalarning qisman almashinish sharti, avvalo, mamlakatda valyutaviy cheklashlarning mavjudligi bilan asoslanishi lozim. Mamlakat garchi XVF kelishuv moddalarining VIII-moddasi bo'yicha majburiyatlarni to'liq qabul qilgan bo'lsa - da, kapitallar va kreditlarning harakati bo'yicha valyutaviy cheklashlarning mavjudligi mazkur mamlakat valyutasining qisman almashinish shartiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ayrim iqtisodchi olimlar milliy valyutaning qisman almashinish shartini asoslashda valyutaviy cheklashlarni rezidentlar va norezidentlarga nisbatan qo'llanilishiga e'tiborni qaratishadi. Ammo, iqtisodiy fanda qisman almashinish shartiga ega bo'lgan valyutalarning emitenti bo'lgan mamlakatlarda norezidentlarga nisbatan valyutaviy cheklashlar saqlanib qoladi, degan fikr keng tarqalgan.

Valyutalarning umuman almashinmaslik sharti. Valyutalarning umuman almanishmaslik shartining asosiy, birlamchi mezoni mamlakatda xorijiy valyutalar savdosiga nisbatan davlat monopoliyasining mavjudligi hisoblanadi. Xorijiy valyutalar savdosiga davlat monopoliyasining mavjudligi xalqaro amaliyotda quyidagi shakkarda namoyon bo'ladi:

- a) mamlakat aholisi va yuridik shaxslariga xorijiy valyutalarda hisob raqamlari ochishga ruxsat etilmaydi;
- b) mamlakat aholisi va yuridik shaxslariga xorijiy valyutalarda hisob raqamlari ochishga ruxsat etiladi. Ammo mazkur hisob raqamlaridagi mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlariga ruxsatni Moliya vazirligi yoki davlatning maxsus vakil etilgan organi beradi;
- v) mamlakatda naqd xorijiy valyutalar savdosi qonun yo'li bilan ta'qilanganadi.

Masalan, sobiq Sovet Ittifoqida jismoniy shaxslarning naqd xorijiy valyutalar bilan oldi-sotdi qilishlariga nisbatan hatto jinoiy javobgarlikka tortish jazosi joriy etilgan edi.

Umuman olganda, milliy valyutaning konvertirlanishi va almashinish shartlari bir qator aniq darajalarga va mezonlarga egadir.

1.4. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar

Valyuta kursiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday asosiy omillardan biri – bu to'lov balansining defisitli ekanlidigidir. To'lov balansining defisitli bo'lishi xorijiy valyutadagi to'lovlar miqdorining ortishiga, mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari miqdorining kamayishiga olib keladi. Buning natijasida ichki valyuta bozorida xorijiy valyutalar taklifining kamayishi yuz beradiki, ushbu holat milliy valyutaning nominal almashuv kursiga nisbatan kuchli tazyiqni yuzaga keltiradi.

Milliy valyuta kursiga ta'sir etuvchi muhim omillardan yana biri Davlat byudjetining defisiti hisoblanadi. Ushbu omil rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida yaqqol kuzatiladi. Chunki, mazkur mamlakatlarning aksariyat qismida Markaziy banklarning iqtisodiy va siyosiy mustaqillik darjasini past bo'lib, Davlat byudjeti defisitini qoplash maqsadida Markaziy bankning emissiya mexanizmidan foydalilaniladi. Buning natijasida muomalaga tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan pullar paydo bo'ladi va shuning asosida milliy

valyutaning qadrsizlanish jarayoni chuqurlashadi. Shu sababli, Davlat byudjeti defisitining me'yoriy darajada bo'lishini ta'minlash milliy valyutaning barqarorligiga erishish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda Davlat bdyujeti defisiti summasining nominal YaIM miqdorining 3 foizdan oshmasligi me'yoriy daraja sifatida qabul qilingan.

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan monetar siyosat milliy valyutaning almashuv kurslariga, shu jumladan, nominal almashuv kursiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sanaladi.

Ma'lumki, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan monetar siyosat iqtisodiy mazmuniga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Restriksion monetar siyosat.
2. Ekspansionistik monetar siyosat.

Restriksion monetar siyosat deganda, odatda, muomaladagi pul massasining o'sish sur'atlarini jilovlashga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi.

Restriksion monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalananadi:

- Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalarining darjasini oshiriladi;
- tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar Markaziy bank tomonidan qayta sotib olish sharti bilan sotiladi;
- Markaziy bank tomonidan hukumatga va tijorat banklariga tegishli bo'lgan vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari depozit hisob raqamlariga jalg' etiladi;
- Markaziy bank valyuta siyosati doirasida milliy valyutadagi pul mablag'lari hajmining o'sish sur'atlarini cheklashga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshiradi.

Ekspansionistik monetar siyosat deganda muomaladagi pul massasining multiplikativ kengayishini ta'minlash asosida to'lovga qobil talabni rag'batlantirishga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi.

Ekspansionistik monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalanadi:

- Markaziy bank qayta moliyalash stavkalarini pasaytiradi va tijorat banklariga beriladigan markazlashgan kreditlarning hajmini oshiradi;
- tijorat banklarining kreditlash hajmiga nisbatan Markaziy bank tomonidan belgilangan limitlar hajmi oshiriladi, ya’ni banklarga kreditlar miqdorini oshirishga imkoniyat yaratiladi.
- Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalari pasaytiriladi;
- tijorat banklariga qimmatli qog’ozlar Markaziy bank tomonidan qayta sotish sharti bilan sotib olinadi;
- Markaziy bank valyuta siyosati doirasida milliy valyutadagi pul mablag’lari hajmining o’sish sur’atlarini oshirishga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshiradi.

Restriksion monetar siyosat milliy valyutadagi pul massasining o’sish sur’atlarini pasaytirish va hatto uning hajmini qisqartirish imkonini beradi. Buning oqibatida milliy valyutaning qadri oshadi. Ammo restriksion monetar siyosat ichki to’lovga qobil talabni bo‘g‘ib qo‘yadi. Natijada makroiqtisodiy o’sish sur’ati pasayadi.

Ekspansionistik monetar siyosat ichki to’lovga qobil talabni rag’batlantirish imkonini beradi. Natijada pul massasining yuqori sur’atlarda o’sishi, multiplikativ kengayishi yuz berishi mumkin.

Siyosiy risk, ya’ni mamlakat riski milliy valyutaning nominal almashuv kursini o’zgarishiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Odatda, siyosiy risk chuqurlashganda mamlakatdan oltin-valyuta zaxiralarini katta miqdorda chiqib ketishi yuz beradi. Buning natijasida ichki valyuta bozorida xorijiy valyutalar taklifi keskin kamayadi, to’lov balansining defisiti ortadi. Oqibatda milliy valyuta qadrsizlanadi.

AQSH dollari kursining nobarqarorligi Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Xitoy kabi mamlakatlarni ham tashvishga solmoqda. Chunki, ularning xalqaro valyuta zaxiralarining asosiy qismi AQSH dollarida shakllangan. Shu sababli, 1999-yil yanvarda Yaponiya va Germaniya Moliya vazirlari AQSHga dollar, yevro va ienning kurslarini o'zaro bir-biriga bog'lashni taklif qildilar. Ammo AQSH Federal zaxira tizimining o'sha vaqtdagi rahbari A.Grinspen va Moliya vaziri R.Rubin ushbu taklifni qat'ian rad etdilar. Ularning fikriga ko'ra, mazkur uch yetakchi valyuta kurslarini o'zaro bir-biriga bog'lashni joriy etish AQSH Federal zaxira tizimining ishsizlik va inflyatsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan pul-kredit siyosatining mustaqilligiga putur yetkazadi¹.

"Yevrohudud"dagi qarz muammolari, Gretsya, Ispaniya, Italiya, Portugaliyadagi og'ir moliyaviy holatlar, pirovard natijada, yevroning AQSH dollari va boshqa yetakchi valyutalarga nisbatan kursining tebranishlariga va pasayishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, Gretsiyadagi og'ir iqtisodiy inqiroz holatlarini bartaraf etish maqsadida ajratilayotgan kreditlar va boshqa shakllardagi moliyaviy mablag'lar yevrodagi pul massasining oshishiga sabab bo'lmoqda.

2010-yil 7-mayda Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning rahbarlari tomonidan Gretsiyaga moliyaviy yordam berish dasturi ma'qullandi. Ushbu dasturga muvofiq, Gretsya uch yil mobaynida 110 mlrd. yevto oladi. Mazkur yordamning Gretsya uchun muhimligi shundaki, hozirgi kunda ushbu mamlakatdagi iqtisodiy ahvol juda og'ir: davlatning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulot (YaIM) miqdoridan katta,

¹ Монсеев С.Р. Международные валютно-кредитные отношения. – М.: Дело и Сервис, 2007. - С. 625-626.

davlat byudjeti defisiti va tashqi qarzning umumiyligi miqdori 300 mlrd. yevro dan oshadi¹.

2012-yilda Kiprda moliyaviy qiyinchiliklarning boshlanganligi yevroning nominal almashuv kursi barqarorligiga nisbatan mavjud bo‘lgan salbiy ta’sirni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. “Reyters” agentligining xabar berishicha, 2012-yilda Kiprga kamida 1,8 mlrd. yevro kerak. Bu esa, uning YalMning 10 foizini tashkil etadi².

2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muomalaga katta miqdordagi pul mablag‘larining paydo bo‘lishiga olib keldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning xulosasiga ko‘ra, “...so‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan muammolar, asosan, qo‘srimcha pul bosib chiqarish va moliya bozorini shunday pullar bilan to‘ldirish hisobidan hal etilishi ko‘zga tashlanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, kelgusida jilovlab bo‘lmaydigan inflyatsiyaga, qimmatchilikka, zaxira va milliy valyutalarning qadrsizlanishiga va shu bilan bog‘liq og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin”³.


Milliy valyuta kursining barqarorligiga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biri, shubhasiz, inflyatsiya hisoblanadi. Inflyatsiya ta’sirida milliy valyutaning qadri pasayadi.

Inflyatsiya lotincha **inflatio** so‘zidan olingan bo‘lib, ko‘pchish, bo‘rtish degan ma’noni anglatadi.

¹ Лидеры стран-участниц ЕС утвердили программу помощи Греции. <http://lenta.ru/news/2010>.

² Кипр обратился к ЕС за финансовой помощью. <http://lenta.ru/news/2012>.

³ Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. - B. 4.



1.2-rasm. Inflyatsyaning asosiy turlari.

1.2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, inflyatsyaning bir nechta turlari bo‘lib, ular milliy valyutaning almashuv kurslariga o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatadi.



1.3-rasm. Inflyatsiya mohiyatining namoyon bo‘lish shakllari.

1.3-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, inflyatsyaning uchta namoyon bo‘lish shakli mavjud bo‘lib, ularning barchasi milliy valyutaning qadrsizlanishi bilan bog‘liqdir.

Davlat tashqi qarzining o'zgarishi milliy valyutaning nominal almashuv kursiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri sanaladi.


Xalqaro amaliyotda davlat tashqi qarzining YaIMga nisbatan 60 foizdan oshmasligi me'yoriy daraja hisoblanadi. Agar tashqi qarz ushbu me'yoriy darajadan oshsa, u holda milliy valyutaning nominal almashuv kursiga nisbatan kuchli tazyiq yuzaga keladi. Ya'ni, ichki valyuta bozorida xorijiy valyutalarning taklifi sezilarli darajada kamayadi. Bunday sharoitda xorijiy valyutalarga bo'lgan talab o'zgarmay qolganda ham, milliy valyutaning qadrsizlanishi yuz beradi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzi darajasini mo'tadil ekanligini e'tirof etish joiz. 2014-yilning 1-yanvar holatiga, O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzining darajasi YaIMga nisbatan 17,0 foizni tashkil etdi¹. Bu esa, davlat tashqi qarzining mo'tadil darajada ekanligini ko'rsatadi.

Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, aholining turmush farovonligini ta'minlash uchun muhim zamin yaratadi.

Xalqaro amaliyotda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashda quyidagi usullardan foydalaniladi (2.4-rasm):

¹ Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom etturish yili bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. - B. 5.



1.4-rasm. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash yo'llari.

2.4-rasm ma'lumotlaridan ko'rindan, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash ko'p omilli jarayon hisoblanadi. Shu sababli, har bir omilning ta'sirini to'g'ri baholash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Valyuta kursi; valyuta pariteti; valyuta intervensiysi; valyuta kursi rejimlari; valyutaning nominal almashuv kursi; valyutaning real almashuv kursi; davlat byudjeti defisiti; davlat byudjeti profisiti; devalvatsiya; inflyatsiya; Mandell-Fleming modeli; pul massasi; rezerv valyuta; restriksion monetar siyosat; revalvatsiya; tashqi qarz; to‘lov balansi; to‘lov balansi defisiti; emissiya; erkin almashinadigan valyuta; ekspansionistik monetar siyosat; xorijiy valyuta; yumshoq valyuta.

Takrorlash uchun savollar

1. Milliy valyutaning qanday almashuv kurslari mavjud?
2. Qanday valyuta kursi rejimlari mavjud?
3. Rezerv valyutalarni aniqlash uchun qaysi mezonlardan foydalilanadi?
4. Qanday valyutalar erkin almashinadigan valyutalar hisoblanadi?
5. “Valyutalarning xarid qobiliyati” nazariyasining asosiy qoidalari nimalardan iborat?
6. “Suzuvchi valyuta kurslari” nazariyasining mazmuni nimalarda namoyon bo‘ladi?
7. “Belgilangan paritetlar va valyuta kurslari” nazariyasining asosiy qoidalari nimalardan iborat?
8. Milliy valyutaning almashuv kurslariga qaysi omillar ta’sir ko‘rsatadi?
9. Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashda qo‘llaniladigan qanday usullarni bilasiz?
10. Devalvatsiya nima maqsadda amalga oshiriladi?
11. Revalvatsiya nima maqsadda amalga oshiriladi?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Muvozanatlashgan valyuta kursi.
2. Valyuta kursini baholashning zamонавији usullari.
3. Valyuta kursi xususidagi FEER va DEER konsepsiyalari.
4. Milliy valyutaning real almashuv kursi va uning mamla-katning eksport salohiyatiga ta’siri.
5. Devalvatsiya va uning milliy iqtisodiyotga ta’siri.
6. Valyuta pariteti va uni hisoblash usullari.
7. Markaziy bank monetar siyosatining milliy valyuta alma-shuv kurslarining barqarorligini ta’minlashdagi roli.
8. Milliy valyutaning almashuv kurslariga ta’sir qiluvchi omillar.

II BOB. VALYUTA TIZIMLARI VA ULARNING ELEMENTLARI

2.1. Valyuta munosabatlari va ularni yuzaga kelish asoslari

Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim, ajralmas tarkibiy qismidir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar quyidagi tarkibiy qismlaridan tashkil topadi:

- xalqaro mehnat taqsimoti;

- xalqaro savdo;

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfelli investitsiyalarning xalqaro miqyosdagi harakati;

- ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakati;

- xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlari;

- xalqaro iqtisodiy integratsiya.

Xalqaro valyuta munosabatlari valyutalarning xalqaro miqyosdagi harakati natijasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlardir.

Xalqaro valyuta munosabatlarining subyektlari bo‘lib, davlat, kompaniyalar, banklar, jismoniy shaxslar va xalqaro moliya institutlari hisoblanadi.

Ammo har qanday valyuta xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda to‘lov vositasi vazifasini bajara olmaydi. Ushbu vazifani, asosan, taraqqiy etgan mamlakatlarning milliy valyutalari va xalqaro hisob birligi bo‘lgan SDR (mablag‘lar jalb qilishning maxsus huquqi) bajaradi.

Xalqaro valyuta munosabatlarining yuzaga kelishi dastlab xalqaro savdoning yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Xalqaro mehnat taqsimotining yuzaga kelishi davlatlar o‘rtasida tashqi savdo munosabatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. O‘z navbatida, tashqi savdoni amalga oshirish turli mamlakatlarning valyutalarini bir-biriga ayrboshlash zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv jarayonlari ning chuqurlashishi natijasida tadbirkorlik kapitali (to‘g‘ri va portfelli xorijiy investitsiyalar) va ssuda kapitalining (xalqaro kreditlar) xalqaro miqyosdagi oqimi kuchaydi. Bu esa, xalqaro valyuta munosabatlarni rivojlantirishga kuchli turtki berdi.

Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlardan tashqari, davlatlararo siyosiy, madaniy va boshqa aloqalarda ham yuzaga keladi. Masalan, xorijiy davlatlarda diplomatik vakolatxonalar ochish va saqlash, o‘zga davlatlar hududida harbiy qismlar saqlash, madaniy tadbirlarni amalga oshirishda valyuta munosabatlari paydo bo‘ladi.

Banklarning paydo bo‘lishi va ular faoliyatining rivojlanishi xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Banklar, ayniqsa, tijorat banklari xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish markazlariga aylanishdi. Transmilliy banklarning paydo bo‘lishi bilan xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishi yangi bosqichga chiqdi. Transmilliy banklarning dunyo bo‘ylab filiallar tarmog‘ining kengligi xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tezligi va hajmini oshirish imkonini berdi. Albatta, mazkur jarayonda xalqaro elektron to‘lov tizimlari muhim o‘rin tutadi. Hozirgi davrda, davlatlararo xalqaro hisob-kitoblarning asosiy qismi SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunications) tizimi orqali o‘tadi.

SWIFT tizimi 1973-yilda 15 ta g‘arb davlatining 240 ta banki tomonidan tashkil qilingan edi. U faoliyatini 1977-yildan boshladi. Hozirgi kunda SWIFT faoliyati dunyoning 90 mamlakatidagi 4000 dan ortiq bankni qamrab olgan.

Xalqaro valyuta munosabatlari ishlab chiqarish munosbatlariga nisbatan hosilaviy bo‘lsa-da, ularning rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, xalqaro kreditlar va xorijiy investitsiyalar kompaniyalar ishlab chiqarish faoliyatini zamонавиy texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish imkonini beradi. O‘z navbatida, xalqaro kreditlar

va investitsiyalarning harakati xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanish darajasiga bog'liq.

Garchi oltinni demonetizatsiya qilish 1978-yilda tugallangan bo'lsa-da, hamon oltinning xalqaro valyuta munosabatlariga ta'siri sezilib turibdi. Mazkur ta'sir quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- oltin xalqaro kreditlar uchun garov ta'minoti vazifasini o'tamoqda;

- xorijiy valyutalarda yetarlicha zaxiraga ega bo'lmagan davlatlar oltinni sotish yo'li bilan o'zlarining tashqi majburiyatları yuzasidan to'lovlarни amalga oshirmoqdalar;

- oltin hamon noyob metall sifatida insonlarni o'ziga jalb etmoqda. Bu esa, oltinni oldi-sotdi qilish bilan bog'liq bo'lgan katta miqdordagi valyuta operatsiyalarini yuzaga keltirmoqda.

Jahon iqtisodiy inqirozlari xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyo miqyosida birinchi marta iqtisodiy inqirozning xalqaro valyuta munosabatlariga ta'siri 1929–1933-yillarda yuz bergen jahon iqtisodiy inqirozi – "Buyuk depressiya" paytida yuz berdi.

Mazkur iqtisodiy inqiroz natijasida banklarning ommaviy ravishda bankrot bo'lishi yuz berdi, AQSH va Yevropa mamlakatlarida inflyatsiya kuchaydi, oltinni markaziy banklarning zaxirasiga oilb qo'yish boshlandi. Buning natijasida xalqaro valyuta munosabatlari izdan chiqdi. Chunki, davlatlarning xorijiy valyutalardagi majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati keskin cheklanib qolgan edi.

Buyuk depressiya va uning oqibatlari dunyo miqyosida xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotni yaratish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shu tariqa, 1944-yilda AQSHning Bretton-Wuds shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyaning qarori bilan Xalqaro valyuta fondi tashkil etildi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro valyuta munosabatlarini xalqaro miqyosda hisob-kitoblarni xalqaro to‘lov vositalari orqali amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy munosabatlarning yig‘indisi sifatida e’tirof etish mumkin.

2.2. Milliy valyuta tizimi va uning elementlari

Milliy valyuta tizimi – bu alohida olingan bir mamlakatda valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat-huquqiy shaklidir.

Davlat shakli deyilishining sababi shundaki, valyuta munosabatlari davlat tomonidan tashkil etiladi.

Huquqiy shakli deyilishining sababi shundaki, valyuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish maqsadida o‘rnatilgan qoidalarga rioya qilish va ularni bajarish valyuta munosabatlarining barcha ishtirokchilari uchun majburiydir.

Milliy valyuta tizimi mintaqaviy va jahon valyuta tizimlarining yuzaga kelishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy valyuta tizimi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. Milliy valyuta.

Har qanday mamlakat milliy valyuta tizimining dastlabki elementi bo‘lib, uning milliy valyutasi hisoblanadi (O‘zbekistonda so‘m, AQSHda – dollar, Rossiyada – rubl va hokazo).

2. Milliy valyutaning almashinish sharti.

Har qanday milliy valyuta almashinish shartiga ko‘ra, quyidagi uch turdan biriga kiradi:

- to‘liq almashinadigan valyuta;
- qisman almashinadigan valyuta;
- umuman almashinmaydigan valyuta.

3. Milliy valyuta kursining rejimi.

Valyuta kursining uch asosiy rejimi bo‘lib, ular quyida-gilardan iborat:

- erkin suzish rejimi;
- qat’iy belgilangan kurs rejimi;

- boshqariladigan suzish rejimi.

Erkin suzish rejimida milliy valyutaning almashuv kursi valyuta bozorida, talab va taklifga qarab erkin shakllanadi. Mamlakatning Markaziy banki kursning ma'lum holati uchun javob bermaydi. Ushbu valyutalarning kursi katta oraliqlarda tebranishi mumkin.

Qat'iy belgilangan kurs rejimida milliy valyutaning kursi xorijiy valyutaga yoki valyuta savatiga nisbatan belgilab qo'yiladi. Mamlakatning Markaziy banki milliy valyutaning kursini belgilangan holatini ta'minlash yuzasidan javobgar hisoblanadi.

Boshqariladigan suzish rejimi valyuta qonunchiligidagi rasman belgilab qo'yilmaydi. Mazkur rejim XX asming 70-yillarida paydo bo'ldi. Ya'ni, XVF ekspertlari ayrim mamlakatlarning valyuta qonunchiligidagi erkin suzish rejimi belgilangan bo'lsa-da, ularning Markaziy banklari valyuta kursini shakllanish jarayoniga faol aralasha boshlaganligini payqab qolishdi. Natijada ekspertlar yangi kurs rejimi paydo bo'lganligini e'tirof etishdi va uni "boshqariladigan suzish rejimi" deb atashdi.

4. Milliy valyutaning pariteti.

Milliy valyutaning pariteti deganda milliy valyuta qiymatining xorijiy valyuta qiymatiga nisbatiga aytildi.

Hozirgi davrda milliy valyutaning pariteti uning xarid qobiliyatini xorijiy valyutaning xarid qobiliyati bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

Milliy valyutaning kursi valyuta bozorida talab va taklifga qarab aniqlanadi. Ammo paritetni hisoblash nima uchun kerak?

Valyuta paritetini hisoblash milliy valyutaning kursi bilan uning xarid qobiliyati o'rtasidagi farqning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash uchun kerak. Agar valyuta pariteti bilan valyuta kursi o'rtasida farq yuzaga kelib, ushbu holat milliy valyutaning kursini sun'iy ravishda yuqori bo'lishiga olib kelgan bo'lsa, ushbu holat mamlakatda xorijiy valyutaga bo'lgan qiziqishni kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bu iqtisodiy fanda

“fetishizm” deb ataladi. Fetishizm oqibatida bahosi yuqori bo‘lgan va uzoq muddat foydalilaniladigan tovarlarni (uy-joy, avtomashina va boshq.) xorijiy valyutaga oldi-sotdi qilish yuzaga keladi. Mazkur farqni yo‘q qilish uchun, odatda, Markaziy bank milliy valyutani devalvatsiya qilishga majbur bo‘ladi.

5. Mamlakatning xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobilligi.

Mamlakatning xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobilligi deganda uning xorijiy valyutadagi majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajara olish imkoniyatiga aytildi.

XVF ekspertlari tomonidan mamlakatning xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobilligini aniqlash bo‘yicha bir nechta uslublar taklif etilgan. Ulardan ikkitasi xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladi. Birinchi uslubga ko‘ra, mamlakatning xalqaro valyutaviy to‘lovga qobilligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{XVTQ} = (\text{OVZ}/\text{YTI}) \times 100\% \quad (1)$$

Bunda:

XVTQ – xalqaro valyutaviy to‘lovga qobillik;

OVZ- oltin-valyuta zaxiralari;

YTI – bir yillik tovar importi.

Agar ushbu ko‘rsatkich 50 foizni tashkil qilsa va undan yuqori bo‘lsa mazkur mamlakat xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobil hisoblanadi.

Ikkinci uslubga ko‘ra, agar mamlakat 3 oylik tovarlar importini qoplashga yetadigan oltin-valyuta zaxirasiga ega bo‘lsa, xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobil hisoblanadi.

6. Mamlakatda valyutaviy cheklashlarning mavjudligi yoki yo‘qligi.

Bunda to‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limi bo‘yicha va kapitallarning harakati bilan bog‘liq bo‘lgan valyuta operatsiyalari bo‘yicha valyutaviy cheklavlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi ko‘zda tutiladi.

7. Milliy valyuta bozori va oltin bozorining rejimi.

O'zbekiston Respublikasida oltin savdosiga nisbatan davlat monopoliyasi mavjud. Shu sababli, milliy oltin bozori mavjud emas.

8. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini belgilash.

Odatda, Markaziy bank tomonidan xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi, hisob-kitob shakllaridan foydalanish mexanizmi belgilab beriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunining 18-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida barcha hisob-kitoblar va to'lovlar milliy valyutada amalga oshiriladi.

9. Mamlakatda xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi davlat organlari.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunining 10-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasida valyutani tartibga soluvchi davlat organidir.

Mazkur Qonunning 20-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat Bojxona qo'mitasi O'zbekiston Respublikasida valyutani nazorat qiluvchi organlardir.

2.3. Yevropa valyuta tizimi

Yevropa valyuta tizimi (YEVT) 1979-yilda tashkil etilgan. Ushbu tizim to'rt tarkibiy qismdan iborat:

1. Yevropa valyuta birligi (ECU).
2. Valyutalar va ma'lumotlarni almashish mexanizmi.
3. Kredit shart-sharoitlari.
4. Transfert mexanizmi.

Bundan tashqari, Yevropa valyutaviy hamkorlik fondi tashkil etildi va unda Yevropaning rezerv aktivlarining ma'lum qismi to'plandi. Bu esa, Valyutalarning almashuv kurslari

mexanizmini himoya qilish maqsadida qisqa muddatli valyuta intervensiyanini amalga oshirish imkonini berdi.

YEVTga a'zo mamlakatlarning markaziy banklari uzoq yillar mobaynida valyuta intervensiysi vositasida milliy valyutalar almashuv kurslarining keskin tebranishlariga barham berib keldilar. Faqat 1992–1993-yil sentyabrda yuz bergan valyuta inqirozi paytida YEVTga a'zo bo'lgan ayrim mamlakatlarning markaziy banklari (Angliya Markaziy banki, Italiya Markaziy banki) tomonidan amalga oshirilgan valyuta intervensiysi kutilgan natijani bermadi. Masalan, Angliya va Italiya Markaziy banklari tomonidan valyuta intervensiysi doirasida AQSH dollarining sotilishi funt sterling va Italiya lirasi kursining pasayish tendensiyasiga barham bera olmadi. Natijada mazkur valyutalar YEVTdan chiqarib tashlandi. Chunki, ushbu valyutalarning kursini belgilangan chegaraviy darajada saqlab turishning iloji bo'lmadi.

XX asrning 70–90-yillarida YEVTga a'zo markaziy banklar tomonidan amalga oshirilgan valyuta intervensiyalari obyekti bo'lib AQSH dollari hisoblanar edi. Bu davrlarda valyuta intervensiysi AQSHdagiga nisbatan tovarlar bahosini keskin o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik yoki AQSH dollarining YEVT mamlakatlarida keskin tebranishining oldini olish maqsadida qo'llanilar edi. Masalan, Fransiyada AQSH dollari kursining pasayishi yuz berganda nemis markasi sotilardi, AQSH dollari sotib olinardi. Italiyada esa, AQSH dollarining kursi pasaysa, Italiya Markaziy banki AQSH dollari, nemis markasi va golland guldenini sotar edi. Ana shu yo'l bilan AQSH dollarining tebranishi natijasida YEVTda yuzaga keladigan salbiy holatlarga barham berilar edi.

1979-yildan boshlab valyuta intervensiysi mexanizmi EI mamlakatlarida tubdan o'zgardi. Ya'ni, YEVTdagi har bir valyuta uchun EKYuga nisbatan markaziy kurs belgilandi va bu kurs faqatgina kurs qayta ko'rib chiqilganda o'zgartirilar edi. YEVTdagi har qanday ikkita valyutaning EKYuga nisbatan

markaziy kurslari o'rtasidagi nisbat ikki tomonlama paritetni tashkil etar edi. Ushbu ikki tomonlama paritetdan kursning tebranish chegarasi \pm 4,5% qilib belgilangan edi. Chunki bu vaqtida milliy valyutalarning paritetidan tebranish diapazoni \pm 2,25 qilib belgilangan edi.

Agar ikki valyuta ikki tomonlama paritetdan tebranish chegarasiga yetsa, u holda, majburiy intervensiya amalga oshirilar edi. Ushbu intervensiya har ikkala Markaziy bank tomonidan amalga oshirilar edi. Kuchli valyutaning emitenti zaif valyutani etarli darajada ko'p miqdorda sotib olishi, kuchli valyutani sotishi mumkin edi. Zaif valyutaning emitenti esa, kuchli valyutani cheklanmagan miqdorda o'zining milliy valyutasiga sotishi mumkin edi.

Majburiy valyuta intervensiyasini amalga oshirish uchun, albatta, kuchli valyutaning emitenti zaif valyutaning emitentiga limitsiz kredit liniyasini ochib qo'yishi zarur. Bunday kreditlarning muddati valyuta intervensiysi amalga oshirilgan oy tugagandan keyin 45 kun qilib belgilangan edi, keyinchalik 75 kun qilib belgilandi. Mazkur kreditlar ularni olgan mamlakatlar markaziy banklarining iltimosiga ko'ra 3 oygacha muddatga tiklanishi mumkin edi. Lekin tiklanganda beriladigan kreditning miqdori cheklangan bo'lib, mamlakatning qisqa muddatli kreditlash fondidagi badalining ikki barobari miqdorida belgilangan edi.

YEVTga a'zo mamlakatlarning qisqa muddatli kreditlash fondi (Short Term Monetary Support) mavjud bo'lib, ushbu Fond mablag'lari hisobidan majburiy tarzda amalga oshiriladigan valyuta intervensiyasining uzlusizligi ta'minlanadi.

Shuningdek, YEVT mamlakatlarida AQSH dollarining kursiga ta'sir etish maqsadida kollektiv tarzda valyuta intervensiyasini amalga oshirish bo'yicha boy tajriba to'plangan.

YEVTni tashkil qilish va tartibga solish borasidagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, valyuta inqirozlari paytida valyuta

kurslarining tebranish diapazonini keskin oshirish zaruriyati yuzaga keladi. Masalan, 1992–1993-yillardagi valyuta inqirozlari paytida YEVT valyutalarining tebranish diapazoni ±15 foizgacha kengaydi.

1988-yil iyun oyida Yevropa kengashi Iqtisodiy va valyuta ittifoqi (IVI) g'oyasini amalga oshirish to'g'risidagi qarorni qabul qildi. Jak Delor raisligidagi Qo'mitaga yagona valyutani muomalaga kiritish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash va tegishli xulosalarni shakllantirish vazifasi topshirildi. Oradan bir yil o'tgandan so'ng J.Delor hisobot berdi va shundan keyin Yevropa kengashi 1990 yil 1 iyuldan boshlab IVIni yaratishning birinchi bosqichini amalga oshirishni boshladi.

1992-yil 7-fevralda Maastricht shahrida (Niderlandiya) imzolangan shartnomada Yevropa valyuta ittifoqini tuzish yo'lidagi hal qiluvchi qadam bo'ldi. Mazkur shartnomada birinchi marta inflyatsiya darajasi, valyutalarning almashuv kursi, foiz stavkasi, byudjet defisiti va IVI ga a'zo mamlakat-larning qarziga nisbatan aniq talablar qo'yildi. Jumladan, inflyatsyaning yillik darajasini 2 foizdan oshmasligi, davlat byudjeti defisitining YaIMga nisbatan darajasini 3 foizdan oshmasligi, davlatning qarzini YaIMga nisbatan 60 foizdan oshmasligi belgilab qo'yildi. Bu esa, yevroning barqarorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

1994-yil 1-yanvarda Yevropa valyuta institutininining tashkil etilishi bilan IVIni yaratishning ikkinchi bosqichi boshlandi.

1998-yil 2-mayda Bryusselda bo'lib o'tgan maxsus yig'ilishda IVIning uchinchi bosqichida ishtirok etadigan 11 ta mamlakat aniqlandi. Yagona valyuta zonasiga Daniya, Shvetsiya va Buyuk Britaniya kirmay qoldi.

1998-yilning 1-iyunida Yevropa Markaziy bankining tashkil etilishi bilan Yevropa valyuta instituti o'z faoliyatini tugatdi.

1999-yilning 1-yanvaridan boshlab yevro naqd pulsiz shaklda, 2002-yil 1-yanvardan boshlab esa, naqd valyuta shaklida muomalaga kiritildi. 2014-yilning 1-yanvar holatiga,

Yevropa Ittifoqiga 27 mamlakat a'zo bo'lgani holda, yevrohudud 18 ta davlatdan iborat va mazkur mamlakatlar o'zlarining milliy valyutasidan umuman voz kechishdi.

2.4. Jahon valyuta tizimi va uning evolyutsiyasi

Jahon valyuta tizimi davlatlararo valyuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo'lib, xalqaro shartnomalar asosida yuzaga keladi.

Hozirga qadar jahon valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi to'rt bosqichni bosib o'tdi.

Birinchi jahon valyuta tizimi 1870-yilda Parijsda bo'lib o'tgan davlatlararo kelishuv natijasida yuzaga keldi. Bunda oltin standarti joriy etildi va oltin yagona xalqaro to'lov vositasi sifatida e'tirof etildi.

Ammo 1914-yilda Birinchi jahon urushining boshlanishi oltin standartidan foydalanish amaliyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1914–1915-yillarda dastlab Buyuk Britaniya, keyin esa, qolgan Yevropa davlatlari oltinni eksport qilishni cheklandilar. AQSH urushga kech qo'shilganligi uchun mazkur cheklov 1917-yilda joriy etildi.

Buyuk Britaniya funt sterlingdagi xalqaro to'lovlarini to'xtatdi. Import qilingan oltinlarning barchasi Angliya Markaziy bankining zaxirasiga olina boshladi.

1922-yilda Italiyaning Genuya shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyyada Ikkinchchi jahon valyuta tizimi yuzaga keldi. Uning muhim natijasi bo'lib, oltin-deviz standartining joriy etilganligi hisoblanadi. Ya'ni, oltin bilan birga, 30 ta mamlakatning milliy valyutasiga xalqaro to'lov vositasi maqomi berildi.

Ammo Ikkinchchi jahon valyuta tizimi haqiqatda Buyuk Britaniyaning funt sterlingi standartiga aylandi. Ya'ni, funt sterling asosiy rezerv valyutaga aylandi. Bu esa, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Birinchi jahon urushi paytida funt sterling boshqa Yevropa valyutalariga nisbatan kam darajada qadrsizlandi (20%). Qolgan Yevropa valyutalari, xususan, Fransiya franki 80 foizgacha qadrsizlandi. Holbuki, Fransiya franki yetakchi valyutaga aylanishga da'vogarlik qilayotgan edi.

2. XX asrning 20-yillarida Angliya ochiq iqtisodiyotga ega edi. Boshqa davlatlar Angliya bilan savdo-sotiq qilib funt sterling ishlab olish imkoniyatiga ega edi. Bu vaqtda AQSH yopiq iqtisodiyotga ega edi.

3. Angliya banklari bu davrda keng tarqalgan xorijiy filiallarga ega edi. AQSH banklari esa, xorijiy filiallarga deyarli ega emas edi.

4. XX asrning 20-yillarida Angliya banklari tomonidan xalqaro savdoning 60 foizgacha qismi moliyalashtirilar edi.

Yuqorida qayd etilgan sabablar Buyuk Britaniya funt sterlingini dunyo miqyosida xalqaro zaxiralar hajmidagi salmog'ining oshishiga olib keldi. 1913-yilda dunyo bo'yicha xalqaro valyuta zaxiralarining 47 foizi funt sterlingga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1928-yilda ushbu ko'rsatkich 77 foizni tashkil etdi¹.

Ammo ikkinchi jahon valyuta tizimi ham bir qator sabablarga ko'ra, inqirozga uchradi. Ushbu sabablardan asosiyлari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Buyuk Britaniya hukumati tomonidan Birinchi jahon urushidan keyin deflyatsion siyosatni olib borilganligi.

Deflyatsion siyosat funt sterlingning oltinga nisbatan paritetini urushdan oldingi darajaga yetkazish maqsadida amalga oshirildi. Ammo ushbu siyosat kutilgan natijani bermadi va aksincha, valyutaviy inqirozga olib keldi. Buning sababi shundaki, Buyuk Britaniya funt sterlingning qat'iy belgilangan kursini saqlab turdi. Bu vaqtida, ularning tashqi iqtisodiy hamkorlari bo'lган mamlakatlar devalvatsiyani amalga oshirdilar. Natijada Buyuk Britaniyaning tashqi savdodagi

¹ Officer L. Gold Standart, 2001 ma'lumotlari.

raqobatbardoshligi keskin pasaydi va to'lov balansining defisiti miqdori oshdi. Fransiya, Germaniya va Belgiyaning milliy valyutalari Birinchi jahon urushida yuqori sur'atda devalvatsiyaga uchraganligi sababli ularning kursi past darajada qoldi. Buning natijasida mazkur mamlakatlarda to'lov balansida katta ijobiy saldo yuzaga keldi va oltinni katta miqdorda oqib kelishi yuz berdi.

2. Birinchi jahon urushidan keyin AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya Markaziy banklari tomonidan sterilizatsiyalashgan valyuta intervensiyasini amalga oshirilganligi.

Buning natijasida Markaziy banklarning foizli daromad keltiruvchi ichki aktivlarining yillik o'zgarishi yuz berdi va u oltinning taklifini keskin qisqartirdi.

3. Markaziy banklar o'rtasida xalqaro rezervlarning notekis taqsimlanishining yuzaga kelganligi.

Oltin-deviz standartini birinchi bo'lib Kanada 1929-yilda tark etdi.

1944-yilda AQSHning Bretton-Wuds shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya natijasiga ko'ra Uchinchi jahon valyuta tizimi tashkil topdi.

Uning muhim natijalari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro miqyosda qat'iy belgilangan kurs rejimi joriy qilindi.

Milliy valyutalarning kursi ularning paritetidan 1 foizgacha tebranishi mumkin edi. Buning natijasida davlatlar o'rtasidagi tashqi savdo munosabatlarida yuzaga keladigan valyuta riski muammosiga barham berildi.

2. AQSH dollari va Buyuk Britaniyaning funt sterlingiga xalqaro rezerv valyuta maqomi berildi.

3. Yangi rezerv aktiv – qarz olishning maxsus huquqi (SDR) yaratildi.

SDR sun'iy valyuta bo'lib, XVFga a'zo mamlakatlardan o'rtasida, ularning Fonddagi kvotasiga qarab taqsimlanadi va

xorijiy valyutalar sotib olishda, kreditlar berishda va davlatlar o'rtaсидаги то'ловларни амалга оширишда қо'llанылади.

Uchinchi jahon valyuta tizimi faoliyat ko'rsatishi bilanoq ikki dolzarb muammoga duchor bo'ldi: bilateralizm va dollar yetishmasligi muammosi.

Bilateralizm (bilateralism) deganda tashqi savdoni ikki tomonlama xalqaro shartnoma asosida amalga oshirish tushuniladi.

Ikkinci jahon urushi unda ishtirok etgan barcha davlatlarning (AQSHdan tashqari) iqtisodiyotini xonavayron qildi. Buning natijasida mazkur davlatlar valyutaviy nazoratni saqlab turishga majbur bo'ldilar. Shu sababli, har bir mamlakat o'zining tashqi savdo hamkorini bo'lgan mamlakat bilan valyutaviy nazorat shakllarini hisobga olgan holda eksport-import shartlarini kelishib olar edi. Bu esa, o'z navbatida, tashqi savdoni rivojlantirishga to'sqinlik qilar edi.

Bu davrda, ya'ni 1946–1950-yillarda AQSH dollari yagona xalqaro to'lov vositasi vazifasini bajaradigan valyuta bo'lib qolgan edi. Ammo “**dollar ocharchiligi**” (dollar shortage) deb nomlanuvchi muammo yuzaga keldi. Ushbu muammoning mohiyati shundaki, Ikkinci jahon urushining so'ngiga kelib (1945-y.) G'arbiy Yevropa va Yaponiyaning oltin zaxiralari tamom bo'ldi. Chunki, Ittifoqchilarning harbiy xarajatlari oltin hisobidan moliyalashtirilar edi. Ularning oltinlari AQSHga oqib ketdi. Bu davrda Yevropani zarur import tovarlar bilan faqat AQSH ta'minlay olar edi. Yevropa davlatlarida esa, AQSHdan qilinadigan importni to'lash uchun zarur bo'lgan dollar yetishmas edi.

1955-yilga kelib yuqorida qayd etilgan har ikkala muammoni hal qilishga muvaffaq bo'lindi. G'arbiy Yevropa davlatlari valyutalarining 1955-yilga kelib konvertirlanadigan valyutalarga aylanishi, ularning to'lov balansini joriy operatsiyalar bo'limida ijobjiy saldoning ta'minlanishi, AQSHdan katta miqdorda moliyaviy yordamning olinishi

bilateralizm va dollar yetishmasligi muammosini hal qilish imkonini berdi. AQSH «Marshall rejasi»ga asosan Yevropaga 13 mlrd. dollar miqdorida moliyaviy yordam va xalqaro kreditlar berdi. Ushbu mablag'larni berish evaziga AQSH Yevropa davlatlariga uskunalarini AQSHdan sotib olish va mahalliy xomashyo bazalariga AQSHni kiritish shartini qo'ydilar.

Ammo haqiqatda Uchinchi jahon valyuta tizimi AQSH dollari standartining gegemonligiga aylandi. Buning quyidagi sabablari mavjud edi:

1. AQSHning Ikkinci jahon urushidan keyin jahon tovar bozorlarida raqobatchilari yo'q edi.

Germaniya, Italiya, Yaponiya urushda mag'lubiyatga uchradi, Yevropaning qolgan davlatlari ham urush natijasida xonavayron bo'ldi. Bu esa, AQSHning tovarlar eksporti hajmini oshirish imkoniyatini keskin oshirdi.

2. AQSH Ikkinci jahon urushidan keyingi davrdan to XX asrning 50-yillariga qadar dollarga bo'lgan ishonchni mustahkamlash maqsadida uning devalvatsiya bo'lishiga yo'l qo'ymaslik siyosatini olib bordi.

3. AQSH dollarini cheklanmagan miqdorda oltinga qat'iy belgilangan baho bo'yicha almashtirish joriy qilingan edi. Bunda 1 untsiya oltinning bahosi 35 dollar qilib belgilangan edi.

XX asrning 60-yillariga kelib, AQSHda pullar taklifining keskin oshishi natijasida inflyatsiyaning kuchayishi yuz berdi. O'z navbatida, pullar taklifining keskin oshishi ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan siyosatning olib borilishi va davlat byudjeti defisitini AQSH FZT kreditlari hisobidan moliyalashtirilishi oqibati edi. Ayniqsa, Vietnamdagi urush AQSH davlat byudjeti defisitining keskin oshishiga olib keldi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar qat'iy belgilangan kurslar tizimining barham topishiga olib keldi.

Bundan tashqari, XX asrning 60-yillariga kelib, Yevropa davlatlari katta eksport salohiyatiga ega bo'ldi va buning

natijasida ularda katta miqdorda AQSH dollari to‘plana boshladi. Bunday sharoitda dollarni oltinga almashtirib berishni davom etishi AQSHning oltin zaxiralarini keskin kamayishiga olib kelar edi.

Chikago universitetining professori M.Fridmen 1971-yilda AQSH Prezidenti Richard Niksonga yozma ravishda murojaat qildi. Ushbu murojaatnomada oltinning qat’iy belgilangan bahosini bekor qilish va oltinni qat’iy belgilangan bahoda dollarga almashtirib berishni to‘xtatishning zarurligi asoslab berilgan edi. M.Fridmenning xulosasiga ko‘ra, oltinning qat’iy belgilangan bahosi AQSHning tashqi savdo hamkorlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda va ushbu holatning davom etishi AQSH oltin zaxiralarining tugashiga olib keladi. M.Fridmenning ushbu xulosasi aniq raqamlar tahliliga asoslangan edi. Xususan, 1971-yilga kelib, AQSH oltin zaxirasi miqdori belgilangan chegaraviy darajaga (10 mlrd. dollar) yaqinlashib qolgan edi.

AQSH Prezidenti R.Nikson, Federal zaxira tizimining Prezidenti A.Byornsnинг qat’iy iltimoslariga qaramasdan, M.Fridmenning takliflarini qabul qildi. Buning natijasida, 1971-yil 15-avgustda oltin bozorida intervensiya qilish to‘xtatildi, baholar va ish haqining o’sishiga nisbatan 90 kunlik moratoriyl e’lon qilindi va importga nisbatan 10 foizlik soliq joriy qilindi. Bu esa, Bretton-Vuds jahon valyuta tizimiga berilgan juda kuchli zarba edi.

1976–1978-yillarda Yamaykada bo‘lib o’tgan xalqaro konferensianing natijalariga ko‘ra, To‘rtinchi jahon valyuta tizimi tashkil topdi.

Uning muhim natijalari quyidagilardan iborat:

1. Qat’iy belgilangan kurslar tizimi bekor qilindi va natijada barcha valyutalarni erkin suzish rejimiga o’tkazish tavsiya qilindi.

AQSH dollarining oltinga almashtirib berish tartibining bekor qilinishi bilan qat'iy belgilangan kurslar tizimi barham topdi.

2. Germaniya markasi va Yaponiya ieniga xalqaro rezerv valyutalar maqomi berildi.

3. Oltinni demonetizatsiya qilish jarayoni rasman tugallandi. Ya'ni, oltindan xalqaro munosabatlarda to'lov vositasi sifatida foydalanish ta'qiqlandi.

4. SDRning xalqaro to'lov vositasi sifatidagi rolini oshirishning zarurligi asoslandi.

SDRning o'z qiymati bo'limganligi sababli, uning qiymati valyuta savati bo'yicha aniqlanadi.

2.1-jadval

SDRning valyuta savati¹

Davrlar	AQSH dollari	Yevro	Yena	Funt sterling
1999-2000	0,5820 (39 %)	0,3519 (32 %)	27,2 (18 %)	0,1050 (11 %)
2001-2005	0,5770 (44 %)	0,4260 (31 %)	21,0 (14 %)	0,0984 (11 %)
2006-2010	0,6320 (44 %)	0,4100 (34 %)	18,4 (11 %)	0,0903 (11 %)
2011-2015	0,6600 (41,9%)	0,4230 (37,4%)	12,1000 (9,4%)	0,1110 (11,3%)

1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rindiki, SDRning valyuta savati har 5 yilda ko'rib chiqiladi va unda AQSH dollarining salmog'i sezilarli darajada yuqoridir. Bu esa, AQSH dollarining xalqaro hisob-kitoblardagi salmog'ining yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

To'rtinchi jahon valyuta tizimining hozirgi, zamonaviy bosqichida AQSH dollari va yevro yetakchi rezerv valyutalar bo'lib turibdi. Ammo har ikkala rezerv valyutaning almashuv kurslarining nobarqarorligi xalqaro valyuta munosabatlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Biroq, xallqaro rezerv valyutalar atalmish Buyuk Britaniya funt sterlingi va Shveytsariya frankining nominal almashuv kursining

¹ www.imf.org. Sayti ma'lumotlari.

barqarorligi kuzatilmoqda. Buning ustiga, Kanada dollari va Avstraliya dollari ham rezerv valyuta bo'lishga da'vegar bo'lib turibdi.

2.5. O'zbekiston Respublikasi valyuta tizimi

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy valyuta tizimi 1994-yilning 1-iyulidan boshlab, ya'ni milliy valyuta-so'mning muomalaga kiritilishi bilan shakllandi.

1991-yilda O'zbekiston tarixiy g'alabaga-siyosiy mustaqillikka erishdi. Ammo iqtisodiy mustaqillikka erishishning iloji bo'lindi. Chunki, har qanday mamlakat iqtisodiy mustaqilligining muhim belgisi bo'lgan milliy valyutani muomalaga kiritishning iloji bo'lindi. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. 1991-yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasini 60 foizdan ortiq qismi Rossiya Federatsiyasining hissasiga to'g'ri kelar edi. Bunday sharoitda "rubl zonasi"da qolish orqali Rossiyadan import qilinayotgan tovarlarni rublda to'lash va shuning asosida xorijiy valyutadagi zaxiralarни tejab qolish mumkin edi.

1991-yilda O'zbekiston siyosiy mustaqillikka erishdi, ammo iqtisodiy mustaqillikka erisha olmadi. Chunki, milliy valyutani muomalaga krita olmadik. Mustaqil O'zbekiston davlatining asoschisi, mamlakat Prezidenti I.A. Karimov qat'iy turib, O'zbekiston rubl hududida qoladi, degan fikrni aytdilar. Ushbu xulosaning naqadar asosli va to'g'ri ekanligini vaqt ko'rsatdi. Ya'ni, O'zbekiston rubl hududida qolish natijasida to'lov balansining holatini keskin yomonlashishiga yo'l qo'ymadi.

2. O'zbekiston Markaziy bankida milliy valyutani muomalaga chiqarish va pul muomalasini tartibga solish borasida hech qanday tajriba yo'q edi. Sobiq Ittifoq davrida pul muomalasini tashkil qilish va tartibga solish masalalari bilan faqat Ittifoq Davlat banki shug'ullangan. Ittifoqdosh Respublikalarda bu borada hech qanday vakolat bo'lмаган.

Umuman olganda, sobiy Ittifoq davridagi ijtimoiy va iqtisodiy ahvolimiz ayanchli edi.

1989-1991-yillarda respublikamizda yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishi amaldagi 5,2 foizdan 1,6 foizgacha pasaydi. Sanoat ishlab chiqarishining yillik o'sish sur'ati esa, mazkur davrda 5,8 foizdan 2,8 foizga qadar pasaydi.

Mustaqillik arafasida O'zbekistonning eksport salohiyati juda past edi. O'zbekistonning sobiq Ittifoq eksportidagi ulushi atigi 3,3 foizni tashkil etar edi. Holbuki, iqtisodiy salohiyat jihatidan O'zbekiston Ittifoqda mavjud 15 respublika ichida to'rtinchi o'rinda turar edi (Rossiya, Ukraina va Belorussiyadan keyin).

Buning ustiga, eksport tarkibi xomashyo mazmuniga ega bo'lib, paxta tolasini eksport qilish asosiy o'rinni egallar edi.

Achinarli jihat shundaki, paxta tolasini eksport qilish natijasida olingan valyuta tushumlari to'liq Moskvada, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida qolar edi.

Byudjet siyosati sohasidagi vaziyatimiz ham ayanchli edi. 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining kamomadi uning umumiy xarajatlariga nisbatan 44 foizni tashkil qilar edi. Bu esa, nihoyatda salbiy ko'rsatkich bo'lib, xalqaro amaliyotda bu ko'rsatkichning me'yoriy darajasi 8 foizni tashkil qiladi.

1993–1996-yillarda mamlakatda baholarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatildiki, buning natijasida mamlakat korxonalarini faoliyatiga va aholining turmush darajasiga nisbatan salbiy ta'sir yuzaga keldi. 1992-yilda chakana baholar 9,1 martaga, 1993-yilda 8,8 martaga oshdi. 1993-yilning ikkinchi yarmida ulgurji baholarning o'rtacha oylik o'sish sur'ati 131,4 foizni tashkil etdi.

1994-yilda inflyatsiya darajasi o'z cho'qqisiga chiqdi va uning yillik darajasi 1282 foizni tashkil etdi. Bu haqiqiy giperinflyatsiya edi.

Bizga ma'lumki, infliyatsiyaning yillik darajasi 1000 foizni tashkil qilsa va undan oshsa, bu giperinflyatsiya hisoblanadi. Giperinflyatsiya esa, infliyatsiyaning eng yuqori darajasi hisoblanadi.

Inflyatsiya darajasi juda yuqori bo'lganligi sababli, tovar ishlab chiqaruvchilarning real daromadlari miqdorining kamayishi yuz berdi. Natijada soliqqa tortish bazasining qisqarishi yuz berdi. Buning oqibatida davlat qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini yuqori darajada, ya'ni 25 % darajasida saqlab turishga majbur bo'ldi. Bu esa, tovarlar baholarini yanada oshishiga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi valyuta tizimi yaxlit tizim sifatida shakllangan va u quyidagi elementlardan tashkil topgan.

1. Milliy valyuta-so'm.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi PF-870-sonli "O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, so'm 1994-yilning 1-iyulidan boshlab muomalaga kiritildi. Amaldagi valyuta-so'm-kupon so'mga 1000 ga 1 nisbatda almashtirildi.

Muomaladagi pul belgilaringin barchasi banknotalar bo'lib. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining aktivlari bilan ta'minlangan. Respublikamizda xazina biletlari mavjud emas. Chunki, Moliya vazirligi pul emissiya qilish huquqiga ega emas.

2. Milliy valyuta - so'm, almashinish shartiga ko'ra, to'liq almashinadigan valyuta hisoblanadi.

2003-yilning 8-oktabridan boshlab, O'zbekiston Respublikasi hukumati Xalqaro valyuta fondi Kelishuv moddalarining VIII moddasi bo'yicha majburiyatlarni qabul qilgan. Shunga muvofiq, 2003-yilning 15-oktabridan boshlab, joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha valyutaviy cheklashlar bekor qilingan.

3. Milliy valyuta – so'm boshqariladigan suzish rejimiga ega.

2013-yilda valyuta almashuv kursining o‘zgarib boruvchi boshqariladigan usulini qo‘llash orqali so‘m almashuv kursining maqsadli koridor doirasida bo‘lishi ta’minlandi¹.

4. Milliy valyutaning pariteti.

So‘mning pariteti uning xarid qobiliyatini AQSH dollarining xarid qobiliyati bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Chunki, so‘mning nominal almashuv kursi AQSH dollariga nisbatan aniqlanadi. Bunda so‘m to‘g‘ri kotirovkaga ega.

5. Mamlakatning xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobilligi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobil hisoblanadi.

2013-yil yakunlari bo‘yicha respublikamizda davlatning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi².

6. Mamlakatda valyutaviy cheklashlarning mavjudligi yoki yo‘qligi.

O‘zbekiston Respublikasida to‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limi bo‘yicha valyutaviy cheklovlar bekor qilingan, ammo kapitallar va kreditlarning harakat balansi bo‘yicha valyutaviy cheklovlar mavjud.

7. Milliy valyuta bozori va oltin bozorining rejimi.

O‘zbekiston Respublikasi valyuta bozori Respublika valyuta birjası va birjadan tashqari valyuta bozoridan iborat.

1994-yilning 15-apreldan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasida doimiy savdolarni o‘tkazish va uning natijasi bo‘yicha so‘m-kuponning, keyinchalik so‘mning chet el valyutalariga nisbatan qiymatini e’lon qilish joriy qilindi.

¹ 2013-yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2014-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari // Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2014. - №1. - B. 19.

² Karimov I.A. 2014-yil yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini davom ettirish yili bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. - B. 5.

Valyuta birjasidagi savdolar haftasiga ikki marotaba, 1997-yil aprel oyidan boshlab esa, har kuni o'tkazila boshlandi¹.

Respublikamizda oltin savdosiga nisbatan davlat monopoliyasi mavjud bo'lganligi sababli oltin bozori yo'q.

8. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini belgilash.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Respublika hududida esa, barcha hisob-kitoblar va to'lovlar milliy valyutada amalga oshiriladi.

9. Mamlakatda xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi davlat organlari.

O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank valyutani tartibga soluvchi organ hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat Bojxona qo'mitasi esa, valyutani nazorat qiluvchi organlardir.

Tayanch so'z va iboralar

Valyuta munosabatlari; xalqaro savdo; transmilliy banklar; valyuta tizimi, valyuta intervensiysi, valyuta savati, deflyatsion siyosat, demonetizatsiya, oltin standarti, oltin-deviz standarti, rezerv valyuta, qat'iy belgilangan kurslar tizimi, erkin suzish rejimi.

Takrorlash uchun savollar

1. Valyuta munosabatlari nima va uning qanday yuzaga kelish asoslari mavjud?

2. Xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

¹ O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. F.M. Mullajonov tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston. 2011. - B. 132.

3. Valyuta tizimi nima?
4. Valyuta tizimining qanday turlari mavjud?
5. Milliy valyuta tizimi qanday elementlardan tashkil topadi?
6. Yevropa valyuta tizimi nima maqsadda tashkil etilgan?
7. Yevropa valyuta tizimida valyuta intervensiysi qay tartibda amalga oshiriladi?
8. Birinchi jahon valyuta tizimida qanday natijalarga erishilgan?
9. Ikkinci jahon valyuta tizimida qanday natijalarga erishilgan?
10. Uchinchi jahon valyuta tizimida qanday natijalarga erishilgan?
11. To'rtinchi jahon valyuta tizimida qanday natijalarga erishilgan?
12. O'zbekiston Respublikasi valyuta tizimi qanday elementlardan tashkil topgan?

Mustaqil o'rGANISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Valyuta munosabatlari va unga ta'sir etuvchi omillar.
2. Juhon iqtisodiy inqirozlarining xalqaro valyuta munosabatlariga ta'siri.
3. Valyuta tizimi va uning turlari.
4. Milliy valyuta tizimi va uning elementlari.
5. Yevropa valyuta tizimi va uning amal qilish mexanizmi.
6. Yevropa valyuta tizimining evolyutsiyasi va yevroning muomalaga kiritilishi.
7. Juhon valyuta tizimi va uning xalqaro valyuta munosabatlari rivojlantirishdagi ahamiyati.
8. Juhon valyuta tizimining evolyutsiyasi.
9. O'zbekiston Respublikasi valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi.

III BOB. TO'LOV VA HISOB-KITOB BALANSLARI

3.1. To'lov balansi va uni tuzish metodologiyasi

To'lov balansi – bu mamlakatga xorijdan kelib tushgan va xorijga to'lab berilgan valyutalarning haqiqatdagi summasi aks ettiriladigan hujjatdir.

XVF to'lov balansini statistik hisobot shakli deb hisoblaydi.

To'lov balansi xalqaro hisob-kitoblar balansining muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

To'lov balansida ikki yo'nalishdagi valyuta oqimi o'z ifodasini topadi:

1. Xorijiy valyutalardagi tushumlar.
2. Xorijiy valyutalardagi to'lovlar.

To'lov balansi mamlakatning tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darajasini, jahon savdosidagi, xalqaro kapitallar va kreditlar harakatidagi o'mini ko'rsatadi.

Masalan, to'lov balansida import qilingan tovarlar va xizmatlar uchun to'lov summasini eksport tushumidan yuqori bo'lishi mamlakatning xalqaro savdodagi mavqeining pasayayotganligidan dalolat beradi. Yoki mamlakatda xorijiy investitsiyalarga bo'lgan talabning oshishi xorijiy investitsiyalar kirimining ularning chiqimidan yuqori bo'lishiga olib keladi. Xalqaro kreditlarning harakati bo'yicha ham shunday holatni kuzatish mumkin.

To'lov balansining holati bevosita milliy valyutaning nominal almashuv kursiga, ishlab chiqarishga, iste'molga, aholi bandligi va inflyatsiya darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

To'lov balansida to'lovlar summasini tushumlar summasidan katta bo'lishi mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari miqdorining kamayishiga olib keladi. Buning natijasida mamlakat milliy valyutasining nominal almashuv kursiga nisbatan kuchli bosim yuzaga keladi. Buning natijasida milliy valyuta qadrsizlanishi mumkin.

Shuningdek, to'lov balansida to'lovlar summasini tushumlar summasidan katta bo'lishi inflyatsiya darajasini oshirishga xizmat qiluvchi omil bo'lishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan holatlar to'lov balansining holatini mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli, to'lov balansining muvozanatlashgan holatini, ya'ni xorijiy valyutadagi to'lovlar va tushumlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

To'lov balansini tuzish ikki yoqlama yozuvga asoslanadi. Ya'ni, bunda har bir operatsiya ikki marta aks ettiriladi: bir hisob raqamning debetida, ikkinchi hisob raqamning esa kreditida aks ettiriladi. Bunda kreditli o'tkazmalarning jami summasi debetli o'tkazmalarning jami summasiga teng bo'lishi va yakuniy saldo nolga teng bo'lishi shart. Kreditli va debetli o'tkazmalar o'rtasidagi farq summasi sof xatoliklar deb ataladi.

3.1-jadval

To'lov balansida operatsiyalarini aks ettirish tartibi¹

Operatsiya	Kredit-plyus (+)	Debet – minus (-)
A. Tovarlar va xizmatlar	Tovarlar va xizmatlar eksporti (nerezidentlarga xizmat ko'rsatish)	Tovarlar va xizmatlar importi (nerezidentlarga xizmat ko'rsatish)
B. Investitsiyalardan bo'yicha daromadlar va mehnatga haq to'lash	Rezidentlar tomonidan nerezidentlardan olingan	Rezidentlar tomonidan nerezidentlarga to'langan
V. Transfertlar (joriy va kapital)	Mablag'larni olish	Mablag'larni uzatish
G. Moliyaviy aktivlar va majburiyatlar bo'yicha operatsiyalar	Nerezidentlar oldidagi majburiyatlarning ko'payishi (masalan, nerezidentlar tomonidan naqd milliy valyutani sotib olinishi) yoki	Nerezidentlarga nisbatan talablarning ko'payishi (masalan, nerezidentlarga kredit berish) yoki nerezidentlar oldidagi majburiyatlarni kamayishi

¹ Монсеев С.Р. Международные валютно-кредитные отношения. – М.: Дело и Сервис, 2007. - С. 340-341.

	norezidentlarga nisbatan talablarni kamayishi (masalan, norezident banklardagi hisob raqamlarning qoldig'ini kamayishi)	(masalan, rezidentlar tomonidan norezidentlardan sotib olingan qimmatli qog'ozlarni qoplanishi)
--	--	---

3.1-jadvaldan ko'rindaniki, har bir operatsiya turi bir vaqtning o'zida debetli va kreditli o'tkazmalar shaklida aks ettirilmoqda.

Shuningdek, to'lov balansini tuzishda rezidentlar va norezidentlar bo'yicha talablar va majburiyatlar alohida hisobga olinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunining 4-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari quyidagilar hisoblanadi:

- * O'zbekiston Respublikasining fuqarolari;
- * O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar;
- * O'zbekiston Respublikasining hududida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar;
- * O'zbekiston Respublikasining immunitet va diplomatik imtiyozlardan foydalananadigan xorijdagi diplomatiya hamda boshqa vakolatxonalari.

To'lov balansini tuzish uchun quyidagi ma'lumotlar manbaidan foydalilanadi:

1. Bojxona statistikasi.
2. Markaziy bank tomonidan shakllantiriladigan iqtisodiyotning pul sektorini statistikasi.
3. Tashqi qarz statistikasi.
4. Xorijiy valyutalar bilan amalga oshirilgan operatsiyalar statistikasi.

3.2. To'lov balansining tarkibi

To'lov balansi to'rt bo'limdan tashkil topadi:

1. Joriy operatsiyalar balansi.

2. Transfertlar balansi.

3. Kapitallar va kreditlarning harakati balansi.

4. Oltin-valyuta zaxiralarining harakati balansi.

Joriy operatsiyalar balansining o‘zi ikki qismidan tashkil topadi:

1. Savdo balansi.

2. Xizmatlar va notijorat mazmunidagi to‘lovlar balansi.


Savdo balansida eksport bo‘yicha tushumlar va import bo‘yicha to‘lovlarning haqiqatdagi summasi aks etadi.

Savdo balansining passiv bo‘lishi, ya’ni import bo‘yicha to‘lovlarning eksportdan olingan tushumlar summasidan katta bo‘lishi mamlakatning jahon savdosidagi mavqeining zaiflashganligidan yoki zaifligidan dalolat beradi. Bunga yorqin misol qilib AQSHni keltirish mumkin. Ikkinchisi jahon urushidan keyin AQSH tovarlarni eksport qiluvchi gegemon davlatga aylandi. Ayniqsa, Yevropaga texnika va texnologiyalarni yirik miqdorda eksport qilinishi AQSH savdo balansining katta miqdordagi ijobiy saldosini ta’minladi.

Ikkinchisi jahon urushidan keyingi dastlabki davrlarda Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy ahvoli nochor edi. Ularning eksport salohiyati past bo‘lib, sanoat mahsulotlari importiga bo‘lgan talabi juda yuqori edi. Ularning to‘lov balansini joriy operatsiyalar bo‘limining defisiti miqdori juda katta bo‘lib, 1947-yilning oxiriga kelib 9 mlrd. AQSH dollariga yetdi. AQSH esa, bu davrda sanoat mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha bosh davlatga aylangan edi.

Shuningdek, Ikkinchisi jahon urushidan keyin Yevropa mamlakatlarining oltin zaxirasi ham deyarli tugab bo‘ldi. Chunki, urush paytida yetkazib berilgan tovarlar oltinda to‘lanar edi. Buning ustiga, 1945–1947-yillarda Yevropada kuchli dollar taqchilligi yuzaga keldi. Buning sababi shundaki, birinchidan, bu davrda Yevropada AQSHga eksport qilish mumkin bo‘lgan raqobatbardosh tovarlar mavjud emas edi; ikkinchidan, AQSH savdo balansi yirik miqdorda ijobiy saldogaga ega edi.

Ikkinchi jahon urushidan hozirga qadar, ya’ni 2013-yilga qadar AQSH dunyoning eng yirik eksportyor davlatlaridan biri bo‘lib qoldi (3.1-rasm).



3.1-rasm. Dunyoning 3 eng yirik eksportyor mamlakatida eksportning yillik hajmi, mlrd. AQSH dollar¹ (2012-yilning 1-yanvar holatiga)

3.1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, AQSH dunyoda eksport hajmi bo‘yicha Xitoydan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Bu esa, AQSHning hamon yirik eksportyor mamlakat ekanligini ko‘rsatadi.

Ammo XX asrning 70-yillaridan boshlab, AQSH savdo balansining ijobiy saldosи kamaya boshladи va ushbu holat xalqaro savdoda AQSH mavqeining pasayib borayotganligidan dalolat berar edi.

XX asrning 80-yillaridan boshlab, AQSH savdo balansi salbiy saldoga ega bo‘la boshladи va defisит miqdorining o’sish tendensiyasi kuzatildi. Chunki, bu vaqtда Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Hindiston, Janubiy Koreya, Singapur kabi qator davlatlarning kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar AQSH tovarlarini jahon bozorlaridan

¹ <http://www.trade.gov>. Sayti ma’lumotlari.

siqib chiqara boshladi hamda ushbu tovarlarning AQSHga eksporti hajmi yuqori sur'atlarda o'sa boshladi.

Yaponiya, Xitoy hukumatlarining milliy valyutaning kursini past darajada saqlab turishga qaratilgan siyosati ularning AQSH bilan o'zaro savdo munosabatlaridagi ustunligini ta'minlamoqda. Ayniqsa, Xitoy hukumati milliy valyuta – yuanning AQSH dollariga nisbatan kursini past darajada saqlab turish siyosatini olib borish orqali mamlakatdan eksport qilinayotgan tovarlarning yuqori darajadagi raqobatbardoshligini ta'minlamoqda. Bu esa, AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari rahbarlarining qattiq noroziligiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, ular Xitoy hukumatidan yuanni revalvatsiya qilishni talab etishmoqda. Ammo hozircha Xitoy bunga rozi bo'lgani yo'q.

AQSHning Xalqaro iqtisodiyot instituti mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, yuanning 20 foizga revalvatsiya qilinishi AQSHning Xitoy bilan o'zaro savdo munosabatlarida yuzaga kelgan defisitni qariyb 50 foizga, ya'ni teng yarmiga kamaytirish imkonini beradi¹.

2012-yilda Xitoy jahon savdosining yetakchisiga aylandi. Ya'ni, u tashqi savdo aylanmasining dunyoda birinchi o'ringa chiqdi (3,87 trln. doll.). AQSHning savdo aylanmasi esa, 2012-yil yakuni bo'yicha 3,82 trln. dollarni tashkil etdi².

3.2-jadval

Xitoy, AQSH va Germaniyaning tashqi savdo aylanmasi, mlrd. AQSH dollari³, 2012-yilning 1-yanvar holatiga

Davlatlar	Eksport	Import	Saldo (-) (+)
AQSH	1480	2266	- 786
Xitoy	1898	1743	+ 155
Germaniya	1472	1254	+ 218

¹ Моисеев С.Р. Международные валютно-кредитные отношения. Учебное пособие. 2-е изд. – М.: Дело и Сервис, 2007. - С. 315.

² <http://www.trade.gov>. <http://english.customs.gov>. sayti ma'lumotlari.

³ <http://www.trade.gov>. sayti ma'lumotlari asosida hisoblandi.

3.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rindaniki, AQSH savdo balansida juda katta miqdorda defisit mavjud. Xitoy va Germaniyaning savdo balansida esa, katta miqdorda profisit mavjud. Bu esa, AQSHning xalqaro savdodagi mavqeining past ekanligidan, Xitoy va Germaniyaning esa, katta mavqeiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Xizmatlar va notijorat mazmunidagi to'lovlar balansida xorijiy valyutadagi tushumlar va to'lovlarning quyidagi turlari o'z ifodasini topadi:

- transport, pochta, telegraf, telefon xizmati;
- sug'urta;
- turizm;
- xorijiy davlatlarda diplomatik, savdo va boshqa vakolatxonalarни ochish hamda ularni saqlash;
- xorijiy davlatlar hududida harbiy qismlar saqlash;
- madaniy aloqalar
- olingan xalqaro kreditlarga foiz to'lash;
- jalg qilingan xorijiy investitsiyalarga dividendlar to'lash;
- boshqalar.

Transfertlar balansida bir tomonlama to'lovlar, ya'ni transfert to'lovleri aks ettiriladi.

Transfertlar to'lov balansida ikki turdag'i to'lovlar sifatida o'z aksini topadi:

1. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar – boshqa mamlakatlarga iqtisodiy yordam ko'rsatish va xalqaro tashkilotlarga badallar to'lash.

2. Xususiy pul o'tkazmalari.

Bunga o'zga yurtlarda mehnat qilayotgan jismoniy shaxslarning pul o'tkazmalari kiradi.

Dunyo bo'yicha migrantlarning assosiy qismi AQSH, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shveytsariya, Rossiya, Janubiy Afrika Respublikasi kabi mamlakatlarda mehnat qilishiadi. Shu sababli, mazkur mamlakatlar to'lov balansining xususiy o'tkazmalar moddasi defisitlidir.

Italiya, Turkiya, Gretsiya, Portugaliya, Ispaniya, Pokiston, Misr kabi mamlakatlar fuqarolarining katta qismi xorijda mehnat qilishadi. Shu boisdan, ushbu mamlakatlar to‘lov balansining xususiy o‘tkazmalar moddasi profisitga egadir.

Kapitallar va kreditlarning harakat balansida tadbirkorlik va ssuda kapitalining harakati bilan bog‘liq bo‘lgan tushumlar va to‘lovlari summasi aks etadi.

Tadbirkorlik kapitali ikki shaklda mavjud bo‘ladi:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar.
2. Xorijiy portfelli investitsiyalar.

Asbob-uskunalar sotib olish va obyektlarni qurish maqsadida ja‘b etilgan xorijiy investitsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar deyiladi.

Qimmatli qog‘ozlarni xorijlik investorlarga sotish yo‘li bilan ja‘b etilgan xorijiy investitsiyalar portfelli xorijiy investitsiyalar deyiladi.

Ssuda kapitalining harakati xalqaro kreditlarning muddatiga ko‘ra tasniflanadi va to‘lov balansining ushbu bo‘limida ikki shaklda mavjud bo‘ladi:

1. Qisqa muddatli xalqaro kreditlar (1 yilgacha muddatga ega bo‘lgan xalqaro kreditlar).

2. Bir yildan ortiq muddatga ega bo‘lgan xalqaro kreditlar.

Shuningdek, mamlakat banklarining xorijiy banklardagi “Nostro” vakillik hisobarqamidagi mablag‘lar va xorijiy banklarga joylashtirilgan depozitlari ham to‘lov balansining ssuda kapitali harakati qismida aks etadi.

Oltin-valyuta zaxiralaring harakat balansi rasmiy oltin-valyuta zaxiralaring o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Rasmiy oltin-valyuta zaxiralariiga quyidagilar kiradi:

- oltin;
- xorijiy valyutadagi zaxiralari;
- xalqaro hisob birliklari.

Mamlakatda to‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limida profisitning mavjudligi, kapitallar va kreditlarning harakatida

mutanosiblikning ta'minlanmaganligi rasmiy oltin-valyuta zaxiralarining kamayishiga sabab bo'ladı. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning xalqaro valyutaviy likvidliligining pasayishiga, moliyaviy inqiroz holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladı.

3.3. To'lov balansining defisiti va uni qoplash usullari

To'lov balansining defisiti deganda uning joriy operatsiyalar balansi hamda kapitallar va kreditlarning harakati balansi bo'yicha to'lovlarning tushumlardan katta bo'lishiga aytiladi. Shu sababli, to'lov balansining defisiti summasi mamlakat Markaziy banki tomonidan xorijiy valyutalarni sof sotish summasiga teng.

To'lov balansi defisitini qoplashning ikki usuli mavjud:

1. Vaqtinchalik usul.

Vaqtinchalik usulga quyidagilar kiradi:

- xalqaro kreditlar jalb etish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- oltinni garovga qo'yish yo'li bilan xalqaro kreditlar olish.

2. So'nggi usul.

So'nggi usulga quyidagilar kiradi:

- oltinni sotish;
- rasmiy valyuta zaxiralarini ishlatish.

Vaqtinchalik usul orqali to'lov balansining defisitini qoplash nisbatan afzal usul bo'lib, mamlakatning rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini kamayishini oldini oladi.

AQSH to'lov balansining defisitini qoplashda xorijiy portfelli investitsiyalarni jalb etishdan keng ko'lamda foydalanadi. Bunda AQSH hukumatining uzoq muddatli obligatsiyalari xorijlik investorlarga sotiladi. Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Saudiya Arabistonni kabi davlatlar AQSH uchun yirik investorlar hisoblanadi.

Ayrim davlatlar o'zlarining oltin zaxiralarini garovga qo'yish yo'li bilan xalqaro kreditlarni jalb etadilar. Masalan, Portugaliya 1974-yilda 20 tonna oltinni garovga qo'yish yo'li

bilan Shveytsariya banklaridan katta miqdorda xalqaro kreditlar olgan.

O'zbekiston Respublikasida to'lov balansini muvozanatlashirishda xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlar jalg etish usulidan faol foydalanimoqda. Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg etishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2012-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalg etilgan xorijiy investitsiyalarning 79 foizdan ko'prog'ini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etdi¹.

Agar mamlakat xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlarni keng ko'lamba jalg etish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u holda, u rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini ishlatish yo'li bilan, ya'ni so'nggi usulidan foydalangan holda to'lov balansining defisitini qoplashga majbur bo'ladi. Bu esa, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Agar mamlakat to'lov balansining defisitini qoplashning har ikkala usulidan foydalinish uchun hech qanday imkoniyatga ega bo'lmasa, u holda, ushbu mamlakat qashshoqlikka, chuqur tanazzulga yuz tutadi.

To'lov balansining defisitini kamaytirishda davlat byudjet-soliq va pul-kredit siyosatidan foydalanganadi.

Byudjet – soliq siyosati doirasida, odatda, quyidagi tadbirlar to'lov balansining defisitini kamaytirish maqsadida qo'llaniladi:

- eksportyorlarga byudjet subsidiyalari berish;
- import qilinadigan tovarlarga nisbatan belgilangan boj solig'i stavkalarini oshirish.
- investorlarning qimmatli qog'ozlardan olinadigan foizli daromadlarini soliqqa tortmaslik.

Pul-kredit siyosati doirasida Markaziy bankning hisob stavkasini oshirish yo'li bilan xorijiy valyutadagi mablag'larni mamlakatga kirib kelish hajmini oshirish usulidan keng foydalaniladi.

¹ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. - B.7.

Markaziy bankning hisob stavkasini oshirilishi tijorat banklari depozitlari va kreditlarining foiz stavkalarini oshishiga olib keladi. Bu esa, xorijiy kapitalni yuqori daromad olish maqsadida mamlakatga kirib kelishiga turtki beradi. Markaziy bankning hisob stavkasi o'zgarmagan mamlakatlar to'lov balansida esa, to'lovlar miqdori keskin ortadi.

1992-yilning sentabr oyida G'arbiy Yevropada yuz bergan valyuta inqirozining oqibatlaridan biri bo'lib, Buyuk Britaniya va Italiya davlatlarining to'lov balansining holatini keskin yomonlashib ketishi hisoblanadi. Ya'ni, G'arbiy Yevropa mamlakatlari Markaziy banklarining hisob stavkalarining darajalarida sezilarli farqning yuzaga kelishi natijasida Buyuk Britaniya, Italiya va Ispaniyadan kapitallarni boshqa davlatlarga ko'chib o'tishi yuz berdi.

Milliy valyutaning nominal va real almashuv kurslarining o'zgarishi to'lov balansining defisiti miqdorining o'zgarishiga bilvosita va kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Milliy valyutaning nominal almashuv kursining pasayishi, ya'ni xorijiy valyutalarga nisbatan qadrsizlanishi import to'lovlari hajmining oshishiga, investitsiyalarni moliyalashtirish samaradorligini pasayishiga olib keladi.

Milliy valyutaning real almashuv kursining oshishi mamlakatdan eksport qilinayotgan tovarlarning qimmatlashuviga olib keladi. Buning natijasida eksport tushumi kamayib, savdo balansida defisit yuzaga kelishi mumkin. Masalan, 2006-2011-yillarda o'zbek so'mining real almashuv kursi AQSH dollariga nisbatan 27,1 foizga, Ukraina grivnasiga nisbatan 29,8 foizga, Rossiya rubliga nisbatan 3,5 foizga oshdi¹. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning eksport salohiyatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

To'lov balansining defisiti darajasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan yana biri – bu mamlakatda siyosiy vaziyatning yomonlashuvidir. Siyosiy vaziyatning yomonlashuvi (davlat

¹ Mualliflarnig hisob-kitoblari.

to'ntarishi, inqiloblar va h.k.) mamlakatdan kapitallarni yirik miqdorda chiqib ketishiga va kapitallar kirimining kamayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, to'lov balansi defisiti miqdorining oshishiga sabab bo'ladi.

Urushga tayyorgarlik mamlakatlarning to'lov balansiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Buning sababi shundaki, urushga tayyorgarlik katta miqdordagi xarajatni moliyalashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ushbu xarajatlarni moliyalashtirish esa, o'z navbatida, mamlakat hukumatini yirik miqdordagi oltin va xorijiy valyutalardagi mablag'larni to'plashga majbur qiladi. Buning natijasida importni cheklash, xorijiy valyutalar savdosiga nisbatan cheklovlar o'matish, kapitallarni chetga chiqib ketishini ta'qiqlash kabi choralar qo'llaniladi. Bundan tashqari, mamlakat iqtisodiyotini harbiy izga ko'chirish ishlab chiqarishni izdan chiqishiga, eksportni keskin qisqarishiga sabab bo'ladi. Traktor ishlab chiqaradigan zavodlar tank ishlab chiqarishga, mebel ishlab chiqaradigan zavodlar esa, snaryad ishlab chiqarishga moslashtiriladi.

Eksportining hajmida xom-ashyo resurslarining ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarning to'lov balansi tashqi ta'sirlarga beriluvchan bo'ladi. Jahon bozorlarida xom-ashyolar baholarining pasayishi natijasida mazkur mamlakatlarning eksport tushumi keskin kamayadi va buning oqibatida to'lov balansining holati yomonlashadi. Shu sababli, eksportni diversifikatsiya qilish to'lov balansini muvozanatlashtirish nuqtai-nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tashkilotlar yoki alohida olingan mamlakatlar guruhi tomonidan qo'llaniladigan iqtisodiy sanksiyalar ushbu sanksiya qo'llanilayotgan davlatning to'lov balansiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, iqtisodiy sanksiya natijasida ushbu mamlakatning eksport qilish imkoniyati keskin pasayadi. Hozirgi davrda Eronga nisbatan AQSH va Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llanilayotgan iqtisodiy sanksiya uning asosiy eksport moddasi bo'lgan gazni eksport qilish imkoniyatini

cheklab qo'ydi. Bu esa, o'z navbatida, gazni eksport qilishdan olinadigan valyuta tushumini keskin kamayishiga olib keldi va to'lov balansining holatiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltirdi.

To'lov balansining muvozanatini ta'minlashda qoplovchi (kompensatsion) moddalarning mavjudligi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Masalan, AQSHda to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limi yirik miqdordagi defitsit kapitallar va kreditlarning harakat balansidagi ijobiy qoldik hisobidan qoplanadi. Misr Arab Respublikasida esa, Suvaysh kanalidan va turizmdan olinadigan katta miqdordagi valyuta mablag'lari to'lov balansining qoplovchi moddalari hisoblanadi. Ammo ayrim mamlakatlarda, xususan, Afrikaning Saxara davlatidan janubda joylashgan mamlakatlarda iqtisodiy ahvol og'ir bo'lib, ularning to'lov balansi doimiy defitsitga ega.

Garchi, dunyo bo'yicha suv yo'li bilan tashiladigan yuklarning 50 foizdan ortiq qismi AQSHning savdo flotiliyasiga tegishli kemalar bilan tashilayotgan bo'lsa-da, AQSH to'lov balansining "Dengiz transporti" moddasi defitsitga ega. Buning sababi shundaki, AQSH kemalari boshqa davlatlarning flotlariga ijara berilgan bo'lib, ular o'sha davlatlarning bayrog'i ostida suzadi.

Turkiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya davlatlarining fuqarolarini katta qismi G'arbiy Yevropada, xususan, Germaniya, Fransiya va Italiyada mehnat qilishadi. Shu sababli, ularning to'lov balansida "O'tkazmalar" moddasi katta miqdorda ijobiy qoldiqqa ega. Demak, ushbu modda o'ziga xos qoplovchi modda vazifasini o'taydi.

O'zbekiston Respublikasi to'lov balansida eksport, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosiy qoplovchi moddalar bo'lib hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasida yirik miqdordagi ijobiy saldo kuzatilmoxda. Xususan, 2013 yilda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosи 1mlrd. 200 mln.

AQSH dollarini tashkil etdi. Mazkur moliyaviy yilda respublikamizda, Investitsiya dasturi doirasida 13 mlrd. dollar qiymatidagi kapital quyilmalar o'zlashtirilib, sning 3 mlrd. dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi. Xorijiy investitsiyalarning 72 foizdan ziyodini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil qildi.

Umuman olganda, to'lov balansining defitsiti mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi va uni qoplashda asosan vaqtinchalik va so'nggi usullardan foydalaniladi.

Xalqaro valyuta bozorlari valyutaviy cheklashilar mavjud bo'lmagan mamlakatlarning yirik shaharlarida joylashgan: London (Buyuk Britaniya), Nyu-York (AQSH), Frankfurt-na-Mayne (GFR), Tokio (Yaponiya), Syurix (Shveytsariya) va h.k.

Valyuta operatsiyalarining hajmi bo'yicha dunyoning eng yirik oltin bozori bo'lib, London bozori hisoblanadi.

3.4. Xalqaro hisob-kitob balansi va uning tarkibi

Xalqaro hisob-kitob balansi – bu mamlakatning boshqa mamlakatlarga nisbatan xorijiy valyutalardagi talab va majburiyatlarining o'zaro nisbatidir.

Mamlakatdan tovarlar va xizmatlar eksport qilinganda, xorijiy davlatlarga investitsiya qilinganda, xalqaro kreditlar berilganda xorijiy valyutadagi talablar yuzaga keladi.

Mamlakatga boshqa davlatlardan tovarlar va xizmatlar import qilinganda, xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlar jalb qilinganda xorijiy valyutadagi majburiyatlar yuzaga keladi.

Xalqaro hisob-kitob balansining aktiv moddalari mamlakatning xorijiy valyutalardagi yangi talablari summasini ko'rsatadi. Passiv moddalar esa, mamlakatning boshqa mamlakatlar oldidagi yangi majburiyatlar summasini ko'rsatadi.

Xalqaro hisob-kitob balansi 2 shaklda tuziladi:

1. Ma'lum davrga tuzilgan hisob-kitob balansi.
2. Aniq sanaga tuzilgan hisob-kitob balansi.

Ma'lum davrga tuzilgan hisob-kitob balansi mamlakatning tahlil qilinayotgan davrdagi barcha xorijiy valyutadagi talab va majburiyatlarining umumiyligi summasini ko'rsatadi.

Aniq sanaga tuzilgan hisob-kitob balansida xorijiy valyutadagi talab va majburiyatlarning, ularni qachon yuzaga kelganligidan qat'iy nazar, ana shu sanadagi summalar aks etadi.

Aniq sanaga tuzilgan hisob-kitob balansi mamlakatning yilning istalgan sanasida netto-kreditor yoki netto-qarzdor ekanligini ko'rsatadi.

Agar hisob-kitob balansi aktiv bo'lsa, u holda, ushbu mamlakat aniq olingan sanada netto-kreditor ekanligini ko'rsatadi. Agar u passiv bo'lsa, u holda, mamlakat aniq olingan sanada netto-qarzdor hisoblanadi.

Hisob-kitob balansida o'z aksini topgan xorijiy valyutadagi talablar va majburiyatlar to'liq bajarilmasligi mumkin. Masalan, shartnomada ko'zda tutilgan hajmda tovarlar eksport yoki import qilinmasligi mumkin. Yoki olingan xalqaro kreditlarni qaytarishda muammo yuzaga kelganligi sababli xorijlik kreditorlar kredit liniyasini yopib qo'ygan bo'lishi mumkin.

Berilgan xalqaro kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytishi, olingan xalqaro kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi, xorijiy investitsiyalarning samaradorligining ta'minlanishi mamlakatning xorijiy valyutadagi moliyaviy oqimlarining barqarorligini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Ammo hisob-kitob balansida mazkur omillarning ta'sir darajasini hisobga olishning iloji yo'q.

Odatda, xalqaro hisob-kitob balansining yakuniy saldosini to'lov balansining yakuniy saldosiga mos kelmaydi. Bu esa, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Hisob-kitob balansida tovarlar eksporti va importining barcha summasi aks etadi. To'lov balansida esa, haqiqatda olingan eksport tushumi va haqiqatda to'langan import summasi aks etadi.

2. Hisob-kitob balansida tovarlar eksporti talab, importi esa, majburiyat hisoblanadi. To'lov balansida esa, eksport tushum qismida, import esa, to'lov qismida aks etadi.

3. Hisob-kitob balansida berilgan xalqaro kreditlar talab sifatida, olingan xalqaro kreditlar esa, majburiyat sifatida aks etadi. To'lov balansida esa, olingan xalqaro kreditlar tushum sifatida, berilgan xalqaro kreditlar esa, to'lov sifatida aks ettiriladi.

4. Hisob-kitob balansida mamlakatdan boshqa davlatlarga chiqarilgan investitsiyalar talab sifatida hisobga olinsa, to'lov balansida ushbu investitsiyalar to'lov sifatida inobatga olinadi.

5. Hisob-kitob balansida kredit hisobiga sotib olingan tovarlar majburiyat hisoblanadi va tovarlar importi tarkibida hisobga olinadi. To'lov balansida esa, xalqaro kredit hisoblanadi va tushum sifatida hisobga olinadi.

Tayanch so'z va iboralar

To'lov balansi; to'lov balansi defisiti; joriy operatsiyalar bo'limi; defisit; profisit; ssuda kapitali; tadbirkorlik kapitali; oltin-valyuta zaxiralari; eksport; import; saldo; netto-kreditor; netto-qarzdor; tarnsfert to'lovlari.

Takrorlash uchun savollar

1. To'lov balansini tuzish metodologiyasi nimalarga asoslanadi?

2. Joriy operatsiyalar balansida qaysi turdag'i to'lovlari va tushumlar aks etadi?

3. Transfertlar balansida qaysi operatsiyalar aks etadi?

4. Kapitallar va kreditlarning harakat balansida qaysi turdag'i to'lovlari va tushumlar aks etadi?

5. Oltin-valyuta zaxiralarining harakat balansida qaysi operatsiyalar aks etadi?

6. To‘lov balansining defisiti qanday aniqlanadi?
7. To‘lov balansi defisitini qoplashning qanday usullari mavjud?
8. Hisob-kitob balansining qanday turlari mavjud?
9. Hisob-kitob balansi qanday tarkibiy tuzilishga ega?
10. Nima sababdan hisob-kitob va to‘lov balanslarining saldosi o‘zaro mos kelmaydi.
11. Davlat to‘lov balansining defisitini qoplash maqsadida byudjet-soliq siyosati doirasida qanday tadbirlardan foydalanadi?
12. Davlat to‘lov balansining defisitini qoplash maqsadida pul-kredit siyosati doirasida qanday tadbirlardan foydalanadi?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. To‘lov balansini tuzish metodologiyasi.
2. To‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limi.
3. Kapitallar va kreditlarning harakati balansi va uning holatiga ta’sir etuvchi omillar.
4. To‘lov balansining defisitini qoplash usullari.
5. O‘zbekiston Respublikasining to‘lov balansi.
6. To‘lov balansining umumiy holatiga ta’sir etuvchi omillar.
7. Xalqaro hisob-kitob balansi va uning holatiga ta’sir etuvchi omillar.
8. Hisob-kitob balansini muvozanatlashirish yo‘llari.

IV bob. VALYUTA BOZORI VA VALYUTA OPERATSIYALARI

4.1. Valyuta bozori tushunchasi va uning turlari

Valyuta bozori deganda valyutalarni oldi-sotdi qilish maqsadida tashkil etilgan maxsus markazlarga aytildi.

Valyuta bozorining 3 turi mavjud:

1. Milliy valyuta bozori.
2. Mintaqaviy valyuta bozori.
3. Jahon valyuta bozori.

Milliy valyuta bozori 2 qismdan iborat bo'ldi:

1. Valyuta birjasi
2. Birjadan tashqari valyuta bozori.

O'zbekiston Respublikasining Valyuta birjasi respublikamizda birja bozori hisoblanadi.

Milliy valyutamiz-so'mning nominal almashuv kursi Respublika valyuta birjasida aniqlanadi.

Respublikamizda so'mning nominal birja kursi valyutalarning buyurtmali savdosi asosida amalga oshiriladigan oldi-sotdi mexanizmi orqali shakllanadi. Mazkur mexanizmning mohiyati shundaki, O'RVBga a'zo bo'lgan tijorat banklari ikki xildagi buyurtmalarni birjaga beradilar: a) AQSH dollarini sotib olish maqsadida so'mda berilgan buyurtmalar; b) AQSH dollarini sotish maqsadida berilgan buyurtmalar (dollarda berilgan buyurtmalar). Markaziy bankning Bosh dileri buyurtmalarni qabul qilishni to'xtatish to'g'risidagi buyruqni bergandan so'ng har ikkala xildagi buyurtmalar bo'yicha jami nominal miqdorlar aniqlanadi. Shundan keyin so'mda berilgan buyurtmalarning jami summasini AQSH dollaridagi buyurtmalar summasiga bo'lish yo'li bilan o'zbek so'mining 1 AQSH dollariga nisbatan nominal birja kursi aniqlanadi. So'mning valyuta kursini 1 AQSH dollariga nisbatan aniqlanayotganligi so'mning to'g'ri kotirovka rejimiga ega ekanligidan da'lolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nominal birja kursi tijorat banklarning xorijiy valyutalardagi aktiv va passivlarini qayta baholash, boj hisobi hamda moliyaviy va statistik hisobotlarni yuritish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar valyuta tushumlarining ma’lum qismini majburiy tartibda sotishda qo‘llaniladi.

Respublikamizda valyuta operatsiyalarining asosiy qismi tijorat banklari orqali o‘tadi.

2014-yilning 1-yanvar holatiga, respublikamiz bank tizimida 27 ta tijorat banki mavjud. Shundan:

- davlat banklari – 3 ta
- aksiyadorlik-tijorat banklari – 12 ta
- xususiy banklar – 8 ta
- xorijiy kapital ishtirokidagi banklar – 4 ta

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning amaliyotida, xususan, AQSH, Yaponiya, Kanada davlatlarining amaliyotida milliy valyutaning kursi fiksing shaklida aniqlanadigan bozor mexanizmiga asoslanadi. Mazkur mexanizmning mohiyati shundaki, maklerlar va tijorat banklari dillerlari ishtirokida kun davomida amalga oshiriladigan valyuta savdosi jarayonida shakllangan talab va taklif asosida, operatsion kunning aniq bir vaqtida, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan birja kursi aniqlanadi. Operatsion kunning aniq bir vaqtida milliy valyuta kursining aniqlanishi fiksing deb ataladi.

Birjadan tashqari valyuta bozori banklararo bozordir. Bunda valyuta savdosi tijorat banklari dilerlarining telefon yoki internet orqali so‘zlashuvlari orqali amalga oshiriladi.

Tijorat banklari spred shaklida, ya’ni valyutalarni sotish kursi bilan sotib olish kursi o‘rtasidagi farq sifatida daromad oladilar. Bundan tashqari, xorijiy valyutadagi aktivlarni qayta baholash, mavjud bitimga qarama-qarshi operatsiyalarni amalga oshirish orqali ham tijorat banklari valyuta operatsiyalaridan daromad oladilar.

2002-yilning 1-yanvaridan boshlab naqd yevroning muomalaga kiritilishi natijasida Yevropa banklari Germaniya markasi, Fransiya franki, Italiya lirasi, Belgiya franki, Avstriya shillingi, Ispaniya peseti kabi qator naqd valyutalarning muomaladan chiqib ketishi yuz berdi va buning natijasida ular 5 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi spred shaklidagi daromaddan mahrum bo'lishdi.

2003-yilning 8-oktabrida O'zbekiston Respublikasi hukumati Xalqaro Valyuta Fondi Nizomi VIII moddasining 2-bo'lim a-bandni, 3 va 4-bo'limlari bo'yicha belgilangan majburiyatlarni qabul qilinganligi va uning o'sha yilning 15-oktabridan boshlab kuchga kirganligi konversion operatsiyalarini rivojlantirishga kuchli turtki berdi. Ushbu majburiyatlar so'mni to'lov balansining joriy operatsiyalarini bo'yicha xorijiy valyutalarga erkin almashtirishni o'z ichiga oladi. VIII moddaning 2-bo'lim a bandiga muvofiq, mamlakatimiz hukumati joriy operatsiyalar bo'yicha valyutaviy cheklashlarni joriy qilishga haqli emas. Ushbu moddaning 3-bo'limiga muvofiq, O'zbekiston hukumati diskriminatsion valyuta siyosatini amalga oshirishga haqli emas. Nihoyat, VIII moddaning 4-bo'limiga muvofiq, boshqa davlatlar tomonidan taqdim etilgan so'mlar yo o'sha mamlakatning ~~milliy~~ valyutasiga yoki SDRga konvertatsiya qilib berilishi lozim. Ammo, 2003-yilning 15-oktabriga qadar olingan so'mlar bo'yicha O'zbekiston hukumati 4-bo'lim majburiyatlarini o'z zimmasiga olmaydi. Bundan tashqari, xorijiy davlatlarinng fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan ishlab topilgan so'mlar faqat joriy operatsiyalardan ishlab topilgan bo'lishi kerak.

Xalqaro valyuta bozorlari valyutaviy cheklashlar mavjud bo'limgan mamlakatlarning yirik shaharlarida joylashgan: London (Buyuk Britaniya), Nyu-York (AQSH), Frankfurt-na-Mayne (GFR), Tokio (Yaponiya), Syurix (Shveytsariya) va h.k.

Valyuta operatsiyalarining hajmi bo'yicha dunyoning eng yirik oltin bozori bo'lib, London bozori hisoblanadi.

Xorijiy valyutadagi bitimlar dunyoning ko'plab banklarida, taxminan, ertalab soat 9⁰⁰ da boshlanadi, biroq, dillerlarning ish faoliyati bu bitimlarni tuzishdan kamida bir soat oldin boshlanadi. Har kuni ertalab, chet el valyutasi bo'yicha mas'ul xodim (bo'lim boshlig'i) o'zining xodimlarini bitimlar tuzish bo'yicha me'yoriy hujjatlar, hamda zaruriy ma'lumotlar va yangiliklar bilan ta'minlaydi. U o'zi yo'nalishni qayta ko'rib chiqadi (bozorni bir necha oy oldin tahlil qiladi) va quyidagi omillar asosida o'z taktikasini aniqlaydi:

a) Flouting tizimida ayirboshlash stavkalarida aniqlovchi valyuta va foiz stavkalarining iqtisodiyotda o'zgarishi assosiy omillardan bo'lib qolmoqda. Bunda, ular bitimlar muddatini kursning tushishi bilan hisoblashish-masa, u holda xuddi shu bitimlar kursining oshishi bilan hisoblashishga majbur bo'ladilar.

b) Siyosiy omillar. Mazkur omillarga ijtimoiy holat, hukumatning almashishi va shu kabi valyuta bozoriga ta'sirini ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar kiradi. Ko'pchilik holatlarda, ushbu omillar bozor holatini belgilovchi eng muhim omil bo'lishi mumkin.

v) Bankning chet el valyutasidagi o'z pozitsiyasi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, kurs asosan, yirik banklar va yirik milliy hamda transmilliy kompaniya va korporatsiyalarning market-meykerlari tomonidan, kutilayotgan talab va taklif o'rtaсидаги farqqa bog'liq holda o'rnatiladi.

Market-meykerlar — bu turli valyutalarni bitimlar bo'yicha sotib olish va sotish kurslari kotirovkasini doimiy ravishda amalga oshiruvchi moliya muassasalari hisoblanadi. Bozoring passiv ishtirokchilari sezilarli darajadagi kapital bilan qatnashayotgan bo'lsalarda, bozor holatiga kuchsiz ta'sir ko'rsatadilar va ularning faoliyati ochiq bozordagi kurslarni professionallar tomonidan tartibga solishga majbur qilishi

mumkin. Albatta, market-meykerlar faqatgina chet el valyutalarini milliy valyuta bilan solishtirmaydilar, balki ular milliy valyutaga tegmagan holatda chet el valyutalarini o'zlarini kotirovkalarini ham amalga oshirishlari mumkin. Umuman, ma'lum bir valyutalarni emitenti bo'lgan mamlakatlarda shu valyuta bo'yicha market-meykerlar mazkur mamlakatda joylashgan bo'ladi. Yevro bo'yicha yetakchi market-meykerlarni Germaniyadan, Shveytsariya franki bo'yicha esa, Shveytsariyadan topish mumkin. Market-meykerlar o'zi mutaxassis bo'lib hisoblangan valyutani oldi-sotdi kursi kotirovkasini amalga oshiradi. Nisbatan kam banklar, butun dunyo bo'yicha valyuta kotirovkasini beradilar, shunday bo'lsada, Buyuk Britaniyaning keng tarmoqli kliring banklari kabilar o'z mijozlariga keng ko'lamda kotirovkalarini taklif etadi. Valyuta bozorida kam uchraydigan valyuta bilan bog'liq operatsiyalarni Markaziy bankda diling bo'limini o'zi emas, balki qo'shimcha bo'limlar amalga oshiradilar. Kam uchraydigan valyutalar, asosan, valyuta bozori rivojlanmagan mamlakatlarda yoki chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalarga ma'lum bir cheklovlar qo'yilgan mamlakatlarda uchraydi. Albatta, bunday cheklovlar mamlakat hududiga valyuta kirib kelishiga emas, balki ko'proq chiqib ketishiga joriy qilinishi keng qo'llaniladi. Agar, banklar ushbu (kam qo'llaniladigan) valyutalar bo'yicha mijozlarning talablarini bajara olmasa, ular o'zlarining filiallari yoki boshqa valyutalarda pul qabul qilish yoki to'lojni amalga oshirish maqsadida vakillik banklardan foydalananadilar.


Markaziy bankga xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998-yil 28-martda 31-son bilan tasdiqlangan «Xorijiy valyuta operatsiyalarni amalga oshirish uchun Markaziy bankga litsenziya berish tartibi»ga asosan, uch xil litsenziya berilishi ko'zda tutilgan:

Bosh litsenziya. Ushbu litsenziyaga ega bo‘lgan vakolatli banklar O‘zbekiston Respublikasi hududida va xorijda barcha valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega;

Ichki litsenziya. Ushbu litsenziyaga ega bo‘lgan vakolatli banklar O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘liq yoki chegaralangan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega;

Bir martalik litsenziya. Ushbu litsenziyaga ega bo‘lgan vakolatli banklar xorijiy valyutada aniq bir operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega.

Iqtisodiyotning erkinlashuvi va xalqaro valyuta bozorlariga integratsiyaning kuchayishi natijasida, valyuta operatsiyalari, mamlakatimizda, Markaziy bankning yana bir daromad topish manbasini vujudga keltirmoqda.



4.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Valyuta birjasida amalga oshirilgan konversion operatsiyalar hajmi, mlrd. AQSH dollarri.

4.1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2011-yilda RVBda amalga oshirilgan konversion operatsiyalar hajmi 2010-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, import bilan bog‘liq

bo‘lgan xorijiy valyutaga bo‘lgan talabning oshganligi bilan izohlanadi. 2011-yilda import hajmining 2010-yilga nisbatan o‘sish sur’ati 14,5 foizni tashkil etdi.

2012-yilda konversion operatsiyalar hajmining 2011-yilga nisbatan qisqarganligi xorijiy valyutalarga bo‘lgan talabning barqarorlashganligi bilan izohlanadi.

2008-yilning fevral oyidan boshlab, AQSH dollari bilan birga yevroda ham konvertatsiya uchun buyurtmalar qabul qilina boshladi. Bu esa, o‘z navbatida, konversion operatsiyalar jarayonida yuzaga keladigan transaksion chiqimlarning kamayishiga olib keladi.

4.2. Valyuta operatsiyalari tushunchasi va uni tashkil qilish asoslari

Valyuta operatsiyasi deganda xorijiy valyutalar va valyutaviy qimmatliklarni sotib olish va sotish operatsiyalariga aytildi.

Xalqaro valyuta operatsiyalarining 90 foizga yaqin qismi xalqaro rezerv valyutalar maqomiga ega bo‘lgan 5 ta valyutada (AQSH dollari, yevro, Yaponiya ieni, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Shveytsariya franki) amalga oshiriladi.

Jahon valyuta bozorlaridagi bir kunlik konversion operatsiyalarning hajmi 4 trln. AQSH dollaridan oshadi.

Xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda keng qo‘llanilayotgan ushbu valyutalarga nisbatan koeffisientlar qo‘llaniladi. Yetakchi xorijiy valyutalardan faqat Yaponiya ieniga nisbatan 10 koeffisienti qo‘llaniladi, AQSH dollari, yevro, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Shveytsariya franki, Kanada dollari, Avstraliya dollariga nisbatan 1 koeffisienti qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasiga muvofiq, chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar, chet el

valyutasidagi to'lov hujjatlari va sof quyma oltin valyuta boyliklari hisoblanadi.

Xalqaro valyuta operatsiyalarini tashkil qilishning iqtisodiy asoslariga quyidagilar kiradi:

1. Xalqaro valyuta munosabatlari subyektlarining xorijiy valyutalardagi mablag'larining mavjud bo'lishi.
2. Xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlarining mavjudligi.
3. Eksport-import operatsiyalarining mavjudligi.
4. Ssuda va tadbirkorlik kapitallari harakatining mavjudligi.
5. Nodir metallar savdosining mavjudligi.

Xalqaro valyuta operatsiyalarini tashkil qilishning muhim iqtisodiy asoslaridan biri xalqaro valyuta munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlarning milliy va xorijiy valyutalarda joriy hisob raqamlarining mavjudligi hisoblanadi. Ushbu joriy hisob raqamlardagi mablag'lar hisobidan xorijiy valyutadagi majburiyatlar bo'yicha to'lovlardan amalga oshiriladi, boshqa xorijiy valyutalar sotib olinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunining 16-moddasiga muvofiq, rezidentlar O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatli banklarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda chet el valyutasida hisobvaraqlar ochishlari mumkin. Mazkur Qonunning 17-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida vaqtincha turgan notezident jismoniy shaxslar, immunitet hamda diplomatik imtiyozlardan foydalanadigan chet el diplomatiya va boshqa rasmiy vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar hamda ularning filiallari, shuningdek, xorijiy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasida xo'jalik va boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan vakolatxonalari O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatli

banklarda milliy valyutada va chet el valyutasida hisobvaraq ochishga hamda ulardan foydalanishga haqlidir¹.

O‘zbekiston Respublikasi uchun quyidagilar rezidentlar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari;
- O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;
- O‘zbekiston Respublikasining hududida ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslar;
- O‘zbekiston Respublikasining immunitet va diplomatik imtiyozlaridan foydalanadigan xorijdagi diplomatiya hamda boshqa vakolatxonalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi tashkilotlarining chet eldagi xo‘jalik va boshqa tijorat faoliyati bilan shug‘ullanmaydigan vakolatxonalari.

Xalqaro valyuta operatsiyalarini tashkil qilishning me’yoriy-huquqiy asoslari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Milliy valyuta qonunchiligi.
2. Xalqaro qoidalar va konvensiyalar.
3. Xalqaro Valyuta Fondi Kelishuvlar moddalari bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlar.

Respublikamizda milliy valyuta qonunchiligiga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
- Soliq kodeksi;
- Bojxona kodeksi;

¹ O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlari to‘plami.- Toshkent: O‘zbekiston, 2011. - B. 13-14.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Valyutani tartibga soluvchi davlat organlarining yo'riqnomalari.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga muvofiq, chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari va sof quyma oltin valyuta boyliklari hisoblanadi.

Mazkur Qonunning 7-moddasiga muvofiq, joriy valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

*tashqi savdo va boshqa joriy faoliyat olib borilishi bilan, shu jumladan, xizmatlar ko'rsatish, qisqa muddatli bank va kredit mexanizmlari bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar

* foizlar va boshqa daromadlar ko'rinishida, shu jumladan bank omonatlari, kreditlar hamda lizing bo'yicha olinadigan foizlar va boshqa daromadlar shaklida to'lanishi zarur to'lovlar

* kreditlarni uzish uchun yoki to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar amortizatsiyasi uchun maqbul summalarini to'lash;

*savdo bilan bog'liq bo'limgan pul jo'natmalari

Savdo bilan bog'liq bo'limgan pul jo'natmalariga quyidagilar kiradi:

* ish haqi, stipendiya, pensiya, alimentlar to'lash;

* xodimlarni xorijga xizmat safariga jo'natish;

* ta'lim va davolanish uchun haq to'lash;

* xorijdagi diplomatik va boshqa vakolatxonalarini ta'minlash;

*notarial va tergov harakatlari bilan bog'liq to'lovlar;

*sudning, arbitrajning qarorlari asosida pul to'lash;

* xalqaro konferensiyalar, simpoziumlarda, sport, madaniy va boshqa tadbirlarda ishtirko etish uchun to'lovlar;

*dafn qilish bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar;

*mualliflik haqi, patent bojlarini to'lash.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunining 4-moddasiga muvofiq, tijorat banklari chet el valyutasini naqd va naqd bo'lman pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish, xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, litsenziyada ko'rsatilgan boshqa operatsiyalarini amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonunning 40-moddasiga muvofiq, Markaziy bank:

*O'zbekiston Respublikasi hududida barcha shaxslar uchun majburiy bo'lgan valyutani nazorat qilishga doir normativ hujjatlar chiqaradi

*banklar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga chet ed valyutasida operatsiyalar o'tkazish uchun litsenziyalar beradi va litsenziyalarni qaytarib oladi, ularning faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib boradi

* Banklar uchun ochiq valyuta pozitsiyalari chegaralarini va boshqa iqtisodiy normativlarni belgilaydi

*milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash tartibini belgilaydi

*O'zbekiston Respublikasining xalqaro rezervlarini tasarruf etadi va boshqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 30-yanvardagi PQ-1914-sonli "Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutani sotish tartibini yanada liberallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2013-yilning 1-fevralidan boshlab O'zbekiston Respublikasining rezidentlari – jismoniy shaxslarga vakolatli banklar tomonidan xorijiy valyutani xalqaro to'lov kartalaridan foydalangan holda naqdsiz shaklda sotish mexanizmi joriy qilindi. Bunda jismoniy shaxs vakolatli bankda xalqaro to'lov kartasini ochadi. Vakolatli bank esa, uning shaxsiy plastik bank kartasida milliy valyutadagi pul mablag'lari yetarli ekanligini tekshiradi, xorijiy valyutani operatsiya amalga oshirilgan kuni belgilangan ayriboshlash kursi bo'yicha xalqaro to'lov kartasiga o'tkazadi hamda jismoniy shaxsga xorijiy

valyutani sotib olganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi ma'lumotnomani beradi¹.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-iyundagi 263-sonli «Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, 2001-yilning 1-iyulidan boshlab xorijiy investorlar foydasi, dividendlari va boshqa daromadlarini repatriatsiya qilish, eksport qiluvchilar tomonidan valyuta tushumining 50 foizini majburiy sotish, asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, xomashyo, materiallar va xizmatlar importi, yangidan jalb qilinadigan xorijiy kreditlarga xizmat ko'rsatish kabi operatsiyalar birjadan tashqari valyuta bozorining talab va taklifdan kelib chiqib shakllanadigan erkin valyuta kursi asosida amalga oshiriladigan bo'ldi.

Buning ijrosi natijasida valyuta kurslarini unifikatsiyalash jarayoni tezlashdi va, pirovard natijada, so'mning belgilangan birja kursiga nisbatan ancha past bo'lgan, talab va taklifga asoslangan birja kursi shakllandi.

Xalqaro valyuta qonunchiligining muhim tarkibiy qismi bo'lib, Xalqaro umumlashtirilgan qoidalar va konvensiyalar hisoblanadi.

Xalqaro umumlashtirilgan qoidalar:

* Hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha xalqaro umumlashtirilgan qoidalar (UCP 500; UCP 600)

* Inkasso bo'yicha umumlashtirilgan qoidalar

* Shartnomaviy kafolatlar bo'yicha umumlashtirilgan qoidalar

Xalqaro konvensiyalar:

* Xalqaro oddiy va o'tkazma veksellar muomalasi bo'yicha xalqaro konvensiya

* BMTning yuklarni dengiz orqali tashish konvensiyasi


* Arbitraj sudlari qarorlarini ijrosini ta'minlash bo'yicha xalqaro konvensiya

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 30-yanvardagi PQ-1914-sonli "Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutani sotish tartibini yanada liberallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2013. – № 6 (558). – B. 5.

O‘zbekiston 2003-yil 8-oktabrida XVF kelishuvlar moddasining 8-moddasi bo‘yicha majburiyatlarni qabul qildi. Ushbu majburiyatlar 2003-yil 15-oktabrdan boshlab kuchga kirdi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati Xalqaro Valyuta Fondi Nizomi VIII moddasining 2-bo‘lim a-bandisi, 3 va 4-bo‘limlari bo‘yicha belgilangan majburiyatlarni qabul qildi. Ushbu majburiyatlar so‘mni to‘lov balansining joriy operatsiyalarini bo‘yicha xorijiy valyutalarga erkin almashtirishni o‘z ichiga oladi. VIII-moddaning 2 bo‘lim a-bandiga muvofiq, mamlakatimiz hukumati joriy operatsiyalar bo‘yicha valyutaviy cheklashlarni joriy qilishga haqli emas. Ushbu moddaning 3-bo‘limiga muvofiq, O‘zbekiston hukumati diskriminatsion valyuta siyosatini amalga oshirishga haqli emas. Nihoyat, VIII moddaning 4-bo‘limiga muvofiq, boshqa davlatlar tomonidan taqdim etilgan so‘mlar yo‘sha mamlakatning milliy valyutasiga yoki SDRga konvertatsiya qilib berilishi lozim. Ammo 2003-yilning 15-oktabriga qadar olingan so‘mlar bo‘yicha O‘zbekiston hukumati VIII moddaning 4-bo‘lim majburiyatlarini o‘z zimmasiga olmaydi. Bundan tashqari, xorijiy davlatlarinng fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan ishlab topilgan so‘mlar faqat joriy operatsiyalardan ishlab topilgan bo‘lishi kerak.

So‘nggi yillarda xalqaro iqtisodiy munosabatlari ishtirokchilari tomonidan dunyo miqyosida yevroga nisbatan ishonchning kuchayishi yevroning xalqaro valyuta zaxiralari hajmidagi salmog‘ining oshishiga va shuning asosida AQSH dollari salmog‘ining pasayishiga sabab bo‘lmoqda (4.2-rasm).



4.2-rasm. AQSH dollarini va yevroning xalqaro valyuta zaxiralari tarkibidagi salmog'ining o'zgarishi¹, foizda

4.2-rasm ma'lumotlaridan ko'rindan, 1999-2011-yillarda yevroning xalqaro valyuta zaxiralari tarkibidagi salmog'i sezilarli darajada oshgan. Bu esa, AQSH dollarining xalqaro valyuta zaxiralarining tarkibidagi salmog'ini pasayishiga sabab bo'lgan. Chunki, hozirgi davrda AQSH dollariga haqiqatda raqobat qila oladigan valyuta faqat yevro hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda milliy valyutalarning almashuv kursini "valyuta savati"ga bog'lash ularning almashuv kursi tebranishini sezilarli darajada kamaytirish imkonini bergen. Masalan, Rossiyada rublning kursini "bivalyuta savati"ga nisbatan aniqlashning joriy qilinishi uning barqarorligini va yevroning konversion operatsiyalar hajmidagi ulushini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

Banklararo vakillik munosabatlarning mavjudligi xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Banklarning "Nostro" va "Vostro" vakillik munosabatlari orqali xorijiy valyutalardagi to'lovlar amalga oshiriladi va tushumlar qabul qilinadi.

Banklararo vakillik munosabatlarning ikki turi mavjud:

1. Bir tomonlama vakillik munosabatlari.
2. Ikki tomonlama vakillik munosabatlari.

¹ IMF "International Financial Statistics. 2012" ma'lumotlari.

Bir tomonlama vakillik munosabatlarida har ikkala bankdan faqat bittasi “Nostro” yoki “Vostro” vakillik hisob raqamiga ega bo’ladi.

Ikki tomonlama vakillik munosabatlarida har ikkala bank “Nostro” yoki “Vostro” vakillik hisob raqamiga ega bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasining tijorat banklari xorijiy banklar bilan bir tomonlama vakillik munosabatlariga ega. Ya’ni, respublikamiz tijorat banklari xorijiy banklarda o’zlarining “Nostro” vakillik hisobvaraqaqlariga ega. Ammo xorijiy banklar O’zbekiston banklarida o’zlarining “Vostro” vakillik hisob raqamlariga ega emas.

Xorijiy bank bilan vakillik munosabati o’rnatish uchun unga dastlab xat jo’natiladi. Xatda vakillik munosabati o’rnatishning zarurligi asoslab berilgan bo’lishi lozim. Odatda, xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlarining zarurligi mijozlarning eksport-import operatsiyalari bilan yoki bankning o’zini xorijiy bankning moliyaviy xizmatlaridan foydalanish zaruriyati bilan belgilanadi.

Mazkur xatda xorijiy bank bilan vakillik munosabatlari o’rnatmoqchi bo’layotgan tijorat banki faoliyatining ijobiyligi jihatlari ham qisqacha aks etgan bo’lishi lozim. Masalan, bankning xorijiy valyutadagi aktivlarining o’sish sur’atlari, dunyodagi yetakchi banklar bilan vakillik munosabatlarining mavjudligi va h.k.

Ammo xatda xorijiy bankning holatini o’rganilganligi haqida zinhor yozilmasligi lozim. Chunki, ushbu holatni xorijiy bank haqorat sifatida qabul qilishi mumkin.

Xorijiy bank vakillik munosabatlari o’rnatish to’g’risidagi taklifga rozilik bildirgandan so’ng vakillik munosabatlari o’rnatish to’g’risidagi shartnoma loyihasi tayyorlanadi hamda shartnoma bandlari tomonlar o’rtasida muhokama qilinadi. Nihoyat, vakillik munosabatlari o’rnatish to’g’risidagi shartnoma imzolanadi. Shundan keyin to’lov hujjatlariga, teleks yoki kompyuter xabarnomalariga imzo chekish huquqiga ega bo’lgan shaxslarning imzolari nusxalari va maxfiy kalitlar o’zaro almashinadi. Bu autentifikatsion kalit deyiladi.

Odatda “Nostro” vakillik hisob raqamlari shu valyuta qaysi mamlakatning milliy valyutasi bo’lsa, o’sha mamlakatning tijorat bankida ochiladi. AQSH dollaridagi “Nostro” vakillik hisob raqamlari AQSH banklarida, yevrodagi “Nostro” vakillik hisob raqamlari “yevrohudud”dagi banklarda ochiladi.

Shunisi xarakterlik, AQSH dollaridagi “Nostro” vakillik hisob raqamini Londondagi banklarda ham ochish mumkin. London AQSHdan tashqaridagi dollar zaxiralari to‘plangan eng katta yevrodollar bozori hisoblanadi. Ammo bunda “Nostro” vakillik hisob raqamini ochgan tijorat bankiga ikki marta komissiya to‘lashga to‘g’ri keladi. Bir marta Londondagi bankka “Nostro” vakillik hisobarqamini yuritganligi uchun, ikkinchi marta Londondagi bankning dollardagi qoldiqni AQSH banklari orqali joylashtirganligi uchun to‘lagan komissiyasi uchun to‘laydi. Chunki, Londondagi banklar dollardagi qoldiqlarini AQSH banklari orqali joylashtiradilar.

Ko‘pchilik mamlakatlarning bank amaliyotida “Nostro” vakillik hisob raqamlarining qoldig‘iga foiz to‘lanmaydi. Ayrim mamlakatlarda esa, juda past stavkada foiz to‘lanadi. Shuning uchun banklar xorijiy banklardagi “Nostro” vakillik hisob raqamlaridagi ortiqcha mablag‘larni (ishchi qoldiqdan ortiq mablag‘ni) yevrobozorlarga yoki “overnayt” shaklida joylashtiradilar.

Tijorat banklari xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlari o‘rnatishda xorijiy bankning overdraft kreditidan foydalanishga ruxsat olishga harakat qilishadi. Buning sababi shundaki, overdraft krediti “Nostro” vakillik hisob raqamida yuzaga keladigan vaqtinchalik valyuta yetishmasligi muammosini hal etishning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Xorijiy bank, valyuta mablag‘lari yetishmasligi yuzaga kelganda, vakil bankni belgilangan limit doirasida zudlik bilan kreditlaydi.

Muammo shundaki, qator davlatlarda overdraft krediti berish qonun yo‘li bilan ta’qiqlangan.

Xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlari o‘rnatishda xorijiy banklarning xizmat ko‘rsatish xususiyatlariga e’tibor qaratish muhim o‘rin tutadi. Masalan, AQSH va Yaponiyada

banklar ixtisoslashtirilgan va investitsion banklarga ajralgan. Yevropada esa - universal banklar.

Xorijiy valyutadagi to'lovlarni o'z vaqtida o'tishi xorijiy vakil bankning etarli darajada likvidli bo'lishiga bog'liq. Shuning uchun ham, Bazel qo'mitasi tijorat banklarining xorijiy banklardagi "Nostro" vakillik hisob raqamining qoldig'iga 20% risk darajasini bergen. Bu esa, aynan, xorijiy bankda likvidlilik muammosining yuzaga kelishi natijasida to'lovlarning kechikishi bilan bog'liqdir.

Xorijiy banklar bilan bir tomonlama vakillik munosabatiga ega bo'lган banklarda doimo "Nostro" vakillik hisob raqami qoldig'ining tebranishi muammosi mavjud bo'ladi. Chunki, ushbu bankda xorijiy bankning "Vostro" vakillik hisob raqami mavjud emas. Shu sababli, ular har qanday xorijiy valyutadagi to'lovni amalga oshirishda o'zlarining "Nostro" vakillik hisob raqamini kreditlashga majbur bo'lishadi. Natijada, "Nostro" vakillik hisob raqamining qoldig'ini keskin tebranish xavfi yuzaga keladi. Bu esa, mazkur banklarning likvidliligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Agar tijorat banki xorijiy banklar bilan ikki tomonlama vakillik munosabatlari ega bo'lsa, u holda, xorijiy bank va uning mijozlari foydasiga amalga oshirilayotgan to'lov summasi ushbu bankning "Vostro" vakillik hisob raqamiga kirish qilinadi. Natijada, bankning "Nostro" vakillik hisob raqamida hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi.

Umuman olganda, banklararo vakillik munosabatlari xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning muhim zaruriy sharti hisoblanadi. Bunda ikki tomonlama vakillik munosabatlarining mavjudligi xalqaro valyuta operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan amaliy ahamiyat kasb etadi.

4.3. Spot operatsiyalari

Spot operatsiyalari spot bitimi tuzilgandan keyin ikki ish kuni mobaynida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalaridir.

Spot yuqori riskli valyuta operatsiyasi hisoblanadi va uning yuqori riskliligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Spot operatsiyasini amalga oshirish vaqtida qisqa bo‘lganligi sababli unda sug‘urta elementlarini qo‘llab bo‘lmaydi.

2. Spot operatsiyalarining 90 foizga yaqin qismi quyidagi 5 ta xalqaro zaxira valyutalarda amalga oshiriladi va ularning barchasi erkin suzish rejimiga ega.

Erkin suzish rejimiga ega bo‘lgan valyutalarning nominal almashuv kursi katta diapazonlarda tebranishi mumkin.

3. Valyuta kursiga ta’sir etuvchi ayrim omillarni prognoz qilish imkonining yo‘qligi.

Masalan, 1990-yilda Iroq bilan AQSH boshchiligidagi davlatlar koalitsiyasi o‘rtasida urush bo‘ldi. Birlashgan qo‘sishlar qo‘mondoni bo‘lgan amerikalik general urushni 1 hafta ichida tugatishga va’da berdi. Bu esa, xalqaro moliya bozori ishtirokchilarining xotirjam bo‘lishiga olib keldi. Ammo urushning boshlanganligiga bir oy o‘tgandan so‘ng Iroq o‘zining “Skad” raketalari bilan Saudiya Arabistoniga poytaxti Er-Riyad shahrida joylashgan AQSH dengiz piyodalarining yotog‘iga (kazarma) zarba berdi. Bu Iroqqa qarshi urushda qatnashayotgan arab davlatlari uchun kutilmagan holat va fojia edi. Chunki, AQSH o‘zining havo hujumiga qarshi “Petriot” tizimi Iroqqa qarshi urushda qatnashayotgan davlatlar hududini Iroq raketalardan 100 % himoya qilishiga va’da bergan edi.

Shu kundan boshlab, OPEKka a’zo bo‘lgan arab davlatlari Fors ko‘rfazi orqali neft eksport qilishni to‘xtatdilar. Bu esa, jahon bozorlarida neft bahosining keskin ko‘tarilishiga olib keldi. 1 barrel neft o‘sha paytda arab davlatlari tomonidan 11-13 AQSH dollariga sotilgan bo‘lsa, uning bahosi 42 dollarga ko‘tarildi. Sobiq Sovet Ittifoqi, Meksika, Venesuela, Ruminiya kabi neft eksport qiluvchi mamlakatlar neft eksportidan katta miqdorda daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Neft mahsulotlarini import qiluvchi Turkiya, Yaponiya, Yevropa davlatlari esa, bundan jiddiy zarar ko‘rdilar.

Neft bahosining keskin oshishi AQSH dollari kursining ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Chunki, neft shartnomalarining 90 foizdan ortiq qismi AQSH dollarida tuzilgan edi. Buning

natijasida jahon valyuta bozorlarida AQSH dollariga bo‘lgan talabning oshishi yuz berdi.

Spot operatsiyalari spot kurslar asosida amalga oshiriladi.

Spot kurs deganda spot bitimi tuzilayotgan paytda belgilab qo‘yiladigan valyuta kursi tushuniladi va bu kurs ikki ish kuni mobaynida o‘zgarmasdan qoladi.

Spot kursni aniqlashning birja usuli va birjadan tashqari usuli mavjud.

Taraqqiy etgan davlatlarda va qator o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida, birja usulida spot kurs valyuta birjalarining savdo zallarida dillerlar, maklerlarning ochiq savdo qilishlari natijasida aniqlanadi. Shunisi xarakterliki, AQSH dollari, yevro, Angliya funt sterlingi va Shveytsariya frankining kursi verguldan keyin to‘rttagacha birlikda aniqlanadi. Masalan: 1 dollar = 1,2310 - 1,2330 shv. franki. Yoki 1 funt sterling = 1,6770-1,6790 dollar.

Valyuta birjalarining savdo zallarida valyuta savdosi faqat oxirgi ikkita raqam bilan amalga oshiriladi. Hech qaysi diler ikkita raqamdan oldinda turgan raqamlarni hech qachon aytmaydi.

Chap tomonimizda turgan birinchi kurs sotib olish kursi hisoblanadi va u **BID** deb ataladi, o‘ng tomonimizda turgan kurs, ya’ni ikkinchi kurs sotish kursi hisoblanadi va u **OFFER** deb ataladi. Valyutaning sotish kursi bilan sotib olish kursi o‘rtasidagi farq tijorat bankining daromadi hisoblanadi va u **SPREAD** deb ataladi.

Har bir spot bitimi bo‘yicha alohida spot kurs aniqlanadi. Tijorat bankining har bir dileriga valyutalarni sotib olish va sotish bo‘yicha limit belgilanadi. Diler o‘sha limit doirasida valyutalarni spot sharti bo‘yicha sotib olish va sotishni amalga oshiradi.

Valyuta birjasidagi kompyuter dasturi spot operatsiyalaridagi talab va taklifga qarab milliy valyutaning oldi-sotdi qilinayotgan yetakchi xorijiy valyutalarga nisbatan nominal almashuv kursini aniqlaydi. Masalan, London vaqt bilan soat 11.00da Buyuk Britaniya funt sterlingining, Frankfurt-

na Mayne shahrida soat 13.00 da yevroning yetarkchi xorijiy valyutalarga nisbatan nominal almashuv kursi aniqlanadi va butun dunyoga e'lon qilinadi.

Operatsion kunning aniq bir vaqtida milliy valyuta kursining aniqlanishi **fiksing** deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasida buyurtmali valyuta savdosi tizimi mavjud.

So'mning nominal birja kursi O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi (O'RVB) da AQSH dollariga bo'lgan talab va taklif asosida aniqlanadi. Qayd etish jiozki, respublikamizda valyuta kursini aniqlashning tijorat spot kurslariga asoslanadigan va fiksing shaklida aniqlanadigan bozor mexanizmi mavjud emas. Shu sababli, respublikamizda so'mning nominal birja kursi valyutalarning buyurtmali savdosi asosida amalga oshiriladigan oldi - sotdi mexanizmi orqali shakllanadi. Mazkur mexanizmning mohiyati shundaki, O'RVBga a'zo bo'lgan tijorat banklari ikki xildagi buyurtmalarni birjaga beradilar: a) AQSH dollarini sotib olish maqsadida so'mda berilgan buyurtmalar; b) AQSH dollarini sotish maqsadida berilgan buyurtmalar (dollarda berilgan buyurtmalar). Markaziy bankning Bosh dileri buyurtmalarni qabul qilishni to'xtatish to'g'risidagi buyruqni bergandan so'ng har ikkala xildagi buyurtmalar bo'yicha jami nominal miqdorlar aniqlanadi. Shundan keyin so'mda berilgan buyurtmalarning jami summasini AQSH dollaridagi buyurtmalar summasiga bo'lish yo'li bilan o'zbek so'mining 1 AQSH dollariga nisbatan nominal birja kursi aniqlanadi.

O'z navbatida, so'mning nominal almashuv kursi tijorat spot kursi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nominal birja kursi tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi aktiv va passivlarini qayta baholash, boj hisobi hamda moliyaviy va statistik hisobotlarni yuritish, xo'jalik yurituvchi subyektlar valyuta tushumlarining ma'lum qismini majburiy tartibda sotishda qo'llaniladi.

Birjadan tashqari usulda spot kurs tijorat banklari dilerlarining telefon orqali so'zlashuvlari yoki internet orqali muloqotlari natijasida aniqlanadi.

Tijorat banklarining naqd xorijiy valyutalarni sotish kursi va sotib olish kursi o'rtaсидаги farq sifatida oladigan spred shaklidagi daromadi ularning valyuta operatsiyalarining samaradorligini baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Tijorat banklarining naqd xorijiy valyutalarga bo'lgan talabni to'g'ri baholagan holda, ularning sotib olish va sotish kursini belgilashi spred miqdorini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, tijorat banklari spot operatsiyalaridan zarar ko'tishlari ham mumkin. Odatda, tijorat banki qisqa valyuta pozitsiyasiga ega bo'lgan valyutaning keyingi ish kunidan boshlab kursining ko'tarilishi zararni yuzaga keltiradi. Aksincha, tijorat banki qisqa valyuta pozitsiyasiga ega bo'lgan valyutaning kursini keyingi ish kunidan boshlab pasayishi bankning balansida foydani yuzaga keltiradi.

Agar tijorat banki uzun valyuta pozitsiyasiga ega bo'lgan xorijiy valyutaning kursi pasaysa, u holda bankning balansida zarar yuzaga keladi. Chunki, bu vaqtida tijorat banki arzon valyutani qimmat bahoda sotib olgan hisoblanadi.


Shuningdek, tijorat banki tomonidan belgilangan xorijiy valyutaning sotib olish kursining Markaziy bankning birja kursidan yuqori bo'lishi bankning balansida zararni yuzaga keltiradi. Masalan, Markaziy bankning birja kursi bo'yicha 1 AQSH dollari 2198,00 so'mga teng. Tijorat bankining 1 AQSH dollarini sotib olish kursi esa, 2200,00 so'mni tashkil etadi. Bunday sharoitda tijorat banki har bir dollardan qayta baholash natijasida 2 so'm zarar ko'radi ($2200 - 2198$). Buning sababi shundaki, qayta baholash Markaziy bankning birja kursi bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining spot operatsiyalaridan ko'rgan zararlari summasi 55302-hisob raqamning debitida, spot operatsiyalaridan olgan foydasi esa, 45401-hisob raqamning kreditida aks etadi. Respublikamiz

banklarining spred shaklidagi daromadi ham 45401- hisob raqamning kreditida aks etadi.

Respublikamiz tijorat banklari spot operatsiyalarining asosiy qismini import qilingan tovarlar bo'yicha va olingan xalqaro kreditlarni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarni amalga oshirish maqsadida so'mni AQSH dollari va yevroga ayirboshlash operatsiyalarini (konversion operatsiyalar) tashkil etadi.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini quyidagicha turkumlash mumkin.



4.3-rasm Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining turkumlanishi¹

4.3-rasm tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining iqtisodiy mazmunini to'laroq ochib beradi deb hisoblaymiz.

¹ Mualliflarning shaxsiy ishlchanmasi.

4.4. Muddatli valyuta operatsiyalari

Muddatli valyuta operatsiyalarining 3 shakli mavjud:

1. Forvard valyuta operatsiyalari.
2. Valyuta opsiyonlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.
3. Valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Forward valyuta operatsiyasi deganda, ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish yoki sotish operatsiyasiga aytiladi.

Forward valyuta operatsiyalari valyuta zaxiralarini valyuta riskidan himoya qilish maqsadida qo'llaniladi. Shu bilan birga, tijorat banklari forward operatsiyalaridan daromad olish maqsadida foydalanadi.

Forward shartnomalari quyidagi standart muddatlarga tuziladi: 1 hafta, 1, 2, 3, 6, 9, 12 oy.

Forward operatsiyalari forward kurslar asosida amalga oshiriladi.

Forward kursi forward shartnomasi imzolanayotgan paytda belgilab qo'yiladigan kurs bo'lib, shartnomma ijrosiga qadar o'zgarmasdan qoladi.

Forward kurslari hech qachon spot kurslari kabi aniqlanmaydi. Tijorat banklarining dilerlari doimo forward marjasik bilan ishlaydi, xolos. Forward marjasigi deganda ustama va diskont tushuniladi.

Ustama va diskont bitta formula orqali aniqlanadi. Bu formula quyidagi ko'rinishga ega:

$$U/D = \frac{SK \times FSO \cdot F \times FSHM (\text{kunlarda})}{(360 \times 100) + (BVFS \times FSHM (\text{kunlarda}))}$$

Bu yerda:

U / D –ustama yoki diskont.

SK – spot kurs.

FSO‘F – foiz stavkalari o‘rtasidagi farq. Foiz stavkalari o‘rtasidagi farq aniqlanayotganda bitim valyutasi bo‘yicha kreditlarning foiz stavkasi olinadi, baholovchi valyuta bo‘yicha esa, depozitlarning foiz stavkasi olinadi.

FShM – forward shartnomasining muddati.

BVFS –bitim valyutasi bo‘yicha foiz stavkasi.

Agar bitim valyutasi bo‘yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan kichik bo‘lsa, u holda formula orqali aniqlangan natija ustama hisoblanadi. Agar bitim valyutasi bo‘yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan katta bo‘lsa, u holda formula orqali aniqlangan natija diskont hisoblanadi.

Forward marjasи quyidagi sabablarga ko‘ra kotirovka qilinadi:

Birinchidan, forward marjalari ko‘pchilik holatlarda o‘zgarmasdan qoladi, spot kurslari esa tez-tez o‘zgaradi, shu sababli, ustama va diskontlarning kotirovkasiga kam tuzatish kiritiladi.

Ikkinchidan, valyuta bitimlarining sezilarli qismida forward kurslarini emas, balki ustama va diskontni bilish talab qilinadi.

Ustama va diskontning o‘lchov birligi pips deb ataladi.

Forward kursi spot kursidan ustama yoki diskont summasiga farq qiladi. Agar bitim valyutasi bo‘yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan kichik bo‘lsa, olingan natija ustama hisoblanadi va bunda forward kursi spot kursidan yuqori bo‘ladi. Aksincha, bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan katta bo‘lsa olingan natija diskont hisoblanadi, bunda forward kursi spot kursidan past bo‘ladi.

Forward operatsiyalari dastlab eksportyorlarning sotilgan tovarlar uchun kutilayotgan eksport tushumini valyuta riskidan himoya qilish maqsadida yuzaga keldi. Keyinchalik tijorat

banklari o‘rtasidagi munosabatlarda ham forward operatsiyalaridan foydalanish kuchaydi. Shunisi xarakterlik, forward operatsiyalaridan spekuliyativ maqsadlarda ham foydalanish mumkin. Chunki, birinchidan, forward operatsiyalarini amalgamoshirish uchun valyuta mablag‘larining mavjud bo‘lishi shart emas; ikkinchidan, forward shartnomalari nisbatan uzoq muddatga tuziladi; uchinchidan forward kursining darajasi ko‘proq foiz stavkalarining o‘zgarishiga bog‘liq.

Tahlil jarayonida forward operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi jihatlarga asosiy e’tibor qaratiladi:

1. Forward operatsiyalarining buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etilganligi.

Forward operatsiyalari tijorat banklari uchun balansdan tashqari operatsiya hisoblanadi, shu sababli, birinchi navbatda, forward shartnomalari summasini tegishli balansdan tashqari hisob raqamlarda to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish lozim. Haqiqatda, tijorat banklarining xorijiy valyutalarni sotib olish maqsadida tuzilgan forward shartnomalari 92716-«Forward bitimi bo‘yicha sotib olish» hisob raqamining debetida va 96367-«Forward bitimi bo‘yicha sotib olish kontr hisobvarag‘i»ning kreditida hisobga olinadi.

Tijorat banklarining xorijiy valyutalarni sotish maqsadida tuzilgan forward shartnomalari 92709-«Forward bitimi bo‘yicha sotish» hisob raqamining debetida va 96365-«Forward bitimi bo‘yicha sotish kontr hisobvarag‘i»ning kreditida hisobga olinadi.

Tahlil jarayonida forward shartnomalarining muddati tugagandan so‘ng amalgamoshirish foydalanish buxgalteriya o‘tkazmalari ham sinchiklab tekshirilishi lozim. Shunisi xarakterlik, forward operatsiyalari shartnoma muddati tugashi bilan xarakteriga ko‘raspot operatsiyalariga aylanadi. Shuning uchun ham keyingi buxgalteriya o‘tkazmalari spot bo‘yicha beriladi.

Balans hisobarqamlari bo‘yicha buxgalteriya o‘tkazmalari berilgandan so‘ng forward operatsiyalari bo‘yicha ochilgan

balansdan tashqari hisob raqamlar yopiladi. Tijorat bankining xorijiy valyutani sotib olish maqsadida tuzgan forward shartnomasi summasiga ochilgan balansdan tashqari hisob raqamlari 92716-«Forward bitimi bo'yicha sotib olish» hisob raqamini kreditlash va 96367-«Forward bitimi bo'yicha sotib olish kontr hisobvarag'i»ni debetlash yo'li bilan yopiladi.

Tijorat bankining xorijiy valyutani sotish maqsadida tuzgan forward shartnomasi summasiga ochilgan balansdan tashqari hisob raqamlari 92709-«Forward bitimi bo'yicha sotish» hisob raqamini kreditlash va 96365-«Forward bitimi bo'yicha sotish kontr hisobvarag'i»ni debetlash yo'li bilan yopiladi.

2. Forward operatsiyalari bo'yicha ustama va diskontni to'g'ri hisoblanganligi

Forward operatsiyalari forward kursi asosida amalga oshiriladi. Forward kursining darajasini belgilovchi omil ustama va diskont hisoblanadi.

Agar baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasi bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasidan katta bo'lsa, olingan natija ustama hisoblanadi. Bunday holatda forward kursini aniqlash uchun spot kurs ustama miqdoriga oshiriladi.

Agar baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasi bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasidan kichik bo'lsa, olingan natija diskont hisoblanadi. Bunday holatda forward kursini aniqlash uchun spot kurs diskont miqdoriga kamaytiriladi.

3. Forward operatsiyalari bo'yicha foyda va zararlar summasini, shu jumladan, realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar summasini baholash.

Forward operatsiyalari bo'yicha foyda va zararlar summasini baholash uchun 45405 va 55306-hisob raqamlarining qoldiqlari olinib, tahlil qilinadi.

Realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar summasini baholash uchun 16901 va 22802-hisob raqamlarining qoldiqlari olinib, tahlil qilinadi.

Tahlil qilingan davr mobaynida zararlar summasi kamayish tendensiyasiga, foyda summasi esa, o'sish tendensiyasiga ega bo'lishi lozim.

Realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar to'lov muddati kelmagan muddatli valyuta shartnomalarini qayta baholash natijasida yuzaga keladi. Har bir tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga moliyaviy hisobot topshirayotganda muddati kelmagan valyuta shartnomalari qiymatini qayta baholashlari va ular bo'yicha foyda va zararlar summasini aniqlashlari zarur.

Muddati kelmagan valyuta shartnomalarining qiymatini qayta baholash O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy hisobot tuzilayotgan kundagi birja kursi bo'yicha amalga oshiriladi. Bunga qadar barcha xorijiy valyutalardagi shartnomalarning summasi AQSH dollariga aylantiriladi. Undan keyin shartnomalarning dollardagi qiymati Markaziy bankning birja kursi bo'yicha so'mga aylantiriladi. Tijorat banki xodimlari tomonidan Markaziy bankka moliyaviy hisobot topshirilayotgan paytda ularning pozitsion hisob raqamida, ya'ni 17101-hisob raqamida qoldiq bo'imasligi lozim.

Muddatli valyuta operatsiyalarining ikkinchi shakli valyuta opsiyonlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar hisoblanadi. Ushbu operatsiyalarni amalga oshirishda asosiy e'tibor buxgalteriya o'tkazmalarini to'g'ri rasmiylashtirilganligiga, operatsiyalarning daromadliligiga va mazkur operatsiyalardan ko'rilgan zararlarni baholashga qaratiladi. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari tomonidan berilgan kol opsiyonlar alohida, put opsiyonlar alohida baholanadi.

Kol opsiyonlar ma'lum miqdordagi valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish huquqini beradi. Put opsiyonlar esa, ma'lum miqdordagi valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotish huquqini beradi.

Valyuta opsiyonlari valyuta forward operatsiyalaridan farqli ravishda o'z egasiga majburiyat yuklamaydi, balki faqat huquq

beradi. Shuning uchun ham valyuta opsiyonlari valyuta riskidan 100% himoyalanish imkonini beradigan yagona moliyaviy instrument hisoblanadi.

Valyuta opsiyonlarining ikki standarti mavjud bo'lib, ularni bank auditii jarayonida hisobga olish shart hisoblanadi. Chunki bu standartlar risk darajasiga ko'ra bir-biridan keskin farqlanadi.

Valyuta opsiyonlarining birinchi standarti Yevropa standarti deb ataladi va bu opsiyonlar o'z egasiga faqat shartnoma muddati tugagandan so'ng opsiyondan foydalanish huquqini beradi. Valyuta opsiyonlarining ikkinchi standarti esa, Amerika standarti deyiladi va mazkur opsiyonlar o'z egasiga opsiyon shartnomasi muddatining istalgan vaqtida opsiyondan foydalanish huquqini beradi. Demak, valyuta opsiyonlarining amerika standartida risk darajasi yevropa standartiga nisbatan yuqori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining tijorat banklarida valyutalarni sotib olish maqsadida berilgan opsiyonlar 92728-«Opsiон bitimi bo'yicha sotib olish» hisob raqamining debitida va 96379-«Opsiон bo'yicha sotib olish kontr hisobvrag'i»ning kreditida hisobga olinadi.

Tijorat banklarining valyuta opsiyonlaridan oladigan daromadlari 45404-hisob raqamining kreditida, opsiylardan ko'tilgan zararlar esa, 55306-hisob raqamining debitida hisobga olinadi.

Muddatli valyuta operatsiyalarining uchinchi shakli valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari hisoblanadi.

Valyuta fyucherslari valyutalarni sotib olish yoki sotish to'g'risidagi shartnoma bo'lib, ular bo'yicha hisob-kitoblar faqat kliring palatalari orqali amalga oshiriladi. Kliring palatalari tijorat banklaridan avans to'lovlarini o'tkazishni talab qiladi. Avans to'lovlarini fyucherslar yuzasidan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning uzlusizligini ta'minlash maqsaidda o'tkaziladi. Valyuta fyucherslari valyuta opsiyonlaridan farqli ravishda ishtirok etuvchi tomonlarga majburiyat yuklaydi.

Valyuta opsiyonlarining egalarida esa, huquq bor, ammo majburiyat mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonunining 9-moddasiga muvofiq, chet el valyutasi bilan bog'liq bo'lgan hosila moliyaviy vositalar (valyuta derivativlari) chet el valyutasi oldi-sotdisi bo'yicha shartnomalar bo'lib, ularda belgilangan majburiyatlar muayyan muddat o'tgach yoki chet el valyutasining qiymatiga yoxud uning kursi o'zgarishiga bog'liq ravishda bajarilishi mumkin.

Chet el valyutasi bilan bog'liq bo'lgan hosila moliyaviy vositalar bo'yicha operatsiyalar:

-vakolatli banklar tomonidan o'zaro yoki chet el banklari iblan cheklavlarsiz, ochiq valyuta mavqeい limiti doirasida;

-agar shartnoma tuzish joriy xalqaro operatsiyalarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lsa, banklarning mijozlari tomonidan vakolatli banklar orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizning tijorat banklarida, shu jumladan, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining faoliyatida valyuta opsiyonlari va fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar mavjud emas.

Agar forward operatsiyalari natijasida valyuta turi bo'yicha qisqa valyuta pozitsiyasi yuzaga kelgan bo'lsa, u holda tijorat bankining xodimlari o'sha valyutani sotib olish bo'yicha forward shartnomasi tuzishlari zarur. Agar forward operatsiyalari natijasida valyuta turi bo'yicha uzun valyuta pozitsiyasi yuzaga kelgan bo'lsa, u holda tijorat bankining xodimlari o'sha valyutani sotish bo'yicha forward shartnomasi tuzishlari zarur.

Agar tijorat bankida valyuta opsiyonlari bo'yicha qisqa pozitsiya yuzaga kelgan bo'lsa, u holda bank emitent sifatida kol opsiyonlar summasini ko'paytirishi lozim. Agar tijorat bankida valyuta opsiyonlari bo'yicha uzun pozitsiya yuzaga kelgan bo'lsa, u holda bank emitent sifatida put opsiyonlar summasini ko'paytirishi lozim.

Valyuta fyucherslari bo'yicha yuzaga kelgan qisqa pozitsiyalarni yopish yoki qisqartirish maqsadida qisqa pozitsiya yuzaga kelgan valyutalarini sotib olish borasida fyuchers shartnomalari tuzish maqsadga muvofiqdir. Agar tijorat banki fyuchers shartnomalari bo'yicha ma'lum bir valyutada uzun pozitsiyaga ega bo'lsa, u holda ushbu valyutani sotish xususida fyuchers shartnomasini tuzish talab etiladi.

Muddatli valyuta operatsiyalarining hajmi sezilarli darajada katta bo'lganda ularning tijorat banklarining ochiq valyuta poiztsiyasiga ta'siri kuchli bo'ladi.

4. Tijorat banklarining haqiqatda amalga oshirilmagan forward operatsiyalari hajmini aniqlash.

Bank amaliyotida mutlaqo amalga oshirilmagan yoki muddatida amalga oshirilmagan forward operatsiyalarining mavjudligi tabiiy holat hisoblanadi. Chunki forward shartnomasida ishtirok etuvchi tomonlardan biri shartnoma muddati tugagan paytda to'lovga noqobil bo'lib qolishi mumkin. Bunga yorqin misol qilib, Rossiya Federatsiyasida 1997-yilda yuz bergan moliyaviy inqirozni keltirish mumkin. Moliyaviy inqiroz natijasida Rossiyaning bir qator tijorat banklari xorijiy banklar oldidagi forward shartnomalari bo'yicha majburiyatlarini bajara olmadilar. Chunki inqiroz natijasida ko'plab tijorat banklarida likvidlilik muammosi yuzaga keldi va buning oqibatida banklar balansining nolikvidliligi yuz berdi.

Rossiya tijorat banklarining nolikvidliligi natijasida xorijiy banklar forward shartnomasi bo'yicha olishi lozim bo'lgan valyuta mablag'larini ololmay qoldilar. Rossiya rublining kursini keskin pasayishi natijasida valyutalarini sotib olish maqsadida tuzilgan forward shartnomalari bo'yicha xorijiy banklarning balansida yirik miqdorda realizatsiya qilinmagan foyda yuzaga keldi va bu summalar forward shartnomalarining muddati tugashi bilan zararga aylandi.

Rossiya rublining kursini keskin pasayishi natijasida AQSH dollari va boshqa xorijiy valyutalarini sotish yuzasidan tuzilgan

forward shartnomalari bo'yicha Rossiya banklarida yirik miqdorda zarar yuzaga keldi. Muddati kelmagan forward valyuta shartnomalari bo'yicha esa, ujda yirik miqdorda realizatsiya qilinmagan zarar yuzaga keldi. Natijada, bir tomondan muddatli valyuta operatsiyalarining tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyasiga nisbatan salbiy ta'siri yuzaga keldi; ikkinchi tomondan esa, tijorat banklarining forward operatsiyalari bilan bog'liq holatda moliyaviy holatini yomonlashishi yuz berdi.

Qayd etish joizki, derivativlar bilan amalga oshiriladigan spekulyativ operatsiyalar yuqori riskli operatsiyalar hisoblanadi va ular tijorat banklariga katta miqdorda zarar keltirishi mumkin. Bunga aniq misol qilib 1995-yil 25-fevralda bankrot deb e'lon qilingan Angliyaning "Berings" bankini keltirish mumkin. Holbuki, ushbu bank 233 yillik tarixga ega edi.

Berings bankning Singapur filiali treyderi Nik Lison bankning passividagi barcha bo'sh turgan pul mablag'larini Singapur fond birjasiga chiqib, Yaponiya korporatsiyalarining fyuchers va opsiyonlarini sotib olishga yo'naltirdi. Oradan 3 kun o'tgandan so'ng Yaponiyaning Kobe shahrida dahshatli zilzila bo'ldi. Zilzila natijasida Yaponiya korporatsiyalarining fyuchers va opsiyonlarining bahosi keskin pasayib ketdi. Natijada, Berings bank 1,3 mlrd. AQSH dollari miqdorida zarar ko'rdi.

Berings bankining Prezidenti dunyoning eng boy odamlaridan biri hisoblangan Bruney sultonini bilan do'st edi. U bankni qutqarib qolish uchun Bruney sultonidan 1,0 mlrd. dollar qarz so'radi. Ammo sulton tavakkal qilishni xohlamadi. Oxir-oqibat 233 yillik tarixga ega bo'lgan Berings bank bankrot bo'ldi.

Forward, fyuchers va opsiyon bitimlari hamda valyutaviy svop muddatli valyuta bozorining instrumentlari hisoblanadi.

4.5. Svop operatsiyasi

Iqtisodiy adabiyotlarda svop operatsiyalarining mazmuni xususida munozarali fikr va mulohazalar mavjud emas. Svop

operatsiyalari deganda, odatda, ma'lum bir valyutani spot sharti bo'yicha sotish va uni forward sharti bo'yicha sotib olish tushuniladi yoki valyutani forward sharti bo'yicha sotish va spot sharti bo'yicha sotib olish tushuniladi.

Svop operatsiyalari quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- valyuta zaxiralarini valyuta riskidan himoya qilish;
- likvidlilikni boshqarish;
- ochiq valyuta pozitsiyasini qisqartirish.

Shunisi xarakterlikni, svop operatsiyalari valyuta zahiralarini valyuta riskidan ishonchli tarzda himoya qiladi, ammo yuqori daromad keltirmaydi. Chunki bu operatsiyalarda doimo ikkita bir-biriga qarama-qarshi operatsiya mavjud bo'ladi.

Tijorat banklarining svop operatsiyalarini tekshirishda va baholashda svopga xos bo'lgan har ikkala shartni to'g'ri amalga oshirilganligiga e'tibor beriladi. Ya'ni valyutani spot sharti bo'yicha sotilganligi va forward sharti bo'yicha sotib olinganligi yoki valyutani forward sharti bo'yicha sotilganligi va spot sharti bo'yicha sotib olinganligi tekshiriladi.

Svop operatsiyalari respublikamizning bir qator tijorat banklarida, shu jumladan, TIF Milliy bankida, «Asaka» bankida mavjuddir.

Svop operatsiyalari bo'yicha tijorat banklarining «Nostro» vakillik hisobvaraqlaridagi ortiqcha valyuta mablag'larini joylashtirish valyuta riskini boshqarishning samarali usuli hisoblanadi. Har qanday tijorat banki xorijiy valyutadagi ortiqcha mablag'larni svop operatsiyasi bo'yicha joylashtirish uchun to'rtta ketma-ketlikdagi operatsiyani bajaradi. Biz bu operatsiyalarni aniq bir misol yordamida ko'rib chiqamiz.

Misol. Aytaylik, TIF Milliy bankining AQSH dollaridagi Nostro vakillik hisobvarag'ining minimal ishchi qoldig'i 2,0 mln dollarni tashkil etadi. AQSHning «CitiCorp» banki TIF Milliy bankining muddatli depozitlari bo'yicha 100 ming dollar miqdorida foiz to'ladi. Bizga ma'lumki, depozitlar uchun to'langan foizlar tijorat banki «Nostro» vakillik hisob raqamiing

debetida aks ettiriladi. Demak, TIF Milliy bankining AQSHning «CitiCorp» bankidagi «Nostro» vakillik hisob raqamining minimal ishchi qoldig'i 100 ming dollarga ko'paydi va 2,1 mln. AQSH dollarini tashkil qildi. Ana shu 100 ming dollar miqdoridagi bank vakillik hisob raqamining ortiqcha qoldig'ini svop bo'yicha joylashtirish uchun quyidagi to'rt operatsiyani bajaramiz:

1. TIF Milliy bankining xodimlari 100 ming AQSH dollari miqdoridagi mablag'ni yetakchi, valyuta kursi barqaror bo'lgan valyutalardan biriga spot sharti bo'yicha sotadi. Aytaylik, bank bu operatsiyani 2012-yilning 10-may kuni amalga oshirdi. Ya'ni, 100 ming dollar spot sharti bo'yicha Shveytsariya frankiga sotildi. Spot kurs: 1 dollar = 1,4790 frank. Natijada TIF Milliy banki 12 may kuni 147900 shveytsar franki miqdoridagi tushumga ega bo'ladi. Mazkur operatsiyadan keyin TIF Milliy bankining AQSHning «CitiCorp» bankidagi «Nostro» vakillik raqami 100 ming dollarga kreditlanadi, uning dollardagi pozitsion hisob raqami ana shu summaga debetlanadi.

2. TIF Milliy banki 147900 frank miqdoridagi tushumni Shveytsariyaning «Kredit Swiss» bankiga muddatli depozit sifatida joylashtiradi. Muddatli depozitning muddatini 3 oy deb oladigan bo'lsak, bu muddat 12 avgustda tugaydi.

3. TIF Milliy banki xorijiy bank bilan 100 ming AQSH dollari sotib olish uchun 3 oylik forward shartnomasini tuzadi. Forward shartnomasining muddati 2005-yilning 12-avgustida tugaydi. Muddatli depozit shartnomasi bilan forward shartnomasining muddati mos kelishi lozim.

4. TIF Milliy banki 2012-yilning 12-avgustida Shveytsariya frankidagi muddatli depozitni hisoblangan foizlari bilan birgalikda qaytarib oladi va bu summa hisobidan 100 AQSH dollarini forward kursi bo'yicha sotib oladi.

Valyuta operatsiyalarini tahlil qilish jarayonida tijorat banklarining valyuta mablag'larini svop bo'yicha joylashtirish operatsiyalarini to'g'ri amalga oshirilganligi tekshirish, muddatli

valyuta operatsiyalarining bankning ochiq valyuta pozitsiyasiga ta'sirini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, tahlil jarayonida tijorat banki valyuta pozitsiyasining umumiy miqdorini qancha qismini muddatli valyuta operatsiyalari hisobiga shakllanganligini aniqlab olish lozim. Undan keyin esa, har bir valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyalarining muddatli valyuta operatsiyalari hisobiga shakllanganligi aniqlaymiz.

Svop operatsiyalari 6 oydan 15 yilgacha muddatga amalga oshiriladi.

Ammo 1 yildan 4 yilgacha muddatga amalga oshiriladigan svop operatsiyalari keng qo'llaniladi.

Agar svop operatsiyasi bitta bank bilan amalga oshirilsa, bu so'f svop (pure swap) deb ataladi.

Svop bozori 1981-yilda paydo bo'ldi. Unga qadar svop bozori mavjud emas edi.

Svop bozori birjadan tashqari bozor bo'lib, davlat tomonidan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining valyutaviy svop operatsiyalari "O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvinining 2008-yil 28-iyundagi 15/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 24-iyulda 1839-son bilan ro'yxatga olingan va 2011-yil 3-iyunda 1839-1-son bilan qo'shimcha kiritilgan.

Nizomga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirishda chet el valyutasi sifatida AQSH dollari, yevro, Angliya funt sterlingi, Shveytsariya franki va Yaponiya ienasidan foydalaniadi;

- valyutaviy svop operatsiyasi so'm va chet el valyutasi bilan, shuningdek, ikki chet el valyutasi bilan amalga oshiriladi;

- Markaziy bank bilan vakolatli banklar o'rtasidagi, shuningdek, vakolatli banklarning o'zaro valyutaviy svop operatsiyalari Savdo tizimida tuziladi va bajariladi

-vakolatli banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi valyutaviy svop operatsiyalari bevosita banklarda amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomga muvofiq:

- so'm bo'yicha foiz stavkalari Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi miqdorida yoki O'zbekiston banklari assotsiatsiyasining banklararo kredit stavkasi bo'yicha o'matilishi mumkin;

- dollar, funt sterling, ien bo'yicha foiz stavkalari sifatida mazkur mamlakatlar Markaziy banklarining qayta moliyalash stavkalari olinadi;

- Shveytsariya franki bo'yicha foiz stavkasi sifatida 3 oylik LIBOR olinadi.

4.6. Valyuta riski va uni boshqarish usullari

Valyuta riski deganda, valyutalarning almashuv kurslarining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfi tushuniladi.

Valyuta riskining quyidagi turlari mavjud:

1. Almashuv kursining o'zgarish riski – almashuv kursining kutilmaganda o'zgarishi natijasida xorijiy valyutaga qilingan qo'yilmalar qiymatining pasayish xavfi.

2. Konvertirlash riski – valyuta-almashuv operatsiyalarini amalga oshirishga nisbatan cheklovlardan o'matish bilan bog'liq bo'lgan risk.

3. Iqtisodiy risk – kelajakda valyuta ayirboshlash kurslarining o'zgarishi natijasida xorijiy valyutadagi aktivlar va majburiyatlarning milliy valyutadagi qiymatining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfi.

4. Konversion riski – aniq operatsiyalar bo'yicha valyutaviy yo'qotishlar xavfi.

Konversion risklarga quyidagilar kiradi:

- ochiq valyuta pozitsiyalari riski;
- o'tkazmalar riski;
- tranzaksiya riski.

Ochiq valyuta pozitsiyalari riski bankning xorijiy valyutadagi talablari va majburiyatlarining miqdorlari o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelganda paydo bo'ladi.

O'tkazmalar riski – kompaniyalar va banklarning xorijiy valyutadagi aktivlari va passivlarining qiymatini valyutalar kursining o'zgarishi natijassida pasayishi xavfidir.

Tranzaksiya riski – bu valyuta kursining o'zgarishini to'lovlarning kelgusidagi oqimiga ta'siri natijasida zarar ko'rish xavfidir.

5. Translyatsion risk – bu kompaniya yoki bankning xorijiy valyutadagi aktivlari va passivlarini qayta baholash natijasida zarar ko'rish xavfidir.

XX asrning 70-yillariga qadar jahon amaliyotida valyuta riski muammosi mavjud bo'lмаган. Chunki, Bretton-Vuds jahon valyuta tizimida (1944-y.) qat'iy belgilangan kursslari tizimi joriy qilingan edi va bunda valyutalarning kursslari valyuta paritetidan tebranish chegarasi belgilab qo'yilgan edi.

Yamayka jahon valyuta tizimida (1976-1978-yy.) qat'iy belgilangan kursslari tizimining bekor qilinishi va yetakchi valyutalarning barchasini erkin suzish rejimiga o'tishi xalqaro valyuta munosabatlarida valyuta riski muammosining yuzaga kelishiga va chuqurlashishiga sabab bo'ldi.

Valyuta riski darajasiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillarni iqtisodiy va siyosiy omillarga ajratish mumkin.

Iqtisodiy omillarga mamlakatda va xalqaro miqyosda iqtisodiy konyunkturaning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan omillar (jahon iqtisodiy va valyuta inqirozlarining yuz berishi, mamlakatning tashqi qarzining oshib ketishi, inflyatsiyaning kuchayishi va h.k.) kiradi. Siyosiy omillarga esa, urushlar,

mamlakatda siyosiy vaziyatning yomonlashishi kabi omillar kiradi.

Valyuta riski xalqaro valyuta munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga, moliyaviy barqarorligiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltirishi mumkin. Buning sababi shundaki, valyutalarning almashuv kurslarining o'zgarishi natijasida olinayotgan valyuta tushumlarining qiymati pasayadi, kompaniyalar va banklarning balansida yirik miqdorda zararlar yuzaga keladi. Shu sababli, kompaniyalar va banklar valyuta riskidan himoyalanish maqsadida turli-tuman moliyaviy instrumentlardan va usullardan foydalanishadi. Xususan, forward bitimlari, valyuta opsiyonlari va fyucherslari, valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish, ochiq valyuta pozitsiyasi haajmini cheklash kabi instrumentlar va usullar valyuta riskini boshqarishda keng qo'llaniladi.

Tijorat banklarining faoliyatidagi valyuta riski muammo-sining chuqurlashishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida Markaziy banklar tomonidan ularning ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan limitlar belgilanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan quyidagi cheklovlar belgilangan:

1. Tijorat bankining bitta valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasining miqdori uning regulyativ kapitalining 10 foizidan oshib ketmasligi lozim.

2. Tijorat bankining barcha valyutalardagi yakuniy ochiq valyuta pozitsiyasining miqdori uning regulyativ kapitalining 20 foizidan oshib ketmasligi lozim.

Rossiya Federatsiyasida ham tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan Markaziy bank tomonidan belgilangan limit me'yori mos ravishda 10% va 20% qilib belgilangan¹.

¹Банковский менеджмент. Учебник. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2011.- С. 439.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi valyuta riskini boshqarishda “valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish” usulidan keng foydalaniadi.

Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilishning ikki xil talqini mavjud.

Birinchi talqinda valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish deganda, bir vaqtning o‘zida bir nechta valyutalarda zaxiralar tashkil qilish tushuniladi.

Ikkinchi talqinga ko‘ra, valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish deganda, nobarqaror valyutalarni sotib, ularning o‘rniga barqaror valyutalarni sotib olish yo‘li bilan valyuta zaxiralarining tarkibini yangilash tushuniladi.

Shuningdek, valyuta riskini boshqarishda forward valyuta shartnomalaridan, valyuta opsiyonlari va fyucherslaridan keng foydalaniadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Vakillik munosabatlari; Nostro; Vostro; spot; forward; fyuchers; opsiyon; svop; autrayt; realizatsiya qilinmagan foyda; realizatsiya qilinmagan zarar; milliy valyuta bozori; mintaqaviy valyuta bozori; jahon valyuta bozori; valyuta riski; valyuta pozitsiyasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Valyuta bozori nima va uning qanday turlari mavjud?
2. Valyuta bozorining qanday segmentlari mavjud?
3. Milliy valyuta bozorida milliy valyutaning nominal almashuv kursi qanday shakllanadi?
4. Spot operatsiyasi qay tartibda amalga oshiriladi?
5. Spot kurs qanday aniqlanadi?
6. Forward operatsiyasi qay tartibda amalga oshiriladi?
7. Forward kursi qanday aniqlanadi?

8. Svop operatsiyasining mazmuni nimadan iborat?
9. Tijorat bankining valyuta operatsiyasi qaysi mezonlar asosida turkumlanadi?
10. Banklararo vakillik munosabatlari qanday o'matiladi?
11. Valyuta riskining darajasi qanday aniqlanadi?
12. Banklarning ochiq valyuta pozitsiyasi qanday tartibga solinadi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Milliy valyuta bozorining amal qilish mexanizmi.
2. Mintaqaviy valyuta bozorining amal qilish mexanizmi.
3. Juhon valyuta bozorining amal qilish mexanizmi.
4. Spot operatsiyalarini amalga oshirish tartibi.
5. Forward operatsiyalarini amalga oshirish tartibi.
6. Svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi.
7. Tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyasi va uni tartibga solish.
8. Valyuta riski va uning turlari.
9. Tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyasi.

V BOB. VALYUTA SIYOSATI

5.1. Valyuta siyosati tushunchasining mazmuni

Valyuta siyosati – bu valyuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarning yig'indisidir.

Valyuta siyosatining ikki shakli mavjud:

1. Diskont siyosati
2. Deviz siyosati

Diskont siyosati – bu Markaziy bankning diskont stavkasini o'zgartirish orqali milliy valyutaning nominal almashuv kursiga va to'lov balansiga ta'sir etish siyosatidir.

Markaziy bankning diskont stavkasi – bu Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga va hukumatga beriladigan kreditlarning foiz stavkasidir.

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi ssuda kapitallari bozoridagi depozitlar va kreditlarning bozor stavkalariga ta'sir etuvchi monetar indikatorlardan biri bo'lganligi sababli, uning ma'lum davriy oraliqlarda o'zgartirilmasdan saqlab turilishi bank kreditlari foiz stavkalarining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari kreditlari foiz stavkalarining barqarorligini ta'minlash iqtisodiyotning real sektorini kreditlash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, korxonalarning kredit to'lovleri miqdori oshib ketishining oldini oladi, qayta moliyalash siyosatining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini aniq baholash imkonini oshiradi.

Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining barqarorligi borasida Yaponiya Markaziy bankining tajribasi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. 2006-yilning noyabr oyida Yaponiya Markaziy bankining hisob stavkasi so'nggi besh yil ichida birinchi marta o'zgardi¹.

¹ <http://lenta.ru/news/2007/02/21/japan/>

O'zbekiston Respublikasi xo'jalik amaliyotida milliy valyutada emissiya qilingan trattalar muomalasining mavjud emasligi mamlakatimiz Markaziy banki diskont siyosatini shakllantirish imkonini bermaydi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasining muomaladagi pul massasiga ta'sir etish darajasi va milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyatini pasaytiradi.

Deviz siyosatining shakllari:

1. Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish
2. Devalvatsiya
3. Revalvatsiya
4. Valyutaviy cheklashlar

Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish – bir vaqtning o'zida bir nechta xorijiy valyutalarda zaxiralar tashkil qilish tushuniładi.

Devalvatsiya – bu milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan qadrsizlanishidir.

Revalvatsiya – bu milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan qadrining oshishidir.

Valyutaviy cheklashlar – bu joriy valyuta operatsiyalari va kapitallarning harakati bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarga nisbatan cheklavlarning joriy qilinishidir.

Mavjud rasmiy ma'lumotlar tahliliga ko'ra, O'zbekistonda 2007-2012-yillarda so'mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursining devalvatsiyalanish darajasi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2012-yilga kelib so'mning devalvatsiyalanish sur'ati 2007-yilga nisbatan 6,4 foizga oshgan. Biroq, devalvatsiya sur'atlari jadallahsgan bo'lsa-da, inflyatsiya keskin tus olmagan. Ayni paytda, Markaziy bankning pul-kredit siyosati inflyatsiyaning belgilangan maqsadli mo'ljali doirasida bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

Shu bilan birga alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biri shundaki, moliyaviy barqarorlik

sharoitida milliy valyuta almashuv kursini sun'iy ravishda yuqori ushlab turish orqali uning asosiy savdo hamkor davlatlari valyutalariga nisbatan real almashuv kursining oshib ketishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Zero, bu mamlakat ichida xalqaro valyuta zaxiralarining kamayishiga hamda eksport tovarlar raqobatbardoshligi tushib ketishiga olib keladi.

Milliy valyuta qadri oshib, revalvatsiya bo'lishi kutilayotgan bo'lsa-da, mamlakat iqtisodiy siyosati talablaridan kelib chiqqan holda bu kurs mamlakat iqtisodiyoti uchun kerak bo'lmasligi mumkin. Bunday holatda Markaziy bank valyuta intervensiysi orqali mamlakat iqtisodi uchun zarur bo'lgan almashuv kursini ta'minlashi mumkin. Masalan, Yaponiyada milliy valyuta qadri oshishiga yo'l qo'yilmaydi. Chunki, iena qadri oshsa, mamlakat eksportyorlarining jahon bozoridagi narx bo'yicha raqobatdoshligi pasayadi, bu esa, o'z navbatida, mamlakat eksportining kamayishiga va oxir-oqibatda valyuta tushumining ozayishiga, qolaversa, tashqi savdo balansining salbiy tomonga o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Shu bois ham Yaponiya hukumati eksportga yo'naltirilgan kurs siyosatini yuritgan holda ienaning revalvatsiya bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, vaholanki, ienaning revalvatsiya bo'lishiga barcha imkoniyatlar mavjud.

Milliy valyuta kursining iste'mol tovarlarining bahosiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'siriga barham berish markaziy banklarning valyuta siyosatida muhim o'rinnegallaydi. Buning boisi shundaki, inflyatsiya va valyuta kursi o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Odatda, milliy valyuta kursining pasayishi kelgusida inflyatsiyaning o'sishiga olib keladi. Inflyatsion tazyiq foiz stavkalarining o'sishi bilan susayishi mumkin, ammo foiz stavkalarining oshishi investitsion va iste'molchi talabining pasayishiga olib kelishi mumkin. Agar milliy valyutaning qadrsizlanishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya portfelining o'zgarishi natijasi bo'lsa, u holda, bunday qadrsizlanish yuqori darajadagi inflyatsiyani yuzaga keltirishi mumkin. Bunday sharoitda foiz

stavkalarining o'sishini ta'minlash inflyatsiyani jilovlashning oqilona yo'li hisoblanadi. Agar milliy valyutaning qadrsizlanishi tashqi savdo shartlarining o'zgarishi oqibati bo'lsa, u holda foiz stavkalari pasaytirilishi lozim. Chunki bunday sharoitda sof eksport va umumiy talab qisqaradi.

Shunisi xarakterlik, milliy valyutaning qadrsizlanishi umumiy talabning qisqarishiga olib kelgan sharoitda Markaziy bank tomonidan restriksion pul-kredit siyosatining qo'llanilishi milliy iqtisodiyotning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, YAIMning o'sish sur'ati sekinlashadi.

5.2. Hukumatning valyuta siyosati

Hukumat o'zining valyuta siyosati doirasida milliy valyuta bozorini rivojlantirish, mamlakatning eksport salohiyatini yuksaltirish, valyuta nazorati tizimini takomillashtirish maqsadlarini ko'zda tutadi.

O'zbekistonda muddatli valyuta shartnomalari bozorini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-iyundagi 263-sonli «Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori muhim rol o'ynadi. Mazkur qarorga ko'ra, birjadan tashqari valyuta bozorini barqaror rivojlantirish uchun erkin muomaladagi valyutada Birlashgan barqarorlashtirish jamg'armasi tashkil etildi. Tijorat banklarining jalb etiladigan bo'sh valyuta mablag'larini Birlashgan barqarorlashtirish jamg'armasiga yo'naltirishda olinadigan marja summasi vakolatli banklar daromadlarining soliq solinadigan bazasidan chiqarib tashlanadigan bo'ldi.

“O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 12-iyuldagagi 247-sonli «Birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorini qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan birjadan tashqari valyuta bozorini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Mazkur qarorga muvofiq, 2002-yil 16-iyuldan boshlab import iste'mol tovarlari va xizmatlarni (shu jumladan transport va aloqa) sotishdan olingan so'mdagi tushumni konvertatsiya qilish tijorat banklari tomonidan, erkin kurs bo'yicha xorijiy valyutaga talab va taklifdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan bo'ldi. Bundan tashqari, iste'mol tovarlari va xizmatlarni import qilish yuzasidan mazkur qaror chiqishidan oldin tuzilgan va vakolatli banklar tomonidan hisobga qo'yilgan kontraktlarni bajarishni ham tijorat banklari tomonidan, erkin kurs bo'yicha xorijiy valyutaga talab va taklifdan kelib chiqqan holda, amalga oshirishning lozimligi belgilab qo'yildi.

O'zbekistonda 2003-yilning 15-oktabridan boshlab joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha cheklovlar bekor qilindi. Chunki, 2003-yil 8-oktabrda O'zbekiston hukumati Xalqaro valyuta fondi nizomining VIII-moddasi bo'yicha majburiyatlarni qabul qildi.

Xalqaro valyuta tizimi evolyutsiyasi jarayonida, vaqt o'tishi bilan «konvertatsiya qilinishi» tushunchasi ham o'zgarib bordi. Hozirgi vaqtida, valyutaga egalik qilayotgan har qanday shaxs uni bozordagi – qat'iy belgilangan, yoki suzib yuruvchi kurs bo'yicha uni xalqaro zahira valyutalaridan biri (AQSH dollari, Yevro va sh.k.)ga konvertatsiya qilish huquqiga ega bo'lishiga – valyutaning «to'liq konvertirlanishi» deyiladi.

Umuman, konvertatsiyani joriy etilishi xorijiy valyutani ma'muriy usul bilan taqsimlashni kamaytiradi deb hisoblanadi. Milliy valyutaning konvertatsiya qilinishi esa mamlakat iqtisodiyoti ochiqligi va iqtisodiy erkinlik ramzlaridan bo'lib, u og'ir vazifalarni hal etilishi bilan bog'liq bo'lgan islohotlar dasturini jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanishida muhim o'rinni tutishi mumkin.

Valyutalarning konvertirlanishiga doir cheklovlar odatda, tashqi savdo cheklovlari va kapitallar harakatiga oid cheklovlar, bir-biridan alohida tarzda o'rganilgan edi. Bu hol, ushbu cheklovlarning ikki shakli bir-biridan mustaqil ravishda va turli

xil sabablarga ko'ra joriy etilishi bilan bog'liq ham bo'lishi mumkin.

Odatda, valyuta cheklovleri, ko'pchilik mamlakatlarda tashqi hisob-kitoblarga doir operatsiyalarning keng doirasini o'z ichiga oladi va ular qat'iy ravishda olib boriladi. Bu hol, valyuta resurslari etishmovchiligi va ularni ishlatalishni o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yo'nalishiga muvofiq holda tartibga solish zaruriyati bilan bog'liqdir. 80-yillar boshida XVFga a'zo – 113 ta mamlakatdan 95 tasida to'lov balansi joriy operatsiyalari, 91 ta mamlakatda esa – kapitallar harakati bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha valyuta cheklovleri mavjud edi.

Valyuta cheklovleri shakllari turli xil shaklda bo'lishi mumkin. Odatda, tashqi savdoda mahsulot eksport qiluvchilarga valyuta tushumining barchasi yoki uning bir qismini Markaziy bank yoki vakolatli banklarga rasmiy kurs bo'yicha topshirish talabi keng qo'llaniladi.

Valyuta cheklovleri quyidagilarni nazarda tutadi:

- ◆ chet elga to'lovlarini o'tkazilishi, kapitalni olib chiqib ketilishi, foydani, oltinni, pul belgilari va qimmatli qog'ozlarni repatriamiya qilinishini tartibga solish;
- ◆ davlatga majburiy tarzda xorijiy valyutani topshirilishi (rasmiy kurs bo'yicha milliy valyutaga ayrboshlash evaziga).

Quyidagilar amaliyotda qo'llaniladi:

- ◆ import qiluvchilarga xorijiy valyutani sotilishini litsenziyalash;
- ◆ valyuta qimmatliklarini davlat idoralarining maxsus ruxsatnomasisiz olib kirilishi va olib chiqib ketilishini man etilishi;
- ◆ jismoniy shaxslarning xorijiy valyutadagi mablag'larga egalik qilishi va tasarruf etishini cheklash;
- ◆ chet elga shaxsiy daromadini o'tkazishni tartibga solish;
- ◆ sug'urta va boshqa to'lovlarini amalga oshirish;
- ◆ chet elga chiqishda milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirilishini limitlash.

Ichki ayirboshlanish deganda rezidentlarning mamlakat ichkarisida xorijiy valyutadagi muayyan aktivlar (masalan, bank depozitlari)ni saqlash va tegishli tarzda milliy valyutani mamlakat ichkarisida konvertatsiya qilish huquqi mavjud bo‘lgan ahvol tushuniladi. Ammo, mamlakat ichkarisida valyutaga ega bo‘lish va uni ayirboshlash bo‘yicha ushbu huquq mamlakat ichkarisida valyuta to‘lovlarini amalga oshirilishiga ruxsat berilishi, shuningdek, chet elga to‘lovlarni o‘tkazilishi yoki xorijda joylashtirilgan aktivlarga egalik qilishni nazarda tutmaydi.

5.3. Markaziy bankning valyuta siyosati

Markaziy bankning valyuta siyosati doirasida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining uch asosiy turi xalqaro bank amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Ular quyidagi operatsiyalardan iboratdir:

1. Valyuta intervensiyasini amalga oshirish maqsadida o‘tkaziladigan operatsiyalar.

Valyuta intervensiysi doirasida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari xorijiy valyutani milliy valyutaga sotib olish va sotish operatsiyalaridan iboratdir. Respublikamizda intervensiya vositasi sifatida ishlatilayotgan bazaviy valyuta AQSH dollari bo‘lganligi sababli, shu maqsadda amalga oshirilayotgan operatsiyalar AQSH dollarini sotib olish va sotish operatsiyalaridan iboratdir.

Odatda, markaziy banklar valyuta intervensiysi samaradorligini ta’minlash maqsadida intervensiya fondidan sotilgan xorijiy valyutadagi mablag‘larning miqdorini va intervensiya hisobarqamining qoldig‘ini sir tutadilar. Buning sababi shundaki, valyuta intervensiysi samaradorligi deganda uning vositasida milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan almashuv kursining favqulodda va keskin tebranishiga barham berish hisoblanadi. Agar xo‘jalik yurituvchi subyektlar Markaziy bank tomonidan xorijiy valyutani sotish hajmining

o'sib borishi sharoitida milliy valyutaning qadrsizlanishi davom etayotganligini sezib qolsalar, bu holat valyuta bozorida psixologik vahima holatini yuzaga keltiradi va buning natijasida xorijiy valyutaga bo'lgan talab keskin ortishi mumkin. Bunga xalqaro amaliyotdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, 1992-yilning sentyabr oyida G'arbiy Yevropadagi valyuta bozorlarida yuz bergen inqiroz natijasida Buyuk Britaniya funt sterlingi va Italiya lirasi nominal almashuv kursining keskin pasayib ketishi natijasida ular Yevropa valyuta tizimidan (YEVT) chiqib ketdi. Buning sababi shundaki, Angliya va Italiya markaziy banklari o'z milliy valyutalari kurslarining favqulodda tebranishiga valyuta intervensiysi orqali barham berishning uddasidan chiqa olmadilar. Masalan, Angliya Markaziy banki valyuta intervensiysi doirasida AQSH dollarini sotish hajmini oshirishi bilan London valyuta bozori ishtirokchilari tomonidan AQSH dollarini sotib olish hajmi ham oshib bordi. Buning oqibatida valyuta intervensiysi samara bermadi. Chunki bozorda psixologik vahima kuchli edi. Bu esa, bozorda AQSH dollariga nisbatan kuchli talabni yuzaga keltirdi.

Valyuta intervensiysini amalga oshirishning muhim zaruriy shartlaridan biri Markaziy bankning yetarli darajada oltin-valyuta zaxiralariga ega bo'lishi hisoblanadi. Bu yerda yetarli darajada deyilganda Markaziy bank oltin-valyuta zaxiralarining milliy, valyutaning favqulodda keskin tebranishiga barham berishga yetadigan darajadagi miqdori nazarda tutilmoqda. Ushbu zaruriy shartni bajarish imkoniyati hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida mavjud. 2013-yil yakunlari bo'yicha, O'zbekiston Respublikasida davlatning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni tashkil etgani holda, tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi 1 mlrd. 330 mln. AQSH dollarini tashkil etdi¹.

¹ Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. - B. 5; 8.

Valyuta intervensiyasini amalga oshirishning ikkinchi sharti bo'lib, Markaziy bankning milliy valyuta almashuv kursini xorijiy valyutaga nisbatan ma'lum nisbatda saqlab turish majburiyatining mavjudligi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, milliy valyuta belgilangan kurs rejimi yoki boshqariladigan suzish rejimiga ega bo'lishi lozim. Lekin shunday paradoksal holat ham mavjudki, unga ko'ra, Markaziy bank etarli oltin-valyuta zaxiralariga ega bo'lmasa, u holda, uning erkin suzish rejimiga o'tishdan boshqa iloji qolmaydi.

2. Hukumatning tashqi qarzini to'lash bo'yicha Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari.

Ma'lumki, rivojlangan sanoat mamlakatlarida, xususan, AQSH, GFR, Fransiyada hukumat xorijiy valyutalarda zaxiralarga ega emas, chunki bu mamlakatlarda davlatga tegishli barcha oltin-valyuta zaxiralari Markaziy bankning balansiga qonuniy asosda o'tkazilgan. Bunday sharoitda hukumatning tashqi qarzi Markaziy bankning balansidagi oltin-valyuta zaxiralari hisobidan to'lanadi. To'lov amalga oshirilgandan so'ng, Markaziy bank, xorijiy valyutada to'langan mablag'ning milliy valyutadagi ekvivalentini hukumatning joriy hisob raqamidan chegirib oladi. Hukumatning tashqi qarziga xizmat ko'rsatishning mazkur shakli hukumatning tashqi qarz botqog'iga botib qolishdan saqlaydi. Chunki Markaziy bank hukumatning to'lanishi lozim bo'lgan tashqi qarzining milliy valyutadagi ekvivalenti mavjud bo'lmasan sharoitda to'lov topshiriqnomasini qabul qilmaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hukumatning tashqi qarziga xizmat ko'rsatishning mazkur tartibidan foydalanishda Markaziy bankning iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqilligining ta'minlanganligi muhim rol o'ynaydi. Chunki Markaziy bankning mustaqilligi to'liq ta'minlangan sharoitdagina uning Prezidenti hukumatning tashqi qarzini qonuniy to'lanishini talab qila oladi. Aks holda, Hukumat Markaziy bankni tashqi qarzni to'lashga majbur qiladi. Bunday

sharoitda hukumat Markaziy bank kreditlaridan tashqi qarzni to'lashda manba sifatida foydalanishi mumkin.

3. Markaziy bankning balansidagi oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish operatsiyalari.

Xalqaro bank amaliyoti tajribalarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda, Markaziy bank o'zining balansidagi oltin - valyuta zaxiralarini boshqarishda asosan quyidagi usullardan foydalanadi:

- valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish usuli;
- valyutaviy svop operatsiyalaridan foydalanish;
- Gold svop operatsiyalaridan foydalanish;
- ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartirish.

Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish deganda tarixan bir vaqtning o'zida bir nechta yetakchi va barqaror valyutalarda zaxiralar tashkil qilish tushuniladi. Shuningdek, valyuta zaxiralarining tarkibini nobarqaror valyutalarni sotish va ularning o'miga barqaror valyutalarni sotib olish yo'li bilan yangilash operatsiyalari ham valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish deyiladi. Fikrimizcha, bu e'tirof mantiqan asoslidir. Chunki valyuta zaxiralarining tarkibini oldi-sotdi operatsiyalari orqali yangilash valyuta zaxiralarining diversifikatsiya darajasini oshiradi va valyuta zaxiralarining riskka uchrash xavfini pasaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning zamонавиј bosqichida milliy valyuta bozorida oldi-sotdi obyekti vazifasini AQSH dollarari bajarayotganligi, xo'jalik yurituvchi subyektlar xorijiy valyutadagi zaxiralarining 80 foizdan ortiq qismini AQSH dollarida shakllanganligi, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan chet el valyutasida berilgan kreditlarning 66 foizdan ortiq qismini (2006-yilning 1-yanvar holatiga) AQSH dollarida berilganligi¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi.

xorijiy valyutalardagi zaxiralarining diversifikatsiya darajasini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutaviy svop va Gold svop operatsiyalari orqali milliy valyuta bozoridagi xorijiy valyutalar taklifiga real tarzda ta'sir etishi mumkin. Chunki, birinchidan, O'zbekiston oltin qazib chiqaruvchi va sotuvchi 10 yetakchi davlatdan biri hisoblanadi, bu esa Markaziy bank aktivlarining sezilarli qismini oltinda shakllantirish imkonini beradi; ikkinchidan, Markaziy bank svop operatsiyalarini amalga oshirish uchun texnik va moliyaviy imkoniyatlarga ega; uchinchidan, ichki valyuta bozoridagi operatsiyalarning 90 foizidan ortiq qismi respublika valyuta birjasida amalga oshiriladi, bu esa, Markaziy bankka xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning o'zgarishini doimiy tarzda samarali monitoring qilish imkonini beradi.

Oltinni xalqaro oltin bozorlarida (asosan London va Syurix bozorlarida) qulay bozor baholarida sotish malakali mutaxassislarining mavjud bo'lishini taqozo etadi, mabodo, respublikamiz Markaziy bankida bunday kadrlarning, ya'ni oltin savdosi bilan shug'ullanuvchi kadrlarning yetishmasligi muammosi mavjud bo'lsa, u holda Gold svop operatsiyalarini Xalqaro hisobkitoblar banki orqali amalga oshirish mumkin. Halqaro hisobkitoblar banki markaziy banklarga valyutalar va oltindagi zaxiralarni svop sharti bo'yicha joylashtirish, depozit-ssuda operatsiyalarini amalga oshirishda amaliy yordam ko'rsatadi.

Shuningdek, Markaziy bank O'zbekiston hukumatiga, uning xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlar bo'yicha bergen kafilliklari bo'yicha majburiyatlarini bajarishda, Gold svop operatsiyalari orqali amaliy yordam ko'rsatishi mumkin. Ya'ni, Markaziy bank hukumatning xorijiy valyutadagi to'lovlari uchun zarur bo'lgan miqdordagi tushumni olish imkonini beradigan miqdordagi oltinni spot sharti bo'yicha sotadi. Xorijiy valyutada olingan tushumni esa Hukumatga beradi. Undan keyin esa, Markaziy bank bilan Hukumat o'rtaida tuzilgan to'lov

shartnomasining muddatidan kelib chiqqan holda, Markaziy bank xorijiy bank bilan forward valyuta shartnomasini tuzadi. Forward shartnomasining muddati tugashi bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Hukumatdan olingan xorijiy valyutadagi tushum hisobidan oltinni forward kursi bo'yicha sotib oladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan 2005-yilning 31-avgustidan boshlab quyidagi cheklovlar o'matildi:

1. Tijorat bankining bitta valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasining miqdori uning regulyativ kapitalining 10 foizidan oshib ketmasligi lozim.

2. Tijorat bankining barcha valyutalardagi yakuniy netto valyuta pozitsiyasining miqdori uning regulyativ kapitalining 20 foizidan oshib ketmasligi lozim¹.

Tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan belgilangan mazkur cheklovlarining me'yoriy darajasini turli davlatlarda bir-biridan keskin farqlanmasligining sababi shundaki, tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan metodikaning mualliflari bo'lib xalqaro Bazel qo'mitasining ekspertlari hisoblanadi. Respublikamiz bank amaliyotida qo'llanilayotgan cheklovlarining me'yoriy darajasi bilan G'arbiy Yevropa mamlakatlariada qo'llanilayotgan cheklovlarining me'yoriy darajalarida yaqinlik mavjud.

Milliy valyuta kursining iste'mol tovarlarining bahosiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'siriga barham berish markaziy banklarning valyuta siyosatida muhim o'rin egallaydi. Buning boisi shundaki, inflyatsiya va valyuta kursi o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Odатда, milliy valyuta kursining pasayishi kelgusida inflyatsiyaning o'sishiga olib

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2005-yil 28-maydag'i 610-sonli "Ochiq valyuta pozitsiyalarini yuritish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. – Toshkent: O'zR MB, 2005.

keladi. Inflyatsion tazyiq foiz stavkalarining o'sishi bilan susayishi mumkin, ammo foiz stavkalarining oshishi investitsion va iste'molchi talabining pasayishiga olib kelishi mumkin. Agar milliy valyutaning qadrsizlanishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya portfelining o'zgarishi natijasi bo'lsa, u holda, bunday qadrsizlanish yuqori darajadagi inflyatsiyani yuzaga keltirishi mumkin. Bunday sharoitda foiz stavkalarining o'sishini ta'minlash inflyatsiyani jilovlashning oqilona yo'li hisoblanadi. Agar milliy valyutaning qadrsizlanishi tashqi savdo shartlarining o'zgarishi oqibati bo'lsa, u holda foiz stavkalarini pasaytirilishi lozim. Chunki bunday sharoitda sof eksport va umumiy talab qisqaradi.

Shunisi xarakterlik, milliy valyutaning qadrsizlanishi umumiy talabning qisqarishiga olib kelgan sharoitda Markaziy bank tomonidan restriksion pul-kredit siyosatining qo'llanilishi milliy iqtisodiyotning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, YalMning o'sish sur'ati sekinlashadi.

Foiz stavkalari va inflyatsiya o'rtasida bevosita aloqadorlikning mavjudligi kuzatilmagan sharoitda, milliy valyutaning nominal va real almashuv kurslarining import qilinayotgan tovarlarning va eksport qilinayotgan tovarlarning bahosiga ta'sirini tahlil qilish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirning oldini olish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta siyosatida muhim o'rinn tutadi.

Markaziy bankning valyuta siyosati, an'anaviy monetar instrument sifatida, monetar siyosatning oraliq va pirovard maqsadlariga mos kelishi lozim.

Markaziy bankning valyuta siyosati doirasida hal etilishi lozim bo'lgan masalalardan biri xorijiy valyutalardagi rasmiy valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish masalasi hisoblanadi. Buning boisi shundaki, valyuta zaxiralarini diversifikatsiyalash Markaziy bankning balansidagi rasmiy valyuta zaxiralarini valyuta riskidan himoya qilishning ishonchli va kam chiqimli usuli hisoblanadi.

Dunyo miqyosida, xalqaro zaxiralar hajmida AQSH dollarida shakllantirilgan zaxiralarning salmog'i yuqoriligidcha qolmoqda. Fikrimizcha, buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: birinchidan, AQSH dollarining boshqa yetakchi valyutalarga nisbatan nominal almashuv kursining tebranish diapazoni katta emas; ikkinchidan, AQSH dollarida emissiya qilingan AQSH hukumatining va Federal fondlarining qimmatli qog'ozlari yuqori likvidli va ishonchli investitsiyalash obyektlari hisoblanadi; uchinchidan, hozirga qadar dunyoning ko'plab mamlakatlarida, shu jumladan, MDH davlatlarida valyuta intervensiysi vositasi bo'lib AQSH dollari hisoblanadi; to'rtinchidan, ko'plab mamlakatlar hukumatlari tashqi qarzining asosiy qismi AQSH dollarida shakllangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati asosida mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan xalqaro kreditlarning valyutaviy tarkibida AQSH dollarida jalb etilgan kreditlar salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi.

Shunisi xarakterlik, dunyoning ko'plab mamlakatlarida xorijiy valyutadagi zaxiralarning tarkibini tashqi qarzning tarkibiga mos ravishda shakllantirish tendensiyasi kuzatilmoxda. Chunonchi, Braziliyada xalqaro zaxiralar uchta valyutada - AQSH dollari, yevro va Yaponiya iyenida shakllantirilgan. Chunki mamlakatning tashqi qarzi mazkur uch valyutadagi qarzdan iborat. Janubiy Koreyada xalqaro zaxiralarning investitsion tarkibi tashqi qarzning valyutaviy tarkibiga va joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha to'lovlarini qaysi valyutalarda amalga oshirilayotganligiga mos ravishda shakllantirilmoqda. Chexiyada esa rasmiy valyuta zaxiralari AQSH dollari va yevroda shakllantirilgan. Uni shakllantirishda e'tiborga olinadigan asosiy omillardan biri tashqi qarzning valyutaviy tarkibi hisoblanadi.

Gold svop operatsiyalari mamlakatda favqulodda holatlar yuz berganda tashqi to'lov uchun zarur bo'lgan xorijiy valyutalarni topish imkonini beradi. Masalan, mamlakatga

xorijiy valyutada mablag‘ favqulodda zarur bo‘lib qolsa, u holda, Markaziy bank oltinni spot sharti bo‘yicha sotadi va olingan xorijiy valyutadagi mablag‘ni hukumatga beradi. Keyin esa, hukumat bilan berilgan mablag‘ni qaytarish muddatini kelishib oladi va ushbu muddatdan kelib chiqqan holda, xorijiy bank bilan oltinni sotib olish to‘g‘risida forward shartnomasi tuzadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Diskont siyosati; deviz siyosati; devalvatsiya; revalvatsiya; valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish; valyutaviy cheklovlar; valyuta pozitsiyasi; valyuta bozori; svop; Gold svop; tashqi qarz.

Takrorlash uchun savollar

1. Markaziy bankning xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlarini o‘rnatish tartibi qanday?
2. Valyuta intervensiysi nima maqsadda amalga oshiriladi?
3. Hukumatning tashqi qarzini to‘lash tartibi qanday?
4. Markaziy bank rasmiy valyuta zaxiralarini qanday tartibda diversifikatsiya qiladi?
5. Markaziy bank valyutaviy svop operatsiyalarini qay tartibda amalga oshiradi?
6. Markaziy bank milliy valyutaning nominal almashuv kursini qanday aniqlaydi?
7. Markaziy bank valyuta riskiga qarshi valyuta o‘riqonlaridan foydalanishi mumkinmi?
8. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan qanday cheklovlar belgilanadi?
9. Markaziy bank GOLD Svop operatsiyasini qay tartibda amalga oshiradi?
10. Devalvatsiya va revalvatsiya nima maqsadda amalga oshiriladi?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Joriy valyuta operatsiyasi.
2. Tarkibiy valyuta operatsiyasi.
3. Milliy valyuta bozorining likvidliligi.
4. Diskont siyosati va uning makroiqtisodiy o‘sishga ta’siri.
5. Deviz siyosati va uni amalga oshirish mexanizmini.
6. Banklarning ochiq valyuta pozitsiyasi va uni tartibga solish.
7. Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish tartibi.
8. Valyuta intervensiyasini amalga oshirish tartibi.

VI BOB. XALQARO HISOB-KITOBLAR VA ULARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

6.1. Xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari

Xalqaro hisob-kitoblar – davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlarни amalga oshirish tizimidir.

Xalqaro hisob-kitoblar tizimi xorijiy valyutalarda to‘lovlarни amalga oshirish usullari, shakllari, vositalarini o‘z ichiga oladi va shakllangan huquqiy asoslarga ega.

Xalqaro hisob-kitoblarning 80-85 foizi tijorat banklari orqali o‘tadi, qolgan 15-20 foizi Markaziy banklar va Kliring palatalari orqali amalga oshiriladi.

Turli davlatlar banklari o‘rtasida o‘rnatilgan vakillik munosabatlari xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Banklarning xorijiy valyutalarda ochilgan “Nostro” va “Vostro” vakillik hisob raqamlari orqali xalqaro to‘lovlar amalga oshiriladi.

Banklarning xalqaro hisob-kitob operatsiyalarida ikki to‘lov sharti qo‘llaniladi:

- a) To‘lovlar hujjatlarga qarshi.
- b) To‘lovlar akseptga qarshi.

Birinchi to‘lov shartida importyor to‘lovnini amalga oshirgandan keyingina unga tovarlar bilan bog‘liq hujjatlar beriladi.

To‘loving ikkinchi shartida importyor tomonidan veksel akseptlangandan keyingina unga hujjatlar beriladi.

Qator o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida milliy valyutaning bitim valyutasi vazifasini bajara olmayotganligi va ushbu mamlakatlardagi banklarning taraqqiy etgan davlatlarning banklari bilan bir tomonlama vakillik munosabatlariga ega ekanligi tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Xalqaro hisob-kitob operatsiyalarining 90 foiziga yaqin qismi faqat beshta valyutada amalga oshirilmoqda. Bularga AQSH dollari, yevro, Yaponiya iyeni, Buyuk Britaniya funt sterlingi va Shveytsariya franki kiradi.

Mazkur valyutaning barchasini erkin suzib yuruvchi kurs rejimiga ega ekanligi xalqaro hisob-kitob munosabatlarida valyuta riski muammosi va to'lov riski muammosini yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tijorat banklari XIM tizimida muhim va hal qiluvchi rolni o'ynamoqda. Ularning xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish borasidagi boy tajribasini ilmiy asosda o'r ganish respublikamizning tijorat banklari uchun katta amaliy ahamiyatga egadir.

Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini to'g'ri tasniflash asosida ularning samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, tijorat banki uchun to'lov riski har bir xalqaro hisob-kitob shaklida bir-biridan farq qiladi.

Xalqaro hisob-kitob iqtisodiy mazmuniga ko'ra, ikkiga bo'linadi:

1. Sof to'lovlar.
2. Hujjatlashtirilgan to'lovlar.

Bunda turkumlash uchun mezon bo'lib, to'lov shartlari hisoblanadi. Sof to'lov larga quyidagi uch to'lov sharti xos:

- a) tovarlar summasini qisman yoki to'liq oldindan to'lash;
- b) tovarlar summasini tovarni qabul qilib olgandan so'ng to'lash;
- v) ochiq hisob raqam bo'yicha hisoblashish.

Ushbu uchala shartdan kamida bittasi bajariladigan to'lov shakli sof to'lov hisoblanadi. Shu boisdan ham, sof to'lov larga to'lov topshiriqnomalari va cheklar vositasidagi xalqaro hisob-kitoblar kiritiladi.

To'lov topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarda import summasi tovar qabul qilib olingandan so'ng

amalga oshiriladi. Bunda importyor birinchi navbatda tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni oladi. Undan keyin esa, tovarlar bilan bog'liq hujjatlar orqali tovarlarni portdan yoki omborxonadan oladi. Importyor tovarni sifatini haqiqatda tekshirgandan keyin to'lov topshiriqnomasi yozadi. Demak, tijorat banki uchun mazkur hisob-kitob shaklida to'lov riski mavjud emas. Bundan tashqari, ushbu to'lov shakli importyor uchun qulay bo'lib, eksportyorga to'lov riskini yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda to'lov riski muammosining chuqurlashishi debitor qarzdorlik summasining oshishiga va mamlakat eksport tushumini kamayishiga olib kelishi mumkin. Bu holat esa, o'z navbatida, milliy valyutaning almashuv kursiga va eksportyorlarning to'lovga qobilligiga salbiy ta'sir qiladi.

Xalqaro savdoni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan xalqaro hisob-kitob munosabatlarida tijorat banklarining orderli cheklaridan keng ko'lamma foydalilaniladi. Respublikamiz bank amaliyotida esa, hozirgi vaqtida banklarning orderli cheklari muomalasi mavjud emas.

Tijorat banklarining orderli cheklari bilan amalga oshiriladigan xalqaro hisob-kitob operatsiyalarida bank chekni mijozning yozma ko'rsatmasiga asosan yozadi. Ammo bank tomonidan chek summasi alohida balans hisobvarag'ida deponentlanmaydi. Demak, bunda bank uchun to'lov riski mavjud emas. Lekin, xalqaro amaliyot tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, orderli cheklarning asosiy qismi, importyorlarning joriy valyuta mablag'lari yetmay qolgan sharoitda, tijorat banklarining kreditlari hisobidan to'lanmoqda. Demak, orderli cheklar tijorat banklari uchun to'lov riskini yuzaga keltirmasada, ular uchun yuqori daromad olish manbai bo'lib qolmoqda.

Rivojlangan davlatlarning xo'jalik amaliyotida ochiq hisob raqami bo'yicha hisoblashishdan keng ko'lamma foydalilaniladi. Bunda, odatda, eksportyorning bankida mazkur tashqi savdo shartnomasini moliyalashtirish uchun alohida balans hisob raqami ochiladi. Tashqi savdo shartnomasida har bir partiya

tovarni jo'natish vaqtি aniq ko'rsatiladi. Importyor har bir partiya tovarning summasini tovar jo'natilgunga qadar eksportyorning bankida ochilgan balans hisob varag'iga o'tkazishi lozim. Eksportyor tovarni jo'natgandan so'ng, uning banki to'lov summasini eksportyorning joriy valyuta hisob varag'iga o'tkazadi.

Ochiq hisob raqamlari bo'yicha hisoblashish bir-birini uzoq yillardan buyon yaxshi biladigan va doimiy hamkorlar sifatida faoliyat yuritib kelayotgan eksportyorlar va importyorlar o'rtasida qo'llaniladi. Buning sababi shundaki, mazkur to'lov shartida to'lov kafolatlanmagan, banklar esa, to'lovni o'z vaqtida amalga oshishi uchun javob bermaydi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayoni turli xildagi risklar bilan bog'liq bo'lganligi sababli xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda har bir riskning darajasini, uning ta'sirini pasaytirish imkoniyatlarini o'rganish talab etiladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayonida mavjud bo'lган risklarga quyidagilar kiradi:

1. Siyosiy risk

Siyosiy risk – bu turli xildagi siyosiy voqealarning (urushlar, inqilob, davlat to'ntarishi, milliy lashtirish, embargo, ommaviy ish tashlashlar) natijasida zarar ko'rish xavfidir.

Siyosiy risk natijasida importyorlar olingan tovarlar summasini ola olmay qolishlari, eksportyorlar esa, tovarlarni eksport qila olmay qolishlari mumkin.

2. Tijorat risklari.

Mazkur risklar quyidagi holatlar bilan bog'liq:

- eksport baholarining kutilmaganda o'zgarishi;
- tovarning so'nggi bahosiga ta'sir qiluvchi mahsulotlarning tannarxini oshishi;

– milliy bozorlarning kon'yunkturaviy xususiyatlariga.

3. Ishlab chiqarish risklari.

Bunda importyor tomonidan buyurtmaning qaytirib olinishi yoki buyurtmani sezilarli darajada modifikatsiya qilinishini talab qilinishi natijasida eksportyor zarar ko'rishi mumkin.

4. Kredit riski.

Kredit riski bank tomonidan importni moliyalashtirish maqsadida berilgan kreditni qaytmasligi natijasida zarar ko'rish xavfidir.

Ta'minlanmagan hujatlashtirilgan akkreditivlarda import qilingan tovarlar bo'yicha to'lov yuzasidan importning banki kafil bo'lganligi sababli, importyorning joriy valyuta hisob raqamida valyuta mablag'lari bo'lмаган holatda, to'lov bank krediti hisobidan amalga oshiriladi. Natijada kredit riski yuzaga keladi.

5. Valyuta riski.

Valyuta riski – bu valyutalarning almashuv kurslarini o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfidir. Odatda, to'lov valyutasining qadrining oshishi importyorni zarar ko'rishiga sabab bo'ladi.

6. Defolt riski.

Ushbu risk kontragentlardan biri tomonidan xalqaro majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshira olmay qolishini anglatadi.

7. Konvertatsiya riski.

Bunda importyor to'lovga qobil bo'ladi, ammo milliy valyutani xorijiy valyutalarga konvertirlashda muammo bo'lganligi sababli u to'lojni amalga oshira olmaydi.

6.2. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari

Tashqi savdo bo'yicha amalga oshiriladigan xalqaro hisob-kitoblarning sharti tashqi savdo shartnomasida o'z aksini topadi.

Tashqi savdo shartnomasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- preamble;
- shartnomaning predmeti;

- shartnoma bahosi va summasi;
- tovarlarni yetkazib berish muddatlari;
- to'lov shartlari;
- tovarning sifati;
- sug'urta;
- fors-major holatlar;
- arbitraj;
- shartnoma shartlarini bajarmaganligi uchun qo'llaniladigan iqtisodiy jazo choralar;
- shartnomaning amal qilish muddati;
- tomonlarning yuridik manzillari;
- ma'sul shaxslarning imzolari va muhr.

Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha xalqaro hisob-kitoblarни amalga oshirishda shartnomaning valyuta-moliyaviy va to'lov shartlari muhim o'rinni tutadi.

Tashqi savdo shartnomasining valyutaviy shartlari quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- * shartnoma tuziladigan valyutaning nomi;
- * shartnoma summasi;
- * to'lovni amalga oshirish vaqtini.

Tashqi savdo shartnomasining to'lov shartlariga quyidagilar kiradi:

- * to'lov valyutasi;
- * to'lov muddati;
- * to'lov usullari;
- * halqaro hisob-kitob shakli.

To'lov valyutasi – bu import bo'yicha to'lov amalga oshiriladigan valyuta. U shartnoma bahosi valyutasiga mos kelmasligi ham mumkin. Agar har ikkala valyuta mos kelsa, u holda, bir valyutani ikkinchi valyutaga almashтирish zaruriyati yuzaga kelmaydi. Demak, bunday sharoitda valyutalarni qayta hisoblash kursi masalasi yuzaga kelmaydi.

Agar baho valyutasi va to'lov valyutasi o'zaro mos kelmasa, u holda, shartnomada quyidagi masalalar o'zining aniq ifodasini topgan bo'lishi lozim:

* valyuta bozori (ushbu bozorda kotirovka qilinadigan valyutaning kursi qayta hisoblash uchun assos sifatida olinadi);

* valyuta kursining turi (sotish kursi, sotib olish kursi, o'rtacha kurs);

* "Reyter" tizimi bo'yicha kursni aniqlash vaqt.

Tashqi savdo shartnomasida import bo'yicha to'lovni amalga oshirish vaqt, odatda, aniq belgilab qo'yilgan bo'ladi. Agar to'lov muddati aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda, tovar yetkazib berilgandan keyin yoki tovar jo'natilgandan keyin ma'lum kun o'tgandan keyin amalga oshiriladi.

Valyuta pisandalari xalqaro hisob-kitoblar jarayonida qo'llaniladigan muhim holatlardan biri hisoblanadi.

Valyuta pisandasasi – baho valyutasi va to'lov valyutasini o'zaro mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan valyuta riskini sug'urtalashning turlaridan biri hisoblanadi.

Bitimning valyuta, moliya va to'lov shartlarini ishlab chiqishda eksport qiluvchi va import qiluvchi tomonlarning manfaatlari bir-biriga zid bo'ladi. Chunki eksport qiluvchi tomon valyuta tez va to'liq summada olishni ko'zlasa import qiluvchilar valyuta to'lovlarini tovarni olib uni sotishgacha kechiktirishga harakat qiladilar.

Tovar narxini belgilashning valyuta usuli mavjud:

1. Bitimni amal qilishi va ijro etilishi davomida o'zgarmaydigan qat'iy ijro. Bu usul dunyo bozorlarida narx pasayishi yuz berayotgan sharoitlarda qo'llaniladi.

2. Bitimni imzolash paytida narxni belgilash tamoyili ko'rsatiladi, narx esa bitim ijrosi mobaynida qo'yiladi. Bu usuldan narxlar oshib borayotgan davrda ko'p foydalaniadi.

3. Bitim tuzish paytida narx qat'iy belgilanib, uning bozor narxi o'zgarishi bilan farqlanish chegarasi ko'rsatilib qo'yiladi.

Masalan, bitim imzosi davomida biror narxlarning 10% ga ortishi bilan bitim narxi ham o'zgartirilishi nazarda tutiladi.

4. Xarajatlarni o'zgarishiga bog'liq ravishda belgilanadigan sirpanuvchi narx. Qurilish, buyurtma bo'yicha dastgoh jihozlar tayyorlashda narxning yuqorida chegaralanishi yoki ayrim xarajat moddalari bo'yicha narx o'zgarishini hisobga olish asosida amal qiladi.

5. Aralash shaklda narx belgilash. Narxning bir qismi qat'iy belgilansa, boshqa qismi sirpanuvchi usulda aniqlanadi.

Narx vositasi deganda bitim obyekti bo'lgan tovar narxining qaysi valyutada belgilanishi tushuniladi.

Tovar valyutasini belgilashda tovarning turi va narx belgilash usuli katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, hukumatlararo kelishuv va xalqaro udumlar ham e'tiborga olinadi. Ba'zida tovar narxi ikki yoki undan ortiq valyutada hamda xalqaro pul birliklarida ifodalanishi mumkin.

To'lov valyutasi import qiluvchi yoki qarzdor o'z majburiyatlarini qaysi valyutada qoplashni ifoda etadi.

Valyuta kurslari beqaror bo'lgan paytlarda narxlar eng barqaror valyutada aniqlanib, to'lov esa import qiluvchining valyutasida o'rnatiladi. Agar narx valyutasi to'lov valyutasidan farq qilsa, u holda bitimda birini ikkinchisiga o'tkazish qayta hisoblash kursi yordamida amalga oshiriladi. Mazkur ikki valyutaning bir-biriga muvofaq kelmasligi valyuta kursini sug'urtalashning eng sodda usuli hisoblanadi. Agar narx valyutasining kursi (masalan, dollar) pasayib ketsa, to'lov valyutasi (o'zbek so'mi) summasi o'z-o'zidan mos ravishda kamayadi va aksincha. Narx valyutasi kursining pasayish riski eksport qiluvchi zimmasida bo'lsa, uning ko'tarilish riski import qiluvchida bo'ladi.

To'lov shartlari. Tashqi iqtisodiy aloqalarda tuziladigan bitimlarning muhim elementlaridan bo'lgan to'lov shartlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. naqd pul asosida to'lov;

2. kredit berish asosida to'lov;
3. naqd pul bilan to'lashni ham mumkin bo'lgan opsiyonli kredit asosida to'lov.

Xalqaro hisodlashuvlarda to'lovni naqd pulda o'tkazish deganda to'lovni tovarlarni sotib oluvchi yetkazib berilgandan (jo'natgandan) so'ng yoki bitimga muvofiq tovarlar junatilganini (olinganini) tasdiqlovchi hujjatlari qo'lga tegishi bilan amalga oshirish tushuniladi. Zamonaviy sharoitda tovarlar to'lov hujjatlaridan ilgari xaridorga yetib kelishi natijasida import qiluvchi ularni pulini to'lamasdan avval ishonch (trast) tilxati yoki bank kafolatiga muvofiq olishi mumkin. Shunday qilib, amaliyotda ko'pincha to'lov tovarlar belgilangan manzilga yetkazilgandan so'ng amalga oshiriladi. Bundan to'lovning tovar yetib kelganligini tasdiqlovchi xabarnoma olingandan so'ng o'tkaziladigan holat mustasno. Kontragentlarning kelishuviga bog'liq ravishda import qiluvchining to'lovni belgilangan bosqichlarda o'tkazish an'anasi ham mavjud: jo'natish portida tovarlarni yuklash tugaganligini tasdiqlovchi xabar olinishi bilan; tovarlar hujjatlari to'plami (faktura, konossament, sug'urta polisi va boshqalar) olingandan so'ng; tovarni ko'rsatilgan manzilga qabul qilib olgandan so'ng. Tovarning turiga qarab hisob-kitobning aralash usuli ham tanlanishi mumkin: qisman – tovar hujjatlari olinishi bilan; to'liq - tovarlar olingandan so'ng.

Xalqaro hisoblashuvlar savdoda ishtirok etayotgan sheriklarning bir-biri bilan valyuta ayirboshlashi va kredit munosabatlari natijasida yanada murakkablashadi. Xalqaro valyuta-kredit va hisob-kitob operatsiyalarining o'zaro bog'liqligi ham shunda namoyon bo'ladi. Sotilayotgan tovarning turiga qarab (masalan, mashina va hokazolar), sotuvchi bozoridagi raqobatning kuchayishi va ularni kredit yordamida o'z mahsulotini o'tkazishga harakat qilishi bois, tashqi savdo operatsiyalarida tijorat kreditidan foydalanish kengaymoqda. Tijorat krediti sotuvchi tomonidan tovari sotib oluvchiga 5-8

yil, ba'zi hollarda undan ham uzoq muddatga beriladi. Tijorat krediti yordamida tashqi savdo operatsiyalarini o'tkazishda import qiluvchi olingen kreditni qoplash uchun qarz majburiyatini oddiy veksel shaklida taqdim etadi yoki eksport qiluvchi tomonidan chiqarilgan o'tkazma veksel - trattalar akseptlaydi (to'lovni bajarishga yozma rozilik beradi).

Ko'pincha ba'zi eksport qiluvchilar to'lovni kredit shaklida emas, balki naqd amalga oshirgani uchun chegirmalar berish huquqidан foydalanishadi. Shuning uchun import qiluvchining to'lovni kechiktirishi mazkur imtiyozdan mahrum qiladi.

Hisob-kitoblar turli vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin: veksellar, to'lov topshirig'i, bank o'tkazmasi (pochta va telegraf orqali), cheklar, plastik kartochkalar.

Xalqaro hisob-kitoblarning to'rt shakli mavjud:

1. To'lov topshiriqnomasi yoki bank o'tkazmalari.
2. Chek.
3. Hujjatlashtirilgan akkreditiv.
4. Inkasso.

Xalqaro hisoblashuvlarning alohida xususiyatlari:

1. Import qiluvchi va eksport qiluvchilar, ularning banklari tashqi savdo bitimi bilan bog'liq munosabatlarni o'rnatadilar. Bu munosabatlar asosida tovarning va to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish, uzatish, qayta ishlash, hamda to'lovni amalga oshirish yotadi.

2. Xalqaro hisob-kitob milliy me'yoriy huquqiy hujjatlar, bundan tashqari xalqaro bank tartib-qoidalari bilan tartibga solinadi.

3. Xalqaro hisob-kitoblar – unifikatsiyalash obyekti bo'lib, bunga xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi, bank operatsiyalarining universallashuvi jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Xalqaro hisob-kitoblar qoidaga ko'ra hujjatli xususiyatga ega, ya'ni ular moliya va tijorat hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy hujjatlarga oddiy va o'tkazma veksel,

cheklar, to'lov tilxatlari kiradi. Tijorat hujjatlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) schet faktura; b) tovarni yuklanganligi yoki jo'natilganligini tasdiqlovchi hujjatlari (konosamentlar, temir yo'l, avtomobil va havo transporti yuk xati, pochta kvitansiyasi, aralash tashishning transport hujjatlari); v) sug'urta hujjatlari; g) boshqa hujjatlari – tovarni ishlab chiqishini tasdiqlovchi sertifikatlar, sifat sertifikatlari, chegaradan o'tganlik hujjatlari, bojxona hujjatlari va boshqallar.

5. Xalqaro hisob-kitoblar turli valyutalarda o'tkaziladi. Shuning uchun ular valyuta operatsiyalariga chambarchas bog'liq.

6. Mazkur hisoblashuvlarda kafolatlashning umumiy qoidalariga rioya etiladi. Unga muvofiq kafolat matnida quyidagilar bo'lishi lozim:

- 1) kafolat beruvchiga haq to'lanmagan bo'lsa kafolat summasi undirilmaydi;
- 2) bitimning tavsifi;
- 3) pretenziya qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlari;
- 4) kafolat muddati tugaydigan sana va kafolat bergen bankka benifitsiar tomonidan hujjatlarni taqdim etish sanasi;
- 5) kafolat muddati tugagandan so'ng qaytarilishi lozim.

Xalqaro hisob-kitob shakllariga ta'sir etuvchi omillar:

- * tashqi savdo obyekti hisoblangan tovar turi;
- * kredit kelishuvining mavjudligi;
- * tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha kontragentlarning to'lov qobiliyati va obro'-e'tibori;
- * dunyo bozorida mazkur tovarga bo'lgan talab va taklif.

Xalqaro hisob-kitoblar murakkab huquqiy munosabatlari bo'lib, eksport-import operatsiyalari, tijorat tusiga ega bo'lmanagan to'lovlar – sayyohlik, sport, fuqarolar tomonidan xorijiy davlatlarga pul o'tkazishlar, xorijiy davlatlarda diplomatik va savdo vakolatxonalarini ochish, o'zga davlat hududida harbiy qismlarni saqlash hamda kapitallar va kreditlarning harakati

bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro Savdo Palatasi tomonidan hujjatlashtirilgan akkreditiv va inkasso bo'yicha qabul qilingan xalqaro umumlashtirilgan qoidalar xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishning ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy asosi hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy shartnomalarni tuzishda 1980-yilda ishlab chiqilgan (Vena konvensiyasi) tovarlarni xalqaro sotish-sotib olish to'g'risidagi BMT konvensiyasi asos bo'lib hisoblanadi. Ushbu hujjat to'lovlarining umumiyligi shartlari va uni amalga oshirish tartibini o'z ichiga oladi. Ushbu Konvensiya importyorning tovar uchun to'lov majburiyatini, to'lov muddati va to'lovni amalga oshirish joyi, tovarga to'lovni amalga oshirmslik oqibatlari har bir kechikkan davr uchun foiz hisobida jarima to'lab berish, tomonlar o'rtasida ko'rilgan zararning taqsimlanishini ko'rib chiqadi.

6.3. Xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish mexanizmlari

Xalqaro hisob-kitoblarning 4 shakli mavjud:

1. To'lov topshiriqnomasi yoki bank o'tkazmasi.
2. Chek.
3. Hujjatlashtirilgan akkreditiv.
4. Inkasso.

Jahon xalqaro savdo amaliyotida hujjatlashtirilgan akkreditivlar va hujjatli inkasso vositasidagi hisob-kitoblarning salmog'i boshqa hisob-kitob shakllariga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir. Buning asosiy sababi, fikrimizcha, akkreditivlarda to'lovning kafolatlanganligi va hujjatli inkassoda tovar hujjatlarini to'lov amalga oshirilgandan so'ng berilishidir. Ushbu to'lov sharti importyorni to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishga undaydi.


Hujjatlashtirilgan akkreditivlarning quyidagi shakllari mavjud:

- chaqirib olinmaydigan akkreditivlar;
- chaqirib olinadigan akkreditivlar;
- tasdiqlanadigan akkreditivlar;
- tasdiqlanmaydigan akkreditivlar;
- ta'minlangan akkreditivlar.

Mamlakatimiz xo'jalik va bank amaliyotida naqd pulsiz hisob-kitoblarning sof inkasso shakli mavjud emas. Ushbu shaklning mavjud emasligi respublikamizda tijorat veksellari muomalasining mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Respublikamizda banklar tomonidan ochilgan akkreditivlarning naqd pulsiz to'lovlar hajmidagi salmog'i juda kichik. Buning ustiga, hujjatlashtirilgan akkreditivlarning asosiy qismi ta'minlangan akkreditivlarning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Buning natijasida xo'jalik subyektlariga tegishli pul mablag'-larining ma'lum qismi ularning xo'jalik aylanmasidan chiqib kolmoqda.

Biz quyida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda keng qo'llaniylayotgan ta'minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlar shakli bo'yicha xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini ko'rib chiqamiz.



6.1-rasm. Ta'minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi

Bu yerda:


- 1-tashqi savdo shartnomasini imzolash;
- 2-importyor o‘zining bankiga hujjatlashtirilgan akkreditiv ochish to‘g‘risida ariza beradi;
- 3-eksportyorning banki eksportyorning bankiga, akkreditiv ochilganligi to‘g‘risida xabardor qilish uchun, akkreditiv telegrammasini jo‘natadi;
- 4-eksportyorning banki eksportyorni akkreditiv ochilganligidan xabardor qiladi;
- 5-eksportyor tovarlarni importyorga jo‘natadi;
- 6-eksportyor tovarlar bilan bog‘liq barcha hujjatlarni o‘zining bankiga jo‘natadi;
- 7-eksportyorning banki hujjatlarni importyorning bankiga jo‘natish uchun qabul qilib oladi;
- 8- eksportyorning banki hujjatlarni importyorning bankiga to‘lov uchun jo‘natadi;
- 9-importyorning banki hujjatlarni qabul qiladi va to‘lovnini amalga oshiradi;
- 10-importyorning banki hujjatlarni importyorga beradi;
- 11-importyorning banki eksportyorning bankini 10-operatsiya bajarilganligi to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qiladi;
- 12-eksportyorning banki akkreditiv summasini eksportyorning joriy hisob raqamiga o‘tkazadi;
- 13-eksportyorning banki eksportyorning joriy hisob raqamidan ko‘chirma beradi.

Yuqoridagi shakldan ko‘rinadiki, hujjatlashtirilgan akkreditivlarda tovarlar bilan bog‘lik hujjatlar importyorga faqat to‘lov amalga oshirilgandan keyin beriladi. Bundan tashqari, importyorning banki to‘lov uchun kafil hisoblanadi. Shu sababli, ta’milangan hujjatlashtirilgan akkreditivlar eksportyorlar uchun xalqaro hisob-kitoblarning qulay shakli hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda xalqaro hisob-kitoblarning ta’milangan akkreditiv shaklidan keng foydalanadi. Buning sababi shundaki, ushbu davlatlar xalqaro

Bazel qo'mitasining ekspertlari va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori riskli zona sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli, ushbu mamlakatlar bilan bo'ladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ular to'lovlar kafolatlangan va to'lov kafolatini ta'minlash imkoniyati yuqori bo'lgan xalqaro hisobkitob shakllarini qo'llaydilar. Hujjatli akkreditiv xalqaro hisobkitoblarning ana shunday xususiyatlarga ega bo'lgan shakli hisoblanadi.

Hujjatlashtirilgan akkreditivlarning ta'minlanganlik shaklida to'lov summasi alohida hisob raqamda deponent qilinadi yoki oldindan eksportyorning bankiga yetkazib beriladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida esa, hujjatli akkreditivlarning ta'minlanmaganlik shaklidan keng ko'lamma foydalanimoqda. Bunda akkreditiv summasi alohida balans hisob raqamida deponent qilinmaydi, to'lov uchun kafililikni esa, importyorning banki o'z zimmasiga oladi.



6.2-rasm. Hujjatli inkasso vositasidagi xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi.

Bu yerda:

- 1-tashqi savdo shartnomasini imzolash;
- 2-eksportyor tovarlarni importyorga jo'natadi;
- 3-eksportyor tovarlar bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlarni importyorga jo'natadi;

4-eksportyorning banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni qabul qilib oladi;

5-eksportyorning banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni importyorning bankiga jo‘natadi;

6-importyorning banki hujjatlarni inkassoga qabul qiladi;

7-importyorning banki hujjatlarni kelib tushganligi to‘g‘risida importyorga xabar beradi;

8-importyor to‘lovni amalga oshirish uchun to‘lov topshiriqnomasi yozadi;

9-importyorning banki mijozning to‘lov topshiriqnomasiga asosan to‘lovni amalga oshiradi;

10-importyorning banki Tovar hujjatlarini importyorga beradi;

11-importyorning banki eksportyorning bankini 8-operatsiya bajarilganligi to‘g‘risida xabardor qiladi;

12-eksportyorning banki to‘lov summasini eksportyorning joriy valyuta hisob raqamiga o‘tkazadi;


13-eksportyorning banki eksportyorning joriy hisob raqamidan ko‘chirma beradi.

6.1-rasmdan ko‘rinadiki, hujjatli inkassoda bank tovarlarning hujjatlarini importyor to‘lovni amalga oshirgandan keyingina unga beradi. Bu esa, importorni to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirishga majbur qiladi. Chunki to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmasa, importyor hujjatlarni ola olmaydi. Demak, u tovarlarni omborxonadan yoki temir yo‘l bekatidan olish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Buning natijasida tovarlarni bu joylardan olib chiqib ketish kechikadi va pirovard natijada importyor katta miqdorda jarima to‘lashga majbur bo‘ladi. Chunki Bojxona qo‘mitasiga tegishli omborxonalar tovarlar saqlangan har bir kun uchun katta miqdorda haq oladi, temir yo‘l bekatlarining jarima stavkasi ham sezilarli darajada yuqoridir.

Inkassoning ikki turi mavjud bo‘lib, ular sof inkasso va hujjatli inkasso. Sof inkassoda faqat to‘lov hujjatlari inkassoga

qabul qilinadi. Hujjatlari inkassoda esa, faqat tijorat hujjatlari yoki tijorat hujjatlari to'lov hujjatlari bilan birgalikda inkassoga qabul qilinadi.

Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida, eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish jarayonida, tijorat banklarining orderli cheklaridan foydalanimaydi. Bu esa, xalqaro hisob-kitoblarning samaradorlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



6.3-rasm. Banklarning orderli cheklari vositasidagi xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi.

Bu yerda:

- 1-tashqi savdo shartnomasini imzolash;
- 2-importyor o'zining bankiga chek yozish to'g'risida yozma ko'rsatma beradi;
- 3-importyorning banki orderli chekni yozadi;
- 4-bank chekni importyorga beradi;
- 5-eksportyor tovarlarni importyorga jo'natadi;
- 6-eksportyor tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni importyorga jo'natadi;
- 7-importyor chekni eksportyorga uzatadi;
- 8-eksportyor chekni o'zining bankiga uzatadi;
- 9-eksportyorning banki chekni qabul qilib oladi;
- 10-eksportyorning banki chekni importyorning bankiga jo'natadi;

11-importyorning banki chek bo‘yicha to‘lovni amalga oshiradi;

12-importyorning banki eksportyorning bankini 11-operatsiya bajarilganligi to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qiladi;

13-eksportyorning banki to‘lov summasini eksportyorning joriy valyuta hisob raqamiga o‘tkazadi;

14-eksportyorning joriy hisob raqamidan ko‘chirma berish.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning amaliyotida banklarning orderli cheklaridan eksport-import operatsiyalarini moliyalash-tirish jarayonida keng ko‘lamda foydalaniladi.

Banklarning orderli cheklarining muhim afzalliklaridan biir shundaki, ularni indossament vositasida uchinchi shaxsga uzatish mumkin. Demak, orderli cheklar vositasida korxonalar o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlikni keskin qisqartirish mumkin.

Sof inkassoning mavjud emasligi naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini yanada oshirishga to‘sqinlik qiladi. Chunki tijorat veksellari indossament orqali boshqa subyektlarga uzatilishi natijasida, birinchidan, naqd pulsiz to‘lovlar hajmini oshiradi, ikkinchidan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik hajmini qisqartirish imkonini beradi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning to‘lov talabnomasi shakli bozor iqtisodiyoti munosabatlарining tabiatiga mos kelmaydi. Buning sababi shundaki, to‘lov talabnomasi orqali to‘lovi undirilmasdan jo‘natilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning summalarini to‘lanadi. Aslida to‘lovi undirilmasdan sotilgan tovarlar kreditga sotilgan deb hisoblanishi va unga ma’lum foizda qo‘srimcha to‘lov to‘lanishi kerak. Yoki to‘lovi undirilmasdan sotilgan tovarlar summasiga tijorat vekseli yozilishi kerak. Respublikamiz amaliyotida esa, to‘lovi undirilmasdan sotilgan tovarlar kreditga sotilgan deb hisoblanmaydi.

To‘lov talabnomasidan foydalanish borasidagi dolzarb muammolardan biri to‘lovni solishtirish dalolatnomasi asosida

o‘z vaqtida undirish muammosi hisoblanadi. Muammoning mohiyati shundaki, ayrim fermer xo‘jaiklari xususiy firmalardan tovarlar sotib olganlar. To‘lovni undirishda ushbu firmalarning ko‘pchiligini yopilib ketganligi qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Mamlakatimiz amaliyotida to‘lovlar ni amalga oshirishning maqsadli ketma-ketligi qo‘llanilmoqda. Ushbu ketma-ketlikda to‘lovlar ni undirishda ustuvorlik Davlat byudjeti oldidagi qarzdorlikni to‘lashga qaratiladi. Bunda soliq to‘lovlarini keyingi davrlar uchun undirilishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltirmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar

Hujjatlar akseptga qarshi; hujjatlar to‘lovga qarshi; bitim valyutasi; baholovchi valyuta; bank o‘tkazmasi; chek; sof inkasso; hujjatli inkasso; hujjatlashtirilgan akkreditiv; aksept aval.

Takrorlash uchun savollar

1. Xalqaro hisob-kitoblar nima?
2. Xalqaro hisob-kitoblarning qanday shartlari mavjud?
3. To‘lov topshiriqnomalarining qanday afzalliklari va kamchiliklari mavjud?
4. Cheklarning qanday afzalliklari va kamchiliklari mavjud?
5. Akkreditivning qanday afzalliklari va kamchiliklari mavjud?
6. Inkassoning qanday afzalliklari va kamchiliklari mavjud?
7. Hujjatlashtirilgan akkreditivlarning qanday shakllari bor?
8. Hujjatlashtirilgan akkreditivlarning qanday turlari bor?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish shart-sharoitlari.
2. Hujjatlashtirilgan akkreditivlar orqali amalga oshiriladigan xalqaro hisob-kitoblar tizimidagi o‘zgarishlar.
3. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida tijorat banklari kreditlarining o‘rni.
4. O‘zbekiston Respublikasida xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyoti.
5. Banklarning orderli cheklari vositasidagi xalqaro hisob-kitoblar.
6. Xalqaro savdoda tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi.
7. Cheklarning muddati tugab qolganda xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi.
8. Sof inkassoning o‘ziga xos xususiyatlari.
9. Hujjatli inkassoning o‘ziga xos xususiyatlari.
10. Ochiq hisob raqamlar bo‘yicha hisoblashishlar va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

VII BOB. XALQARO KREDIT VA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI KREDITLASH

7.1. Xalqaro kreditning tamoyillari va funksiyalari

Xalqaro kreditning tamoyillari (prinsiplari) uning iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq olib beradi.

Xalqaro kreditning takror ishlab chiqarish bilan aloqasi uning quyidagi asosiy tamoyillari yoki prinsiplarida ko‘rinadi:

1) **qaytarishlilik:** xalqaro kredit ham ichki kreditga o‘xshab kelishilgan muddatga qaytarilishi lozim. Agar olingan mablag‘lar qaytarilmasa, u holda qaytarilmas pul kapitalini o‘tkazish xususiyatiga ega, moliyalashtirish ko‘rinishiga ega bo‘lib qoladi.

2) **muddatlilik:** kredit shartnomasida o‘matilgan muddatlarda kreditni qaytarilishini ta’minlaydi.

3) **to‘lovllilik:** qiymat qonunini amal qilishini va kredit differensial shartlarini amalga oshirish yo‘llarini ifodalaydi va xalqaro kredit uchun o‘matilgan foizlar shu kreditning bahosi hisoblanadi.

4) **moddiy ta’milanganlik:** kredit bo‘yicha yuzaga keluvchi risklardan himoyalab kreditni to‘lab berish kafolatini anglatadi.

5) **maqsadga yo‘naltirilganlik:** ssudaning aniq obyektlarini aniqlash, buni qo‘llanilishidan asosiy maqsad kreditor davlatning eksportini rag‘batlantirishdir.

Xalqaro kreditning funksiyalari

Xalqaro kredit ssuda kapitalini xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida aylanish xususiyatini aks ettiruvchi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Kengaygan ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish maqsadida ssuda kapitalining mamlikatlar o‘rtasida taqsimlanishi. Xalqaro kredit mexanizmi orqali ssuda kapitali foydani ta’minlash maqsadida iqtisodiy agentlar ko‘zlagan sohalarga

yo'naltiriladi. Shu orqali kredit milliy foydani o'rtacha foydaga aylantirishga va uning massasini oshirishga yordam beradi.

2. Xalqaro hisob-kitoblarda asl pullarni (oltin, kumush) kredit pullar bilan almashishi, shuningdek, naqdsiz to'lovlarini tezlashishi va rivojlanishi, naqd valyuta oborotini xalqaro kredit operatsiyalari bilan almashishi muomala xarajatlarini iqtisod qiladi. Xalqaro kreditlar asosida Xalqaro hisob-kitoblarning kredit vositalari bo'lgan – veksel, chek, shuningdek, bank o'tkazmalari, depozit sertifikatlari va boshqalar vujudga keldi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ssuda kapitalining muomala vaqtini iqtisod qilinishi hisobiga kapitalning ishlab chiqarish funksiyasi vaqtini oshirib, ishlab chiqarishni kengaytirishga va foydani ko'paytirishga erishish mumkin.

3. Kapitalning to'planishi va markazlashuvining tezlashishi. Chet el kreditlarini jalb qilish hisobiga qo'shimcha qiymatni kapitallashtirish tezlashadi, individual jamg'arish chegaralari kengayadi, bir mamlakat tadbirkorlarining kapitali boshqa mamlakat mablag'lari hisobiga ko'payadi. Kredit ma'lum chegaralarda boshqa mamlakatlarning kapitali, mehnati va mulkiga egalik qilish imkoniyatini beradi. Imtiyozli xalqaro kreditlarning yirik kompaniyalarga berilishi hamda mayda va o'rta firmalarning jahon ssuda kapitallari bozoriga kirish imkoniyatini qisqarishi kapitalni to'planishiga va markazlashtuviga sabab bo'lmoqda.

Qarz mablag'lari qaysi tashqi iqtisodiy bitimga belgilanishiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- tijorat kreditlari – tashqi savdo va xizmatlar bilan bevosita bog'langan;
- moliyaviy kreditlar – har qanday maqsadlarga ishlatiladigan, shu jumladan, to'g'ri kapital qo'yilmalar, investitsion obyektlarni qurish, qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish, tashqi qarzni to'lash, valyuta intervensiyasini o'tkazishlardir.
- oraliq kreditlar – kapital, tovar va xizmatlarni olib chiqarishning aralash shakllariga xizmat qilish uchun tayinlan-

gan, masalan, pudrat ishlarini bajarish shaklida. Ko‘rinishi bo‘yicha kreditlar: tovar – asosan eksportyorlar tomonidan xaridorlarga beriladigan va valyuta - banklar tomonidan pul shaklida beriladigan kreditlarga bo‘linadi.

7.2. Xalqaro kreditning shakllari

Xalqaro kreditning 2 shakli mavjud:

1. Xalqaro bank krediti;
2. Xalqaro tijorat krediti.

Xalqaro bank krediti asosan valyuta (pul) ko‘rinishida bo‘ladi.

Xalqaro tijorat krediti esa, odatda tovar ko‘rinishiga ega.

Ana shu 2 ta asosiy kredit shaklidan kelib chiqadigan bir qancha kreditlar mavjud:

1. Firma (tijorat) krediti – odatda eksportyor mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning importyoriga to‘lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishiga tushuniladi. Tashqi savdoda tijorat krediti tovarli operatsiyalarga bog‘liq hisob-kitoblarda keng qo‘llaniladi. Tijorat kreditining muddati (odatda 2-7 yil) turlicha bo‘ladi.

2. Vekseli kreditda eksportyor tovarni sotish haqida bitim tuzib, o‘tkazma veksel (tratta)ni importyorga jo‘natadi, importyor tijorat hujjatlarini olib akseptlaydi, ya’ni unda ko‘rsatilgan muddatda to‘lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

3. Ochiq schyotlar bo‘yicha beriladigan kredit. Bu kredit eksportyor va importyor o‘rtasidagi kelishuvga asoslanadi. Eksportyor jo‘natilgan har bir tovarlar qiymatini importyoring hisobiga qarz sifatida qayd qilib boradi. Importyor shartnomada ko‘rsatilgan vaqtida kredit summasini to‘lab boradi. Ochiq schyotlar bo‘yicha beriladigan kreditlar faqatgina doimiy aloqada bo‘lgan firmalar o‘rtasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Bank krediti – eksport va importni kreditlashda ssuda formasida namoyon bo‘ladi va u tovarlar, tovar hujjatlari,

veksellarni, hamda trattani garovga olgan holda beriladi. Ba'zan banklar o'zlariga chambarchas aloqada bo'lgan yirik eksportyorfirmalarga blankli kredit, ya'ni rasmiy ta'minlanmagan kreditlar berishadi.

Eksport krediti – eksportyor bankining importyor bankiga yetkazib berilgan mashina, asbob-uskuna va boshqa investitsiya qilingan tovarlarni kreditlashga aytildi. Bank kreditlari pul ko'rinishida beriladi va "bog'liq"lik xarakteriga ega, chunki kredit oluvchi ssudadan faqatgina kreditor mamlakat tovarlarii sotib olishigagina beriladi.

Xalqaro kredit qo'yidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

✓ qarz oluvchi va qarz beruvchi sifatida davlat, tashkilot va muassasalar, huquqiy shaxslar, xalqaro valyuta kredit tashkilotlari qatnashadilar;

✓ qarzga olingan mablag'lar qarz oluvchi mamlakat tomonidan daromad keltiruvchi kapital sifatida ishlatiladi;

✓ qarz beruvchi mamlakatga to'lanadigan ssuda foizining manbasi qarz oluvchi mamlakat aholisi tomonidan yaratilgan milliy daromad hisoblanadi.

1. Kelishilgan kredit bahosi;

2. Kredit bahosining yashirin elementlari.

Suzib yuruvchi foiz stavkasi ikki qismdan tarkib topadi:

1. Asos qilib olingan stavka. Bunday stavka sifatida AQSH banklarining birinchi darajali qarz oluvchilari uchun stavka (praym-reyt), shuningdek London banklari tomonidan shu toifadagi mijozlarga qisqa muddatli ssudalarni berishda ishlatiladigan o'rta foiz stavkali (LIBOR) qo'llaniladi. Rasmiy jihatdan LIBORning o'matilgan darajasi mavjud emas. Har bir yirik London banki bu stavkani valyuta bozoridagi talab va taklifga qarab aniqlaydi. Libor valyuta turlari va muddatlariga qarab (1, 3, 6 va 12 oy) tabaqlashtiriladi.

2. Ustamalar yoki marja. Uning miqdori qarz oluvchi va qarz beruvchi o'rtasidagi kelishuv bo'yicha aniqlanadi.

Komission to‘lovlar bu qarz beruvchi bankka belgilangan muddat mobaynida zarur kredit resurslarini qarz oluvchi ixtiyoriga berish va rezervda saqlash majburiyati uchun to‘lanadi. Shuningdek, komission to‘lovlar agar kredit alohida banklar tomonidan emas, balki banklar uyushmasi tomonidan berilsa, kredit operatsiyalarini o‘tkazishni boshqarish uchun ham to‘lanadi. So‘nggi holda yetakchi bank yoki uyushma ishni tashkil etuvchi menejer kreditlashda qatnashish hissasini hamda qarzni uzishdan, foizlarni to‘lashdan tushadigan mablag‘larni uyushma a’zolari o‘rtasida taqsimlaydi. Buning uchun qarz oluvchidan boshqarish uchun bir martalik tartibda komission to‘lovlar oladi.

Sug‘urta mukofoti – bu maxsus sug‘urta muassasalariga to‘lanadi. Chunki ular yuz berishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni sug‘urta qiluvchi bilan kelishilgan miqdor doirasida qoplash majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar. Hozirgi vaqtida eksport kreditlarining sug‘urta qilish miqdori ehtimoli bo‘lgan yo‘qotishlarning 80-90%ini tashkil etadi, ba’zida esa hatto 100%ini.

7.3. Xalqaro kreditlar bo‘yicha qarzdorlik muammosi va uni hal qilish yo‘llari

Xalqaro kreditlarni o‘z vaqtida qaytmasligi kredit beruvchi banklar, Xalqaro moliya institutlarining faoliyatiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltirdi.

1982-yilda Argentina hukumatini o‘zini defolt deb e’lon qilishi va mamlakatga jalb etilgan xalqaro kreditlar yuzasidan kafillik majburiyatlarini bajara olmasligi xalqaro kreditlar bo‘yicha qarzdorlik muammosini o‘zining kulminatsion nuqtasiga yetganligini ko‘rsatdi. Bu vaqtga qadar hukumatlarning bankrotligi muammosi bo‘lmagan edi.

Xalqaro kreditlar bo‘yicha qarzdorlik muammosining yuzaga kelishi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Xalqaro kreditni jalg etgan mamlakatlarda iqtisodiy konyunkturaning yomonlashishi.

2. Milliy valyutalar qadrining keskin pasayib ketishi.

Meksikada 1982-yilda milliy valyuta-pesoning qadrini keskin pasayib ketishi natijasida AQSH dollarida olingan xalqaro kreditlarni qaytarish imkon bo'ldi.

O'zbekistonda ham milliy valyuta qadrining keskin pasayish holati kuzatilgan. 2001–2002-yillarda so'm nominal birja kursining devalvatsiya darajasi yuqori bo'ldi (40,9 %). Bu holat respublikamiz milliy valyuta bozorining erkinlashtirish jarayonini chuqurlashtirish bo'yicha 2001–2002-yillarda jiddiy tadbirlarning amalga oshirilganligi bilan izohlanadi. Chunonchi, 2001-yil 22-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 263-sonli «Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi milliy valyuta bozorining likvidlilagini oshirish, xorijiy valyutalar taklifini sezilarli darajada ko'paytirish nuqtai-nazaridan jiddiy voqelik bo'ldi¹.

Ushbu Qarorga muvofiq, 2001-yilning 1-iyulidan boshlab xorijiy investorlar foydasi, dividendlari va boshqa daromadlarini repatriatsiya qilish, eksport qiluvchilar tomonidan valyuta tushumining 50 foizini majburiy sotish, asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, xomashyo, materiallar va xizmatlar importi, yangidan jalg qilinadigan xorijiy kreditlarga xizmat ko'rsatish kabi operatsiyalar birjadan tashqari valyuta bozorining talab va taklifdan kelib chiqib shakllanadigan erkin valyuta kursi asosida amalga oshiriladigan bo'ldi.

Buning ijrosi natijasida valyuta kurslarini unifikatsiyalash jarayoni tezlashdi va pirovard natijada so'mning belgilangan birja kursiga nisbatan ancha past bo'lgan, talab va taklifga asoslangan birja kursi shakllandı.

¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-iyundagi 263-sonli «Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. – Toshkent, 2001. – №8. – B. 26.

3. Xalqaro kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan investitsion loyihalarni kompleks ekspertiza qilish jarayonidagi xato va kamchiliklarning mavjudligi.

Ekspertiza jarayonidagi kamchiliklar tufayli sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkonи bo‘lmaydi. Natijada ishlab chiqarilgan mahsulot sotilmaydi va xalqaro kreditni qaytarish uchun kredit oluvchi yetarli imkoniyatga ega bo‘lmaydi.

4. Olingan eksport tushumlarining jahon bozorlarida tovarlar baholarining o‘zgarib ketishi natijasida xalqaro kreditlarni qoplashga yetmasligi.

5. Xalqaro kreditlarni yetarli darajada ta’minotga ega bo‘lmaganligi.

6. Yuz bergan moliyaviy inqirozlar.

Moliyaviy inqirozlar natijasida ishlab chiqarish hajmining qisqarishi natijasida xalqaro kreditlarni jalb etgan ishlab chiqarish korxonalari yetarli darajada tushumga ega bo‘lmay qoladi. Bu esa, ular tomonidan xalqaro kreditlarni o‘z vaqtida qaytarish imkonini bermaydi. Xususan, 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tovarlar ishlab chiqarish hajmining keskin qisqarishi kuzatildi. Ushbu holat xalqaro kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarishga to‘sqinlik qildi.

1973-yilda neft bahosini 10 martaga oshishiga olib kelgan neft inqirozi natijasida neftni import qiluvchi mamlakatlar to‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limida defisit yuzaga keldi. Neftni eksport qiluvchilar juda katta miqdorda AQSH dollarida tushumga ega bo‘ldilar va bu tushumning sezilarli qismini ichki bozorda joylashtirish imkonи bo‘lmadi. Buning natijasida tushumning ichki bozorda joylashtirilmagan qismi yevroval-yutalar bozoriga yo‘naltirildi. Bu esa, transmilliy banklarning kreditlash imkoniyatini sezilarli darajada oshirdi. Ammo transmilliy banklarning kreditlaridan doimiy ravishda foydalanib kelgan va ushbu kreditlarga nisbatan talabning asosiy qismini shakllantirgan rivojlangan mamlakatlarning mazkur banklarning

kreditlariga bo‘lgan talabi keskin kamaydi. Buning asosiy sababi neft bahosining keskin oshishi natijasida yuz bergan iqtisodiy konyunkturaning yomonlashganligi edi. Natijada, rivojlanayotgan mamlakatlarning transmilliy banklarning kreditlaridan foydalanish imkoniyati oshdi. Ular o‘z hukumatlarining kafolati asosida transmilliy banklarning kreditlarini keng ko‘lamda jalb qila boshladilar.

XX asrning 80-yillari boshida rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan olingan xalqaro kreditlar bo‘yicha yirik miqdorda to‘lovlarni to‘lashga to‘g‘ri keldi. Xalqaro kreditlarning uchdan ikki qismi AQSH dollarida olingan edi. Shu davrda AQSH dollari kursining sezilarli darajada oshishi rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro kreditlarni qaytarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlari summasini yanada oshishiga olib keldi. Mazkur holat 90-yillarning boshiga kelib xalqaro kreditlar bo‘yicha qarzdorlik muammosini keskinlashishiga va bir qator davlatlarning, shu jumladan, Meksikaning defolt bo‘lishiga olib keldi.

O‘zbekiston Respublikasida ham xalqaro kreditlar bo‘yicha qarzdorlik muammosi mavjud. Ushbu muammo ikki holatda namoyon bo‘lmoqda: birinchidan, xalqaro investitsion kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan investitsion loyihalarning o‘zini oqlamasligi natijasida mazkur kreditlar, ularga hisoblangan foizlar O‘zbekiston hukumati, TIF Milliy banki va Asakabankning xorijiy valyutadagi mablag‘lari hisobidan qaytarilmoqda. Buning natijasida O‘zbekiston Respublikasi ichki valyuta bozorida xorijiy valyutalar taklifiga nisbatan kuchli salbiy ta’sir yuzaga kelmoqda; ikkinchidan, jalb qilingan xalqaro investitsion kreditlarning ma’lum qismiga mamlakat ichki bozoridan tovarlar, xomashyolar xarid qilingan, xizmatlar haqi to‘langan. Bu esa, o‘z navbatida, talab infliyatsiyasining kuchayishiga ta’sir qilmoqda. Masalan, “O‘zsmatana santexnika”, “Xobas Tapo”, “Kaolin”, “O‘zebsayd”, “Yantak Brit”, “Asnam tekstil” qo‘shma korxonalari, “Bolalar taomlari” xolding kompaniyasi hammasi bo‘lib 209191 ming AQSH

dollari miqdorida xalqaro investitsion kreditlar olgani holda, o‘z mahsulotlarini eksport qila olmaganligi va ayrim korxonalarini muddatida ishga tushirilmaganligi tufayli kreditorlarga mazkur kreditlar va ularnnig foizlari TIF Milliy bankining xorijiy valyutalardagi mablag‘lari hisobidan to‘lab berilgan. Xorazm shakar zavodi, Farg‘ona furan birikmalari zavodi, Farg‘ona kimyoviy tolalar zavodi kabi korxonalarini xomashyo bazasi bilan ta’minlanmaganligi natijasida xalqaro investitsion kreditlarning qaytmaslik holatlari yuzaga keldi¹.

Xorijiy banklarning kredit liniyalarini respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etish bevosita O‘zbekiston banklarining likvidlilik darajasiga bog‘liq. Shu o‘rinda aytish lozimki, respublikamiz tijorat banklarining valyutaviy likvidliligiga salbiy ta’sir qiluvchi ayrim omillar mavjud. Ana shunday omillardan biri - bu xorijiy banklarning “Vostro” vakillik hisob raqamlarining respublikamiz banklarining balansida mavjud emasligidir.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi “Nostro” vakillik hisob raqamlari qoldig‘ining barqarorligiga salbiy ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri xorijiy banklarning so‘mdagi “Vostro” vakillik hisob raqamlarining respublikamiz banklarida mavjud emasligi hisoblanadi. Muammoning mohiyati shundaki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida xorijiy banklarning so‘mdagi “Vostro” vakillik hisob raqamlarining mavjud emasligi natijasida respublikamiz korxonalarining import to‘lovleri, xalqaro kreditlar va investitsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan xorijiy valyutalardagi to‘lovlar mamlakatimiz banklarining “Nostro” vakillik hisob raqamlarini kreditlash yo‘li bilan amalga oshirilmoqda. Buning natijasida respublikamiz banklarining “Nostro” vakillik hisob raqamlarining qoldiqlari keskin tebranmoqda. Rivojlangan davlatlarda va bir qator o‘tish iqtisodiyoti davlatlarida tijorat

¹ Ma’lumotlar tahlili TIF Milliy bankining joriy hisobot ma’lumotlari asosida amalga oshirildi.

banklari xorijlik tijorat banklari bilan ikki tomonlama vakillik munosabatlariga ega bo'lib, bank mijozlarining import to'lovlari, kapitallar va kreditlarning harakati bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar xorijiy bankning ushbu mamlakat bankida ochilgan "Vostro" vakillik hisob raqamini kreditlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda bankning "Nostro" vakillik hisob raqamining qoldig'iga nisbatan ta'sir yuzaga kelmaydi.

Xalqaro kreditlar bo'yicha qarzdorlik muammosining chuqurlashganligi Bazel qo'mitasining xalqaro kreditlarning kredit riski darajasini baholash metodikasini o'zgartirishga majbur qildi.

Bazel-II standartida xalqaro kreditlar bo'yicha kredit riskini baholashda qo'llaniladigan koeffisientlar quyidagilarni hisobga oladi:

- mamlakatning suveren kredit reytingi;
- bankning reytingi;
- kredit olgan mijozning reytingi;
- bank operatsiyasining turi.

Bazel-II ning muhim talablaridan biri yetarli darajada zaxira ajratmalari bilan ta'minlanmagan xalqaro kreditlarning risk darajasini oshirish talabidir. Ushbu talabning mohiyati shundaki, kreditning qaytarish muddati tugaganiga 90 kun va undan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, yaratilgan zaxira ajratmasi miqdori kredit bo'yicha umumiy qarzdorlikning 20 foizidan kam bo'lsa, u holda, mazkur kreditlarning risk darjasasi 150 foizni tashkil qiladi. Bu esa, muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i nisbatan yuqori bo'lgan tijorat banklarining likvidliligiga va kapital bazasining barqarorligiga salbiy ta'sit ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, respublikamizda kreditlardan ko'rila'digan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari to'liq tijorat banklarining xarajatiga olib boriladi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning so'f foydasini kapitallashtirish darajasining pasayishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, muddati o'tgan kreditlarning 150%

darajasida riskka tortilishi tijorat banklarining riskka tortilgan aktivlari summasining oshishiga olib keladi. Buning natijasida tijorat banklari kapitalining yetarlilik koeffisienti pasayadi. Uchinchidan, kreditlarning asosiy qismi tijorat bankining “Nostro” vakillik hisob raqamlarini kreditlash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Shu sababli, kreditlarning muddatida qaytmasligi bankning likvidli aktivlari miqdorining kamayishiga va shuning asosida uning joriy likvidlilik darajasining pasayishiga olib keladi.

Mavjud bo‘lgan AAA dan S- gacha tashqi reytinglar shkalasida Bazel II’ V- dan kam bo‘lmagan reytinglarni e’tiborga oladi. Yanada past reytingli yuridik shaxslarga (ularning qaysi tarmoqqa aloqador ekanligidan qat’iy nazar) yuqori baholash koeffisienti beriladi (150% miqdorida).

“Bazel II” tomonidan, davlatlar va markaziy banklarga berilgan (suveren reytingi deb atalmish) reytinglar, u yoki bu korxona yoki kredit tashkilotining yakka tartibdagi kredit reytinglari va eksport kredit reytinglari farqlanadi.

Xalqaro reyting agentliklari - Standart end Purs, Mudis va Fitch xalqaro kreditlar bo‘yicha to‘lovga qobililikni quyidagicha baholaydi (7.1-jadval).

7.1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, xalqaro reyting agentliklari xalqaro kreditlar bo‘yicha to‘lovga qobililikni aniqlashda asosiy e’tiborni mijozning suveren kredit reytingiga qaratadi.

VVV dan past reyting bahosiga ega bo‘lgan mijozlarni kreditni qaytarmaslik ehtimoli nisbatan yuqori baholangan. D va S reyting baholariga ega bo‘lgan mijozlar esa, kredit to‘loviga layoqatsiz mijozlar sifatida baholanadi va ularga berilgan kreditlarning risk darjasini yuqori hisoblanadi.

7.1-jadval

Standart end Purs, Mudis va Fitch xalqaro reyting agentliklarining xalqaro kreditlar bo'yicha to'lovga qobililikni aniqlash shkalalari

Standart end Purs	Mudis	Fitch	Reytingning mazmuni
Investitsion reyting			
AAA	Aaa	AAA	Asosiy qarz summasi va foizlarni qaytarish imkoniyati juda yuqori.
AA	Aa	AA	Asosiy qarz summasi va foizlarni qaytarish imkoniyati juda yuqori (eng yuqori reytingdan unchalik farq qilmaydi).
A	A	A	Asosiy qarz summasi va foizlarni qaytarish imkoniyati juda yuqori, ammo iqtisodiy sharoitlarning salbiy ta'siriga beriluvchanlik mavjud.
VVV	Vaa	VVV	Asosiy qarz summasi va foizlarni qaytarish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud, ammo iqtisodiy sharoitlarning salbiy ta'siri qarzni to'lash imkoniyatini pasayishiga olib kelish ehtimoli katta.
Spekulativ reyting			
VV	Va	VV	Qarzlarni qaytarishdan bosh tortish ehtimoli juda past, ammo qarz moliyaviy va iqtisodiy sharoitlarning salbiy ta'siriga beriluvchan. Bu esa, asosiy qarz va foizlar bo'yicha to'lovlarni kechikishiga olib kelishi mumkin.
V	V	V	Tashqi ta'sirlarga bog'liqlik darajasi kuchli.
SSS	Saa	SSS	Qarzlar va foizlarni qaytarmaslik riski yuqori darajada (moliyaviy va iqtisodiy sharoitlarning salbiy ta'siri natijasida qarzdor majburiyatlarini bajarishga qodir emas).
SS	-	SS	Asosiy qarz summasi va foizlarni qaytmaslik ehtimoli juda yuqori.
S	Sa	S	Bankrotlik jarayoni boshlangan, ammo to'lovlar davom etmoqda.
D	S	DDD/ DD/D	Qarzni to'lashdan bosh tortildi yoki bankrotlik jarayoni boshlangan.

Tayanch so‘z va iboralar

Xalqaro bank krediti; xalqaro tijorat krediti; marja; spred; suzuvchi foiz stavkasi; belgilangan foiz stavkasi; muddati o‘tgan kreditlar; defolt; devalvatsiya; suveren kredit reytingi; kompleks ekspertiza.

Takrorlash uchun savollar

1. Xalqaro kreditlarning qanday tamoyillari mavjud?
2. Xalqaro bank kreditini berish va qaytarish tartibi qanday?
3. Xalqaro tijorat kreditini berish va qaytarish tartibi qanday?
4. Xalqaro kreditlarning bahosi qanday shakllanadi?
5. Xalqaro kreditlarning bahosiga qaysi omillar ta’sir ko‘rsatadi?
6. Xalqaro kreditlar bo‘yicha kredit riski darajasi qanday aniqlaandi?
7. Kredit riski nima?
8. Devalvatsiya xalqaro kreditlarga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
9. Xalqaro kreditlar bo‘yicha qarzdorlik muammosi qaysi sabablarga ko‘ra paydo bo‘ladi?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Xalqaro kreditning mazmuni va tamoyillari.
2. Xalqaro bank krediti.
3. Xalqaro tijorat krediti.
4. Xalqaro kreditning bahosi va unga ta’sir etuvchi omillar.
5. Xalqaro kreditlarning ta’minoti.
6. Xalqaro kreditlar bo‘yicha qarzdorlik muammosi.
7. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xalqaro kreditlarni jalg etish masalasi.

VII BOB. VALYUTA INQIROZLARI

8.1. Valyuta inqirozlari tushunchasi va ularning yuzaga kelish sabablari

Valyuta inqirozi iqtisodiy inqirozning bir turi hisoblanadi.

Iqtisodiy inqiroz (resessiya) – iqtisodiyotni shunday holatiki, mamlakatning yalpi ichki mahsulotining absolyut hajmi kamida ikki kvartal mobaynida ketma-ket qisqaradi.

Valyuta inqirozi – fond bozori hajmini 20 % dan oshiq kamayishi, banklar o'rtasidagi kredit bozorida procent stavkalarini ikki marta o'sishi, milliy valyuta kursining 10 % dan ortiq pasayishi holatidir.

Bank inqirozi quyidagi holatlarda sodir bo'ladi, agar:

- ishlamaydigan aktivlarni bank tizimini yalpi aktividagi ulushi 10 % dan ortiq bo'lsa;

- bank tizimini qutqarish uchun sarflanadigan xarajatlar qiymatining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ikki foizdan oshiq bo'lsa;

- banklarning bankrotlashuvi yoki natsionalizatsiyalashuvi kuzatilsa;

- hukumat moliya bozorlari va moliya institutlarini qutqarish uchun ekstraordinar chora-tadbirlarni qo'llasa;

- hamma iqtisodiy va moliya inqirozlarning chuqurlashuvi, moliyaviy va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishining davomiyligi, xalqaro va milliy doirada sodir bo'lsa.

XX asrda yuz bergen jahon valyutaviy inqirozlarining sabablari:

- yirik rivojlangan mamlakatlarning ko'p yillar davomida davlat byudjeti taqchilligi va salbiy tashqi savdo balansiga egaligi;

- davlat tashqi qarzi miqdorini YaMga nisbatan o'sish sur'atlarini jadallahishi;

- noratsional pul-kredit siyosati hamda qayta moliyalash

stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashash kundalik odatga aylanishi;

- ipoteka kreditlari berish talablarining asossiz bo'shashtirib yuborilganligi va uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin o'sishi;

- moliyaviy institutlarning majburiyatlariga nisbatan ustav mablag'larining mutanosibligini keskin buzilishi;

- qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;

- moliyaviy audit va professional etika tamoyillarining buzilishi va soxta audit xulosalari taqdim etilishi;

- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog'ozlarni vujudga kelishi.

- ushbu omillar mamlakatlar iqtisodiyotiga turlicha ta'sir ko'rsatadi va inqirozga qarshi kurash chora-tadbirlarni ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak.

8.2. Valyuta inqirozi davrida valyuta intervensiyasini amalga oshirish

Valyuta inqirozi valyutalarning nominal almashuv kursini keskin tebranishlarini yuzaga keltiradi. Bu esa, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning subyektlarini moliyaviy holatiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda valyuta intervensiysi valyutalarning almashuv kurslarining tebarinsh diapazonini qisqartiruvchi asosiy instrument hisoblanadi.

XX asrning 70-90-yillarida markaziy banklar tomonidan amalga oshirilgan valyuta intervensiyalari obyekti bo'lib AQSH dollari hisoblanar edi. Bu davrlarda valyuta intervensiysi AQSHdagiga nisbatan tovarlar bahosini keskin o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik yoki AQSH dollarining Yevropa valyuta tizimi (YEVT) mamlakatlarida keskin tebranishining oldini olish maqsadida qo'llanilar edi. Masalan, Fransiyada AQSH dollari kursining pasayishi yuz berganda nemis markasi sotilardi, AQSH dollari sotib olinardi. Italiyada esa, AQSH dollarining

kursi pasaysa, Italiya Markaziy banki AQSH dollarini, nemis markasi va golland guldenini sotar edi. Ana shu yo'l bilan AQSH dollarining tebranishi natijasida YEVTda yuzaga keladigan salbiy holatlarga barham berilar edi.

Faqat 1992–1993-yillarda yuz bergan valyuta inqirozi paytida YEVTga a'zo bo'lgan ayrim mamlakatlarning markaziy banklari (Angliya Markaziy banki, Italiya Markaziy banki) tomonidan amalga oshirilgan valyuta intervensiysi kutilgan natijani bermadi. Masalan, Angliya va Italiya Markaziy banklari tomonidan valyuta intervensiysi doirasida AQSH dollarining sotilishi funt sterling va Italiya lirasi kursining pasayish tendensiyasiga barham bera olmadi. Natijada mazkur valyutalar YEVTdan chiqarib tashlandi.

1979-yildan boshlab valyuta intervensiysi mexanizmi Yevropa Ittifoqi mamlakatlariida tubdan o'zgardi. Ya'ni, YEVTdagi har bir valyuta uchun EKYuga nisbatan markaziy kurs belgilandi va bu kurs faqatgina kurs qayta ko'rib chiqilganda o'zgartirilar edi. YEVTdagi har qanday ikkita valyutaning EKYuga nisbatan markaziy kurslari o'rtaсидagi nisbat ikki tomonlama paritetni tashkil etar edi. Ushbu ikki tomonlama paritetdan kursning tebranish chegarasi $\pm 4,5\%$ qilib belgilangan edi. Chunki bu vaqtida milliy valyutalarning paritetdan tebranish diapazoni $\pm 2,25$ qilib belgilangan edi.

Agar ikki valyuta ikki tomonlama paritetdan tebranish chegarasiga yetsa, u holda, majburiy intervensiya amalga oshirilar edi. Ushbu intervensiya har ikkala markaziy bank tomonidan amalga oshirilar edi. Kuchli valyutaning emitenti zaif valyutani yetarli darajada ko'p miqdorda sotib olishi, kuchli valyutani sotishi mumkin edi. Zaif valyutaning emitenti esa kuchli valyutani cheklanmagan miqdorda o'zining milliy valyutasiga sotishi mumkin edi.

Majburiy valyuta intervensiyasini amalga oshirish uchun, albatta, kuchli valyutaning emitenti zaif valyutaning emitentiga limitsiz kredit liniyasini ochib qo'yishi zarur. Bunday

kreditlarning muddati valyuta intervensiysi amalga oshirilgan oy tugagandan keyin 45 kun qilib belgilangan edi, keyinchalik 75 kun qilib belgildi. Mazkur kreditlar ularni olgan mamlakatlarning markaziy banklarining iltimosiga ko'ra 3 oygacha muddatga tiklanishi mumkin edi. Lekin tiklanganda beriladigan kreditning miqdori cheklangan bo'lib, mamlakatning qisqa muddatli kreditlash fondidagi badalining ikki barobari miqdorida belgilangan edi.

AQSHda "Katrina", "Rita" to'fonlarining oqibatlarini bartaraf etish, Afg'oniston va Iroqdag'i urush harakatlari natijasida Davlat byudjetining xarajatlari keskin oshdi va ularning moliyalashtirilishi AQSH dollari taklifini oshishiga olib keldi. Buning natijasida AQSH dollarining boshqa etakchi valyutalarga nisbatan jahon valyuta bozorlaridagi pozitsiyasi sezilarli darajada zaiflashdi. Bu esa, FZTni rahbariyatini hisob stavkasini sezilarli darajada oshirishga majbur qildi.

Yevroning 2001-2004-yillarda AQSH dollari va boshqa yetakchi valyutalarga nisbatan qadrining oshishi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, yevrozona mamlakatlarining eksport salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli, EMB 2004-2005-yillarda hisob stavkasini sezilarli darajada oshirdi va valyuta intervensiysini amalga oshirishga majbur bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, xalqaro rezerv valyutalar nominal almashuv kursining barqaror emasligi, ularni sezilarli diapazonlarda tebranayotganligi jahon valyuta tizimining dolzarb muammolaridan biri bo'lib turibdi. Ayniqsa, AQSH dollari va yevroning nominal almashuv kurslarini tez-tez tebranib turishi kuzatilmogda. AQSH davlat qarzining nisbatan katta ekanligi, savdo balansida katta miqdordagi defisitning mavjudligi, davlat byudjeti defisitining katta ekanligi Federal zaxira tizimi (FZT) tomonidan amalga oshirilayotgan qayta moliyalash siyosatining moslashuvchanlik darajasining yuqori ekanligi dollarning nominal almashuv kursini sezilarli darajada katta diapazonlarda tebranishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, o'z

navbatida, jahon valyuta tizimining barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Holbuki, AQSH dollari hamon dunyoning asosiy rezerv valyutasi bo'lib turibdi. 2013-yilning 1-yanvar holatiga, SDRning "valyuta savatida" AQSH dollarining salmog'i 41,9 foizni tashkil etadi¹.

AQSH dollari nominal almashuv kursining tebranishiga sabab bo'layotgan asosiy omillardan biri bo'lib, mamlakat savdo balansining katta miqdordagi defisitga ega ekanligi hisoblanadi. 2012-yilning 1-yanvar holatiga, AQSH savdo balansining defisiti 52,6 mlrd. dollarga yetdi². Bu 2008-yilning oktabr oyidan boshlab 2012-yilgacha bo'lgan davrdagi eng katta miqdordagi defisit hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda AQSHning Xitoy bilan amalgal oshiriladigan savdo munosabatlaridagi defisit miqdorining o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

AQSH Davlat byudjeti defisiti va tashqi qarzining xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yoriy darajadan yuqori ekanligi dollarning nominal almashuv kursi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan jiddiy omillar hisoblanadi. 2011-yilning yakuniga ko'ra, AQSHda davlatning tashqi qarzi YalM miqdoridan oshdi, Davlat byudjeti defisiti summasi esa, 1,3 trln. AQSH dollarini tashkil qildi. Bu esa, AQSH YalMning 8,5 foizini tashkil qiladi³.

Xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yoriy andozaga ko'ra, Davlat byudjetining YalMga nisbatan salmog'i 3,0 foizdan oshib ketmasligi lozim. Davlatning tashqi qarzi esa, YalMga nisbatan 30,0 foizdan oshib ketmasligi kerak. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlatning jami qarziga, ya'ni ichki va tashqi qarziga nisbatan me'riy chegara o'matilgan bo'lib, u YalMga nisbatan 60 foizni tashkil etadi⁴.

¹ www.imf.org.

² <http://lenta.ru/news/2012>.

³ Board of Governors of the Federal Reserve System. Annual Report. 2011. – Washington, 2012. - P. 16-17.

⁴ Экономика Европейского Союза. Под ред. Р.К. Щенина. – М.: КноРус, 2012. – 560 с.

Yaponiyada Davlat va Markaziy bank tomonidan muammoli aktivlarni sotib olinishi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yomonlashishiga va shuning asosida milliy valyuta almashuv kursining tebranishlariga sabab bo'lmoqda. Xususan, Yaponiya Markaziy banki 2008-2010-yillarda 55 trln. ien miqdoridagi aktivlarni sotib oldi. 2011-yilda yana 10 trln. ien miqdoridagi muammoli aktivlarni sotib olishga qaror qilindi¹.

Yaponiya hukumati va Markaziy banki kompaniyalar va banklarning muammoli aktivlarini sotib olish yo'li bilan ularning ko'pchiligin bankrot bo'lishdan saqlab qoldi. Agar og'ir moliyaviy ahvolni boshidan kechirayotgan kompaniyalar va banklarning qimmatli qog'ozlarini sotib olmaganda edi, ushbu qimmatli qog'ozlarning bozor baholarining pasayishi natijasida ularning bozor baholari pasayib, emitentlarning bozordagi mavqeiga jiddiy putur yetgan bo'lar edi.

2009-yil yanvar oyida Yaponiya to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limi bo'yicha defisit summasi 172,8 mlrd. ienni tashkil etdi. Holbuki, bunga qadar 13 yil mobaynida defisit bo'limgan edi².

AQSH dollari kursining nobarqarorligi Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Xitoy kabi mamlakatlarni ham tashvishga solmoqda. Chunki, ularning xalqaro valyuta zaxiralarining asosiy qismi AQSH dollarida shakllangan. Shu sababli, 1999-yil yanvarda Yaponiya va Germaniya Moliya vazirlari AQSHga dollar, yevro va ienning kurslarini o'zaro bir-biriga bog'lashni taklif qildilar. Ammo AQSH Federal zaxira tizimining o'sha vaqtdagi rahbari A.Grinspen va Moliya vaziri R.Rubin ushbu taklifni qat'ian rad etdilar. Ularning fikriga ko'ra, mazkur uch yetakchi valyuta kurslarini o'zaro bir-biriga bog'lashni joriy etish AQSH Federal zaxira tizimining ishsizlik va inflyatsiyaga qarshi kurashishga

¹ Центробанк Японии напечатает еще 10 триллионов иен.
<http://lenta.ru/news/2010>.

² <http://www.mof.go.jp.english/budget/htm>.

qaratilgan pul-kredit siyosatining mustaqilligiga putur yetkazadi¹.

“Yevrohudud”dagi qarz muammolari, Gretsya, Ispaniya, Italiya, Portugaliyadagi og‘ir moliyaviy holatlar, pirovard natijada, yevtoning AQSH dollari va boshqa yetakchi valyutalarga nisbatan kursining tebranishlariga va pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, Gretsiyadagi og‘ir iqtisodiy inqiroz holatlarini bartaraf etish maqsadida ajratilayotgan kreditlar va boshqa shakllardagi moliyaviy mablag‘lar yevrodagi pul massasining oshishiga sabab bo‘lmoqda.

8.3. 2008-yilgi jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi: yuzaga kelish sabablari, oqibatlari va o‘ziga xos xususiyatlari

2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi AQSHning ipotekali kreditlash tizimida yuz bergan tanglikdan boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek, “bu inqiroz Amerika Qo‘shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro‘y bergan tanglik holatidan boshlandi. So‘ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarining likvidlik, ya’ni to‘lov qobiliyati zaiflashib, molyaviviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o‘z navbatida, ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog‘liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi”².

2008-yildagi jahon moliya inqirozining rivojlanish bosqichlari quyidagilardan iborat:

¹ Монсеев С.Р. Международные валютно-кредитные отношения. – М.: Дело и Сервис, 2007. - С. 625-626.

² Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston shroitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. - B.4.

1. AQSHda ko‘chmas mulk bozori inqirozi – 2008-yil avgustga qadar.
2. Investitsion banklarda likvidlik inqirozi – 2008-yil maydan boshlab.
3. Kreditlashning paralich holatiga kelishi – 2008-yil avgust-sentyabr.
4. Kotragentlarga bo‘lgan ishonch inqirozi – 2008-yil sentyabr.
5. Yetakchi banklarni yumshoq natsionalizatsiya qilish – 2008-yil sentbyar-oktabr.
6. Korporatsiya va aholini daromadlarini qisqarishi va talabni kamayishi – 2008-yil oktabr.
7. Jamg‘arma tizimidagi sarosima xavf-xatarlari – 2008-yil oktabrdan boshlab sug‘urta depozitlarini ortishi.
8. Ishlab chiqarish, bandlik va investitsiyaning kamayishi.
9. Real sektorga ta’sirni cheklanishi.
10. Bozorga bo‘lgan ishonchning tiklanishi.
11. Xalqaro moliya tizimini monitoringi va tartibga solishni isloh qilish.

8.1-jadval

Alohida olingan mamlakatlarning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan moliyaviy mablag‘lari¹

Mamlakat	Moliyaviy mablag‘lar miqdori, mlrd. AQSH dollarasi	Moliyaviy mablag‘larning YalMga nisbatan salmog‘i, %
Rossiya	222	13,9
Buyuk Britaniya	1020	37
AQSH	3539	25
Germaniya	893	23
Yaponiya	576	12
Xitoy	570	13

¹ Зальем ли нефтью долларами пожар экономики. e-mail eg@economic, 2008.

8.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rindan, miqdor jihatidan AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniyada global inqiroz oqibatlari bartaraf etish maqsadida nisbatan katta mablag' sarflangan. Ushbu mablag'larning YalMga nisbatan yuqori darajasi ham ushbu mamlakatlarda kuzatilgan. Bu esa, mazkur mamlakatlarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozinining iqtisodiyotga nisbatan kuchli ta'sir etganligi bilan izohlanadi.

8.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rindan, 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi jiddiy oqibatlarga ega bo'lganligi sababali, dunyo mamlakatlari uni bartaraf etish maqsadida juda katta mablag'lar sarflaganlar.

Yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida mazkur pul qoidasi buzildi. Ya'ni, Markaziy banklar tijorat banklariga muddatli kreditlar bera boshladilar.

2008-2009-yillarda AQSH Federal zaxira tizimi (FZT), Yevropa Markaziy banki (EMB), Angliya, Shveytsariya va Yaponiya markaziy banklari 600 mlrd. yevrodan ortiq miqdorda qayta moliyalash kreditlari berishga qaror qildi. 2008-yilgacha bo'lgan davrda ham taraqqiy etgan mamlakatlarning markaziy banklari tomonidan tijorat banklariga muddatli kreditlar berish amaliyoti mavjud edi. Ammo ushbu kreditlar juda qisqa muddatli bo'lib, faqat tijorat banklarining joriy likvidliligini ta'minlash maqsadiga berilar edi.

2007-yilning dekabr oyida FZT tijorat banklariga davri olti oygacha bo'lgan muddatga markazlashgan kreditlar berishni boshladi. EMB esa, 2008-yilning 16-oktabridan boshlab, tijorat banklariga 6 oygacha bo'lgan muddatga markazlashgan kreditlar bera boshladi¹.

Qayd etish joizki, EMB tijorat banklariga qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yib, qayta moliyalash kreditlari olish imkoniyatini oshirdi. Ya'ni, EMB markazlashgan kreditlarning garov ta'minoti sifatida qabul qilinadigan qimmatli qog'ozlarining sonini oshirdi. Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga

¹ Андрюшин С., Бурлачков В. Денежно-кредитная политика и глобальный финансовый кризис: вопросы методологии и уроки для России // Вопросы экономики. – Москва, 2008. – №11. – С. 39.

qadar EMB faqat hukumatlarning qimmatli qog'ozlarini hamda kompaniyalar va banklarning aktivlari bilan ta'minlangan obligatsiyalarnigina o'zining markazlashgan kreditlari uchun garov sifatida qabul qilar edi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siri tufayli tijorat banklarining likvidlilik darajasini keskin pasayganligi natijasida EMB tomonidan markazlashgan kreditlar hajmini oshirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Natijada, EMB korporativ aksiyalar va ipoteka obligatsiyalarini garov obyekti sifatida tan olib, 2008-yilda 8 mingta bankka lombard kreditlari olish imkonini berdi¹.

Angliya Markaziy banki jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining boshlang'ich fazasida qayta molialash kreditlari hajmini oshirish yo'lini tutmadi. Ammo Angliya banki bunga qadar hukumatning qimmatli qog'ozlari hamda kompaniyalar va banklarning obligatsiyalari hamda ipoteka obligatsiyalarini garovga olish yo'li bilan tijorat banklariga qayta molialash kreditlari berish amaliyotiga ega edi.

Jahon moliya inqirozi sharoitida monetar siyosatni amalga oshirishning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, monetar indikatorlarning beqarorligi hisoblanadi. Masalan, Xitoy Markaziy banki, Yevropa Markaziy banki, AQSH FZT 2008-2009-yillarda hisob stavkasini bir necha marta o'zgartirdi².

Lekin, shu bilan birga, global moliyaviy inqiroz davrida Markaziy banklarning hisob stavkasini keskin pasaytirilganligi inflyatsiya xavfini yuzaga keltirdi. Natijada, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki holat yuzaga keldi: bir tomonidan, hisob stavkalarining pasaytirilishi tijorat banklari faoliyatidagi likvidlilik muammosini bartaraf etish imkonini berdi; ikkinchi tomonidan esa, Markaziy banklarning hisob stavkalarini pasaytirilishi, ya'ni "arzon pullar" siyosatining amalga oshirilishi muomaladagi pul massasining oshishiga olib keladi.

¹ European Central Bank Report 2007. –Fr/M., 2008 ma'lumotlari.

² <http://lenta.ru/news/2010/12/22/japan> sayti ma'lumotlari.

Bizga ma'lumki, pullar taklifining yuqori sur'atlarda oshishi infliyatsiyaning kuchayishiga olib keladi.

2008-yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining o'ziga xos xususiyatlari:

1. Hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining xususiyatlari Birinchidan, taraqqiy etgan mamlakatlardan boshlanib, inqiroz juda katta masshtabga ega bo'lib, barcha davlatlar va hududlarni qamrab olmoqda.

2. Ushbu inqiroz tarkibiy xarakterga ega, ya'ni jahon iqtisodiyoti tarkibi va uning texnologik bazasida jiddiy yangilanishni taqozo etmoqda. Tarkibiy o'zgarishlar tufayli ishlab chiqarish kuchlari tarmoq va hududlar bo'yicha qayta taqsimlanadi.

3. Inqiroz innovatsion xarakterga ega. So'nggi yillarda moliya-iqtisodiyot sohasida moliyaviy innovatsiya bilan bog'liq moliya bozorining yangi dastamlari (derivativlar) vujudga keldi va ular jahon iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlash o'mniga inqirozga olib keldi.

4. Moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, resessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko'laming cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahoning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofatlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.

5. Avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi.

6. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha qator omillardan kelib chiqadi. Ya'ni, bu avvalo, ana shu davlatning moliya-valyuta tizimi nechog'lik mustahkam

ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to'lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekanligiga, shuningdek, oltin-valyuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada – mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liq.

7. Jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq.

Mazkur jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini bartaraf etish maqsadida XVF tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- moliya bozorlarini tartibga solishning yangi qoidalarini ishlab chiqish va mamlakatlarni makroiqtisodiy parametrlariga yangi talablar qo'yish (Maastricht shartnomasiga o'xshagan);
- Xalqaro valyuta fondi moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish (250 mld dollardan 1 trln. dollarga yetkazish);
- 20 lik mamlakatlarni rolini oshirish va statusini mustah-kamlash;
- reyting agentliklari faoliyatini yagona tartibga solish tizimini yaratish;
- moliya sohasida yangi xalqaro tashkilotni tuzish yoki mavjudlarini qayta tashkil qilish asosida a'zo bo'lgan mamlakatlarni moliya va fiskal siyosatini yagona qoida asosida amalga oshirish.

Tayanch so'z va iboralar

Iqtisodiy inqiroz; bank inqirozi; valyuta kursi; valyuta inqirozi; valyuta savati; valyuta intervensiysi; devalvatsiya; revalvatsiya; byudjet defisiti; tashqi qarz; hisob stavkasi; reyting agentliklari.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy inqiroz nima?
2. Valyuta inqirozi nima va u qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?
3. Valyuta inqirozini yuzaga keltiruvchi sabablar nimadan iborat?
4. Valyutaviy inqirozlar qanday oqibatlarga olib keladi?
5. Valyutaviy inqirozlarga qarshi qanday kurash usullari mavjud?
6. 2008-yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi qanday sabablarga ko‘ra yuz berdi?
7. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etishda qanday chora-tadbirlardan foydalanildi?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Valyuta inqirozlarini yuzaga keltiruvchi sabablar.
2. Valyuta inqirozlarining ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari.
3. Valyuta inqiroziga qarshi kurash chora-tadbirlari.
4. Valyuta inqirozi sharoitda valyuta intervensiyasini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari.
5. Xalqaro rezerv valyutalarining almashuv kurslari barqarorligi.
6. O‘zbekiston iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozinинг ta’siri.
7. Globallashuvning valyuta inqirozlariga ta’siri.

IX BOB. XALQARO VALYUTA-KREDIT VA MOLIYA TASHKILOTLARI

9.1. Xalqaro valyuta fondi

XVFni tashkil etish to‘g‘risidagi qaror 1944-yilda AQSHning Nyu-Xempshir shtatidagi Bretton – Vuds shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada qabul qilingan edi. Konferensiyada 44 davlatdan vakillar ishtirot etgan.

1929-1933-yillarda yuz bergan Buyuk depressiyani takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik.

XVFning Nizomi ishlab chiqildi. Bunda AQSH Moliya vaziri Garri Uayt va J.M.Keynsning xizmati katta.

XVF o‘z faoliyatini 1945-yil dekabrdan boshladi.

XVF faoliyatining maqsadlari:

1. Valyuta-moliyaviy sohada xalqaro hamkorlikni rivojlan-tirishga ko‘maklashish.

2. Xalqaro savdoni barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish.

3. Valyutalarning barqarorligini ta‘minlashga ko‘mak-lashish, a’zo davlatlar o‘rtasida tartibga solingan valyuta rejimini qo‘llanilishini ta‘minlash.

4. Davlatlar o‘rtasida ko‘p tomonlama hisob-kitoblar tizimini yaratishga yordam berish.

5. Davlatlarning barqaror iqtisodiy o‘sishiga ko‘maklashish.

6. Kambag‘allikka qarshi kurashish.

XVFning oliy boshqaruv organi Boshqaruvchilar kengashidir. U yiliga 1 marta yig‘ilish o‘tkazadi.

XVFning joriy faoliyatini Ijro Kengashi amalga oshiradi. U 24 a’zodan iborat.

Kengash haftada 3 marta majlis o‘tkazadi. 8 ta davlat yirik aksiyador sifatida Kengashda o‘zining doimiy o‘rniga ega: AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabiston.

Qolgan 16 direktor 2 yil muddatga tegishli mamlakatlar guruhi tomonidan saylanadi.

Ijro kengashi Ijrochi direktorni saylaydi.

Ijro kengashi a'zolari bir vaqtning o'zida Jahon banki ijro kengashi a'zolari hisoblanadi.

XVF 26 departamentdan iborat. Uning xodimlarining uchdan ikki qismi iqtisodchilardir.

XVFning shtab kvartirasi Vashington shahrida. Shuningdek, Nyu-York va Jenevada bo'linmalari bor.

1. Xalqaro valyuta tizimida yuzaga kelgan o'zgarishlarni kuzatib boradi va davlatlarga iqtisodiy va moliya siyosatidagi muammolarning echimi bo'yicha maslahatlar beradi.

2. A'zo mamlakatlarga kreditlar beradi. Kreditlar asosan to'lov balansida muammolar mavjud bo'lgan mamlakatlarga beriladi.

A. Stend-bay kreditlari. 12-18 oy. To'lov balansida qisqa muddatli muammo.

B. Kambag'allikni qisqartirish maqsadiga berilgan kreditlar. To'lov balansida uzoq muddatli muammo. Foiz stavkalari o'rtaqidagi farq XVFga tegishli oltinni sotishdan olingan mablag'lar hisobidan va a'zo davlatlar tomonidan ajratilgan qarzlar va grantlar hisbidan subsidiyalanadi.

Mazkur kreditlar 10 yilgacha muddatga, yillik 0,5% stavkada beriladi.

V. Kompensatsion moliyalashtirish.

Oziq-ovqat. Bunda marja bo'lmaydi.

G. Favqulodda yordam.

Tabiiy ofatlar va harbiy harakatlar tufayli zarar ko'rgan davlatlarga 3,25%-5 let.

3. A'zo mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklariga texnik yordam ko'rsatadi.

4. Xalqaro iqtisodiy forumlarni o'tkazadi.

XVF resurslari quyidagi manbalardan tashkil topadi:

1. A'zo mamlakatlarning a'zolik badallari, ya'ni kvotalari.

2. Qarzlar bo'yicha Bosh bitim (11 ta davlat).
3. Qarzlar bo'yicha Bosh bitim (25 ta davlat).

9.1-jadval
XVF qarzlari to'g'risidagi Bosh bitim ishtirokchilari¹

Ishtirokchi	Summa, mln. SDR
AQSH	4250
Bundesbank (Germaniya)	2380
Yaponiya	2125
Fransiya	1700
Buyuk Britaniya	1700
Italiya	1105
Shveytsariya Milliy banki	1020
Kanada	892
Niderlandiya	850
Belgiya	595
Riksbank (Shveuiya)	382
Jami	17000

9.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rindan AQSH hukumati, Germaniya Markaziy banki, Yaponiya, Fransiya, Buyuk Britaniya hukumatlari XVFning resurs bazasini tashkil etishda katta rol o'ynaydi.

9.2. Jahon banki guruhi

Jahon banki guruhi XVF bilan bir vaqtida tashkil etilgan.

Jahon banki guruhi quyidagi tashkilotlardan tashkil topgan:

1. Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki (XTTB).
2. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK).
3. Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRK).
4. Investitsion kafolatlar bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (IKKTA).
5. Investitsion munozaralarni tartibga solish bo'yicha xalqaro markaz (IMTXM).

¹ IMF IFS 2012. www.imf.org.

XTTB faoliyatining maqsadlari:

- qashshoqlik va ochlik muammosini hal qilish;
- boshlang'ich umumiyligi ta'minlash;
- erkaklar va ayollar o'rtaсидаги teng huquqlilikni ta'minlash;
- bolalar o'limini kamaytirish;
- OITS va boshqa kasalliklarga qarshi kurash;
- ekologik barqarorlikni ta'minlash;
- taraqqiyot yo'lida global hamkorlikni shakllantirish.

XTTBning yirik aksiyadorlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- * AQSH – 16,41%
- * Yaponiya – 7,78%
- * Germaniya – 4,49%
- * Buyuk Britaniya ~ 4,31%
- * Fransiya ~ 4,31%.

XTTBni Boshqaruvchilar kengashi boshqaradi. Boshqaruvchilar kengashida har bir a'zo mamlakatning Moliya vazirlari yoki Iqtisodiyot vazirlari o'tiradi. Ular har kuzda yig'ilishadi.

Boshqaruvchilar kengashi quyidagi masalalarni hal qilish bo'yicha vakolatlidir:

- yangi a'zolarni qabul qilish;
- bankning ustav kapitaliga o'zgartirish kiritish;
- foydani taqsimlash;
- bankning hisobotlari va byudjetini tasdiqlash.

XTTB faoliyatini operativ boshqarish bilan ijrochi direktorlar kengashi shug'ullanadi. Kengashda 24 ta ijrochi direktor mavjud. Shuning 5 tasi XTTBning yirik aksiyadorlari vakillaridir.

An'anaga ko'ra, XTTB Prezidenti AQSH fuqarosi bo'lishi kerak. U 5 yil muddatga saylanadi.

XTTB 3 turdag'i xizmatlarni a'zo mamlakatlarga ko'rsatadi:

- moliyaviy xizmatlar;
- maslahat xizmatlari;

- kadrlarni o'qitish va tayyorlash xizmati.

XTTB investitsion loyihalarni kreditlashga va mamlakatlar iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan qayta tashkil etish maqsadlariga uzoq muddatli kreditlar beradi.

XTTB shuningdek, mamlakatlarga foizsiz kreditlar va grantlar ajratadi hamda dotaçiyalar beradi.

XMK 1956-yilda tashkil etilgan.

XMK faoliyatining asosiy maqsadi bo'lib, qashshoqlikni qisqartirish va aholining turmush farovonligini oshirish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlarning xususiy sektoriga jalg etilayotgan investitsiyalarning barqaror oqimini rag'batlantirish hisoblanadi.

XMK moliyaviy mahsulotlarining asosiy qismini kreditlar va investitsiyalar tashkil etadi.

XMK aktivlar portfelining 70 foizdan ortiq qismini berilgan kreditlar tashkil etadi. Berilgan kreditlar, asosan, o'rta va uzoq muddatli kreditlar bo'lib, ular 15 yilgacha muddatga beriladi.

XMK kompaniyalar va banklarning oddiy va imtiyozi aksiyalarini sotib olish yo'li bilan o'zining investitsion faoliyatini amalga oshiradi.

2001-yildan boshlab XMK o'zining mijozlarini majburiyatli yuzasidan kafolatlar berishni boshladi. Korporatsiya yuqori kredit reytingiga (AAA) ega bo'lganligi sababli, uning kafolatlari juda yuqori baholanadi.

XMK tomonidan qilinayotgan investitsiyalarning resurs manbai bo'lib, o'z kapitali va taqsimlanmagan foyda hisoblanadi.

XMK xususiy kompaniyalar va banklarga 5 yildan 15 yil muddatgacha, hukumat kafolatisiz, kreditlar beradi.

XMK resurslari quyidagi manbalardan tashkil topadi:

1. Kapital.
2. Qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan mablag'lar.
3. Xalqaro ssuda kapitallari bozoridan olingan mablag'lar.
4. Taqsimlanmagan foyda.

IKKTA 1988-yilda tashkil etilgan.

IKKTA xorijiy investorlarga notijorat mazmunidagi risklardan ko'riliishi mumkin yo'qotishlar bo'yicha kafolat beradi.

Notijorat mazmunidagi risklarga quyidagilar kiradi:

- ekspropriatsiya riski;
- valyutani konvertirlash riski;
- xorijga valyuta mablag'larini olib chiqishni cheklash;
- harbiy harakatlardan natijasida zarar ko'rish;
- fuqarolar urushi va tartibsizliklar.

IKKTA to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni notijorat risklaridan 15 yildan 20 yilgacha muddatga sug'urtalaydi.

IMTXM ning bosh maqsadi bo'lib, investitsion munozaralarni tartibga solish yo'li bilan rivojlanayotgan mamlakatlarga xorijiy investitsiyalar jalb etishni rag'batlantirish hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, qashshoqliknı qisqartirish imkonini beradi.


Ushbu Markaz 1966-yilda tashkil etilgan edi. Tashkil etilgandan buyon 100 ga yaqin investitsion munozaralarni ko'rib chiqdi.

9.3. Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki

YETTB 1990-yilda tashkil etilgan bo'lib, faoliyatining maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Mintaqaviy integratsiyani qo'llab-quvvatlash;
2. Xususiy mulk va tadbirkorlik rivojlanayotgan mamlakatlarda vositalarni boshqarish va kuchaytirish;
3. Jahon bozoridagi raqobatdoshlikni oshirish maqsadida davlat korxonalarini xususiy lashtirish orqali moliyalashtirish, xususiy korxonalarini qayta tiklashni o'tkazish.


YETTB uch pog'onali boshqaruvi strukturasiga ega: Boshqaruvchilar Kengashi, Direktorlar Kengashi va Prezident (9.1-rasm).




9.1-rasm. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining boshqaruv tizimi.

Boshqaruvchilar Kengashining yig'ilishi har yili bir marta yoki kamida 5 ta direktoring talabiga ko'ra chaqiriladi.

Hal qiluvchi qarorlar ko'pchilikning ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.



9.2-rasm. YETTB Boshqaruvchilar kengashining vakolatlari.



9.3-rasm. YETTBning kredit resurslari.

Shunisi xarakterlikni, YETTB jahon ssuda kapitallari bozoridan resurslar jalb qilish usulidan faol foydalanadi. Bunda YETTB sertifikatlarni chiqarish yo'li bilan resurslar jalb qiladi. Jahon banki esa, jahon ssuda kapitallari bozoridan obligatsiyalar chiqarish yo'li bilan resurslar jalb qiladi.

YETTB kreditlarining 70 foizdan ortiq qismi xususiy sektorga berilgan.

9.1-jadval

YETTB tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar soni va qiymati¹

	2011-y.	2012-y.	2013-y.
Loyihalar soni, dona	380	393	392
Loyihalar qiymati, mln. AQSH dollarri	29479	24871	20527

9.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, 2013-yilda YETTB tomonidan moliyalashtirilgan investitsion loyihalar soni 2011-yilga nisbatan sezilarli darajaga, ya'ni 12 taga kamaygan. Bu esa, mazkur davrda moliyalashtirilgan loyihalar qiymatini ham sezilarli darajada kamayishiga sabab bo'lgan.

9.4. Osiyo taraqqiyot banki (OTB)

OTB 1966-yilda tashkil topgan bo'lib, 67 ta mamlakat a'zodir. Ushbu mamlakatlarning 48 tasi Osiyo mintaqasi davlatlaridir.

OTB faoliyatining maqsadlari:

- a'zo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish;
- Osiyodagi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlan-tirishga ko'maklashish;
- a'zo mamlakatlarning iqtisodiy siyosatini muvofiqlash-tirishga ko'maklashish.

OTBning yirik aksiyadorlari bo'lib, quyidagi davlatlar hisoblanadi:

- * Yaponiya;
- * AQSH;
- * Xitoy;
- * Hindiston;

¹ European Bank for Reconstruction and Development. Annual Report. 2013. – P. 5. ar. ebrd.com

- * Pokiston;
- * Indoneziya;
- * Bangladesh.


OTBning eng yirik aksiyadorlari Yaponiya va AQSH bo'lib, ularning har birining OTBning ustav kapitalidagi ulushi 15 foizni tashkil etadi.

OTBning nizomiga ko'ra, OTB Prezidenti faqat Osiyo mintaqasidagi davlatning vakili bo'lishi kerak. Shu sababli, OTB tashkil topganidan to hozirga qadar o'tgan vaqt davomida OTBning Prezidenti faqat Yaponiya fuqarolari bo'lib kelishmoqda. Chunki, Yaponiya mintaqadagi davlat bo'lib, mintaqa davlatlari ichida OTBning ustav kapitalida eng katta ulushgaga ega. So'nggi yillarda Xitoyning OTBning ustav kapitalidagi ulushining oshib borishi kuzatilmoqda. Ajabmas, yaqin kelajakda Xitoyning OTB ustav kapitalidagi ulushi Yaponiyanikiga tenglashib qolsa.

OTB rivojlanayotgan mamlakatlarga quyidagi fondlar hisobidan kreditlar beradi:

1. Oddiy fond hisobidan tijorat shartlari asosida 25 yil muddatga beriladigan kreditlar (barcha kreditlarning qariyb 2/3 qismi).
2. Osiyo rivojlanish maxsus fondi hisobidan imtiyozli yillik 1-3% stavkalar bo'yicha kambag'al mamlakatlarga 40 yilgacha muddatga beriladigan kreditlar¹.

¹ Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Moliya, 2012. – B. 646.



9.4-rasm. OTB qoshidagi Osiyo taraqqiyot fondining mablag'lar¹,
mln. AQSH dollar.

9.4-rasm ma'lumotlaridan ko'rindaniki, 2011–2013-yillarda Osiyo taraqqiyot fondidagi mablag'larning miqdori barqaror darajada saqlanib qolgan. Buning ustiga, ushbu mablag'larning miqdori 2013-yilda 2011-yilga nisbatan ma'lum darajada o'sgan.

O'zbekiston Respublikasi OTB a'zoligiga 1995-yilda qabul qilingan. Respublikamizning OTB ustav kapitalidagi ulushi 0,765 foizni tashkil etadi.

OTB tomonidan O'zbekistonga 1995–2010-yillar mobaynida berilgan kreditlarning umumiyligi summasi 1,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2010-yil 1–4 may kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan OTBning yillik yig'ilishida O'zbekistonga 1140 mlrd. AQSH dollari miqdorida kreditlar ajratish to'g'risida qaror qilindi.

¹ Asian Development bank. Annual Report. 2013. – P. 7. <http://www.adb.org>.

9.5. Islom taraqqiyot banki.

ITB 1974-yilda tashkil etilgan bo'lib, unga davlat dini islom dini bo'lgan 35 mamlakat a'zodir.

ITBning asosiy maqsadi unga a'zo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish hisoblanadi.

Islom dinida foiz olish og'ir gunoh hisoblanganligi sababli, ITB foizsiz kreditlar beradi. Bunda kreditlashning ikki asosiy shaklidan foydalaniladi:

1. Musharaka.
2. Mudaraba.

Musharakada ITB va tadbirkor investitsion loyihani birlashtirishda kreditlaydi. Loyihani amalga oshirish natijasida olingan foyda bank va tadbirkor o'rta tashkilot, ularning loyihani moliyalashtirishdagi ishtirokiga bog'liq ravishda, taqsimланади.

Shunisi xarakterlikni, investitsion loyihani amalga oshirish natijasida ko'rilgan zarar ham bank va tadbirkor o'rta tashkilot, taqsimланади.

Musharaka shartnomalari kompaniyaning aylanma mablag'larini to'ldirishda ham foydalanishi mumkin.

Mudarabada bank o'zining pul mablag'larini tadbirkorga (mudarib) ishonib topshiradi. Bunda bank mudaribdan berilayotgan kredit uchun garov talab qilishga haqli emas.

Mudaraba odatda qisqa va o'rta muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish maqsadiga beriladi.

Investitsiyalash uchun berilgan bank mablag'ini ishlatishdan olingan daromad bank va tadbirkor o'rta tashkilot, shartnomaga muvofiq, taqsimланади.

ITBning moliyaviy resurslari quyidagi manbalardan tashkil topadi:

- * a'zo mamlakatlarning kvotalari;
- * berilgan kreditlar uchun olingan pul mablag'lari;
- * islom obligatsiyalarini (sukuk) sotishdan olingan mablag'lar;
- * moliyaviy yordamlar.

ITB da Ulamolar kengashi faoliyat yuritadi. Ushbu kengash taniqli shayxlar va diniy olimlardan iborat bo'lib, ITB tomonidan qabul qilingan qarorlarni shariatga mos kelishini nazorat qiladi va fatvo beradi.

Tayanch so‘z va iboralar

Kvota; boshqaruvchilar kengashi; ijrochi direksiya; kredit; imtiyozli aksiya; marja; spred; resurs; obligatsiya; aksiya; kapital; maxsus fond; ekspropriatsiya.

Takrorlash uchun savollar

1. XVF faoliyatining qanday yo‘nalishlari mavjud?
2. XVF resurslari qaysi manbalar hisobidan tashkil topadi?
3. XVFning kreditlari qaysi shartlar asosida beriladi?
4. Juhon banki guruhiga qaysi tashkilotlar kiradi?
5. Juhon banki guruhiga kiruvchi tashkilotlar qaysi turdag'i aktiv operatsiyalarni bajaradi?
6. Juhon banki guruhiga kiruvchi tashkilotlarning resurslari qaysi manbalardan tashkil topadi?
7. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining kreditlari qaysi shartlar asosida beriladi?
8. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining resurslari qaysi manbalar hisobidan tashkil topadi?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. XVF faoliyatining maqsadlari va yo‘nalishlari.
2. XVFning resurs bazasi.
3. XVFning aktiv operatsiyalari.
4. XTTBning aktiv operatsiyalari.
5. XTTBning resurs manbalari.
6. YETTBning aktiv operatsiyalari.
7. YETTBning resurs manbalari.

TEST SAVOLLARI

